

# TARBIYACHI KITOBI

S A V O D

O' R G A T I SH

S

G

A



Nasiba Erxonova  
Zuhra Ro'ziyeva

**Nasiba ERXONOVA, Zuhra RO‘ZIYEVA**

**TARBIYACHI KITOBI**  
**SAVOD O‘RGATISH**

**ZAMIN NASHR**  
**Toshkent - 2021**

Mazkur **”Tarbiyachi kitobi Savod o’rgatish“** kitobi O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va **”Ilk qadam“** maktabgacha ta’lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturi asosida tayyorlandi.

Hurmatli kitobxon, aziz tarbiyachilar, mudiralar, metodistlar, maktabgacha ta’lim tizimining fidoyilari!

Savodli bo‘lish bilimlar kalitiga ega bo‘lish deganidir. Til va savodning rivojlanishi ona tilida ifodalash qobiliyatiga asoslanadi. **”Nutq, o‘qish va savodga tayyorgarlik“** yo‘nalishining asosi – so‘zlashuv nutqini tinglash va tushunish, kitob o‘qishga qiziqish uyg‘otish, yozish malakalarini rivojlantirishdir. Nutq, o‘qish va savodga tayyorlash yo‘nalishi quyidagi talablardan iborat bo‘lgan ikkita kichik sohani o‘z ichiga oladi:

1. Nutq sohasida bola so‘zlashuv tiliga zarur darajada ta’sirlanishi, atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olishi, nutqni tinglay olishi va tushuna bilishi, so‘ng gapirib, so‘zlasha olishi maqsad qilib olinadi.

2. O‘qish va savodga tayyorgarlik sohasida bolaning bosma materiallar va yozuv belgilari hamda harflarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Mazkur vazifalar qo‘llanmada amaliy jarayonlarda qanday olib borilishi aks etgan bo‘lib, tarbiyachilarning kundalik mavzuli rejalashtirishiga mos ravishda mavzular ketma ketligiga ko‘ra yaratilgan.

Shuningdek, qo‘llanmada ta’limiy-didaktik o‘yinlarning berilishi amaliyotchi-pedagoglarga ta’limiy faoliyatni innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda qiziqarli va samarali olib bolrish imkonini beradi.

Taqrizchilar:

**Kamola Risqulova**, Maktabgacha ta’lim vazirining davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi

**Dilafruz Maxmudova**, Maktabgacha ta’lim vazirligi Ta’lim jarayoni sifatini ta’minlash va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari

**Mavluda Rustamova**, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti katta o‘qituvchisi

**Shoista Sodiqova**, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta’lim fakulteti dotsenti

**Zamira Rasulova**, Namangan viloyat XTXQTMO hududiy markazi katta o‘qituvchisi

# GAP VA NUTQ HAQIDA ILK TUSHUNCHALAR

## **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarga soʻz, gap haqida misollar yordamida ma'lumot berish, ularda qisqa hikoya tuzish orqali bolalarda gap tuzish koʻnikmasini rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda jamoa boʻlib ishlash, ma'noli soʻzlash xususiyatlarini rivojlantirish;

**Rivojlantiruvchi:** bolaning lugʻat boyligini oshirish, ijodkorlik, tasavvur qilish qobiliyatini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kartochkalar, suratlar.

## **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening qarddon tarbiyalanuvchilarim. Qani, kim aytadi, biz yaqinda qanday bayramni nishonladik?

**1-bola:** – Biz mustaqillik bayramini nishonladik.

**Tarbiyachi:** – Bu bizning eng ulugʻ, eng aziz bayramlarimizdan biri va u mamlakatimizda keng nishonlandi. Respublikamizning barcha viloyatlarida bu kun oʻzgacha shukuh bilan tantana qilindi. Endi eʼtiboringizni slaydga qarating va unda nima tasvirlanganini aytib bering.

*(Slaydda 12 ta viloyatdagi bayram tadbirlari tasviri koʻrsatiladi.)*

**2-bola:** – Samarqandning Registon maydonida bayram tadbiri boʻlibdi. Unda hamma xursandligi rasmdan koʻrinib turibdi.

**3-bola:** – Poytaxtimizning Mustaqillik maydonida ham odamlar koʻp, ular bayramni nishonlashyapti. Bolalar xursand yurishibdi.

*(Bolalar shu tariqa barcha viloyatlardagi bayramlarni qisqacha gapirib beradilar.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, sizlar hozir slayddagi suratlar yordamida koʻrganlaringizni tasvirlab berdingiz. Bu tasvirlaringiz qisqacha gap deb ataladi. Gap esa oʻz oʻrnida soʻzlardan tashkil topadi. Masalan, qoʻlimda olma turibdi. U bitta soʻz, mevani anglatadi. Agar "Men olma yedim" desam, bu gapga aylanadi. Qoʻlimga oʻyinchoq oldim, oʻyinchoq – bitta soʻzdan iborat, agar "Oʻyinchoqni oldim" desam, u gapga aylanadi. Sizlar ham atrofingizni kuzatib, predmetlar nomini ayting.

*(Bolalar qalam, javon, stul, o'yinchoq, daftar, kitob, mashina, koptok, qo'g'irchoq, gilam, idish-tovoqlar, kubiklar, deraza, eshik, kompyuter, stol, qaychi, rangli qog'oz, karavot, yostiq kabi buyumlar nomlarini aytadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Endi shu so'zlar ishtirokida gap tuzamiz. Masalan, qalam so'ziga qanday gap tuzish mumkin?

**4-bola:** – Men qalamni oldim.

**5-bola:** – Javonda kitoblar turibdi.

**6-bola:** – Biz stulda o'tiribmiz.

**7-bola:** – Guruhimizda o'yinchoqlar ko'p.

**8-bola:** – Xonamizda koptoklar ko'p.

**9-bola:** – Derazamiz oq rangga bo'yalgan.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, siz hozir so'zlardan tarkib topgan fikr tugallangan gaplar tuzdingiz. Tugallangan ma'noli gaplar oxiriga nuqta belgisi qo'yiladi. Siz ham daftaringizni oling va unda men ko'rsatgandek nuqta belgisini qo'yib chiqing.

*(Bolalar ish daftariga nuqta belgisini qo'yadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, sizlar menga suratlar asosida gaplar aytdinglar. Ana shu gaplar asosida matnlar tuziladi va u nutqqa aylanadi. Kelinglar, hozir sizlar bilan gap haqidagi o'rganganlarimizni mustahkamlash uchun o'yin o'ynaymiz. Men birorta so'z aytaman, sizlar uning davomini aytishingiz kerak.

Kuz ... (keldi)

Barglar ... (sarg'aydi)

Havo ... (sovudi)

Paxta ... (ochildi)

Bolalar ... (maktabga chiqdi)

Hosil bayrami ... (o'tkazildi)

Mevalar ... (pishdi)

Poliz ekinlari ... (yig'ib olinyapti)

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, biz hozir kuzni ifodalovchi turli gaplar tuzdik. Bu gaplarning yig'indisi matn deyiladi. Hozir men sizga rasmlar beraman, sizlar rasm asosida gaplar tuzasiz, so'ng shu gaplardan birgalikda matn hosil qilamiz.

*(Tarbiyachi bolalarga kuzga oid surat ko'rsatadi. Suratda kuz manzarasi, osmonda bulut, bolalar maktabga ketayotgani, paxtakorlar paxta terayotgani, barglar sarg'ayib to'kilayotgani tasvirlangan, bolalar surat asosida gaplar tuzadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Endi esa sizlar bilan dam olish daqiqasi o‘tkazamiz.  
(*Tarbiyachi she‘r mazmuniga mos ravishda harakatlar qilib turadi, bolalar uning harakatlarini takrorlashadi.*)


Paxta lo‘p-lo‘p ochildi,  
Har tomonga sochildi,  
Chigitlari mayda-mayda,  
Terib olay tezda-tezda.

**Tarbiyachi:** – Endi men kichik matn o‘qib beraman, sizlar esa matndan tushunganlaringizni qayta hikoya qilib berasizlar.

## KAMALAK

Bahor fasli. Osmonni qora bulut qoplagan. Bir payt bulutlardan tomchilar yog‘a boshladi. Tomchilar kattalashib, yomg‘ir tezlashdi va jala quya boshladi. Birozdan so‘ng yomg‘ir tindi. Bulutlar orasidan quyosh mo‘raladi. Osmonning bir chekkasidan yer bilan tutashgan kamalak jilvalanib ko‘rina boshladi. Kamalakning yetti xil rangi ajoyib tovlandi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, matndan nimani tushundingiz?  
Kamalakning ranglarini aytib bering.  
(*Bolalarning javoblari tinglanadi.*)



# SO‘Z BILAN TANISHISH, SO‘Z QISMLARI HAQIDA MA‘LUMOT BERISH

## **Ta‘limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** tarbiyalanuvchilarga predmetlarning nomi so‘zlarda ifodalanishini, so‘zlar yozma shaklda harf bilan belgilanishini tushuntirish, so‘zlarni bo‘g‘inga ajratishni o‘rgatish, bolalarning gap haqidagi tasavvurlarini kengaytirish;

**Tarbiyaviy:** tarbiyalanuvchilarda hamdardlik tuyg‘usini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarning lug‘at boyligini oshirish, ularda tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, fasllar haqida suratlar, bo‘g‘inli kartochkalar.

## **Ta‘limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening sevimli tarbiyalanuvchilarim. Qani, kim aytadi, gap nimadan tashkil topadi?

**1-bola:** – Gap so‘zlardan tashkil topib, tugallangan fikrni bildiradi.

**Tarbiyachi:** – Juda to‘g‘ri. Bolajonlar, aytinglar-chi, hozir qaysi fasl?

**Bolalar:** – Kuz fasli.

**Tarbiyachi:** – Bir yilda nechta fasl bor?

**Bolalar:** – To‘rtta fasl bor: yoz, kuz, qish, bahor.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, o‘lkamizga bahor keldi. Bu gap nechta so‘zdan iborat?

**2-bola:** – Bu gap uchta so‘zdan iborat. O‘lkamizga – birinchi, bahor – ikkinchi, keldi – uchinchi so‘z.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi esa bahordagi o‘zgarishlar haqida kim aytib beradi?

**3-bola:** – Bahorda qushlar uchib keladi.

**4-bola:** – Bahorda ko‘p yomg‘ir yog‘adi.

**5-bola:** – Bahorda daraxtlar barg chiqara boshlaydi.

**Tarbiyachi:** – Xo‘sh, bolajonlar, bahorni erkalab nima deyishimiz mumkin?

**6-bola:** – Fasllar kelinchagi, yashillik elchisi, go‘zal fasl.

**Tarbiyachi:** – Qoyil, endi sizlar bilan bo‘g‘inlar haqida gaplashamiz. So‘zlar bir bo‘g‘inli va ko‘p bo‘g‘inli bo‘ladi. Masalan, non. Bu so‘z bir bo‘g‘inli

(*non so'zi yozilgan kartochka ko'rsatiladi*), o-na (*ona so'zi yozilgan kartochka ko'rsatiladi*), bu so'z ikki bo'g'inli. Bo-la-lar – bu so'z uch bo'g'inli hisoblana-di. Shuni unutmangki, har bir bo'g'inda bittadan unli bo'lishi shart. Endi men so'zlarni aytaman, sizlar esa qarsak chalishimga moslab ularni bo'g'inlarga ajra-tasizlar.

Ol-ma, bo-bo, bo-la, bu-vi, xo-la, am-ma, lo-la, xo-na.

**Tarbiyachi:** – Biz hozir ikki bo'g'inli so'zlarni ajratdik, endi esa bir bo'g'inli so'zlarga misollarni suratda ko'rsataman, sizlar uning nomini va qaysi harfi unli ekanligini aytasiz.

Bol – o harfi unli; non – o harfi unli; tun – u harfi unli; uch – u harfi unli; bir – i harfi unli; tol – o harfi unli; lab – a harfi unli; ko'z – o' harfi unli; tut – u harfi unli; qosh – o harfi unli.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi sizlar bilan dam olish daqiqasi o'tkazamiz. Mening harakatlarimga qarab barmoqlaringizni mashq qildirib olasiz.

Ko'p yozadi qo'llarimiz,  
Ham charchab ko'zlarimiz.  
Bir, ikki, uch,  
To'plab oldik kuch.  
Yana yozamiz, yana,  
Harflarimiz ko'p sara.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi slayddagi suratga qaranglar, unda kim tasvir-langan?

**Bolalar:** – Suratda bobo tasvirlangan.

**Tarbiyachi:** – Bobo so'zi nechta harfdan iborat?

**Bolalar:** – Bobo so'zi 4 ta harfdan iborat.

**Tarbiyachi:** – Bu so'zdagi unli harflar qaysilar?

**Bolalar:** – Bu so'zdagi unli harflar ikkita va u o harfi.

**Tarbiyachi:** – Bobo so'zini bo'g'inlarga ajrating.

**Bolalar:** – Bo-bo.

**Tarbiyachi:** – Yana qaysi so'z xuddi shunga o'xshaydi?

**Bolalar:** Bo-la, bu-vi, mo-mo, ha-vo.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, bobo so'zida o harfi so'zning qaysi o'rinlarida kel-yapti?

**Bolalar:** – Bobo so'zida o harfi ikkinchi va to'rtinchi harf bo'lib kelyapti. Bo-la so'zida esa ikkinchi harf bo'lib kelyapti.



**Tarbiyachi:** – Juda to‘g‘ri, endi buvi so‘zi ishtirokida uchta gap tuzing.

**Bolalar:** – Biz buvimizni yaxshi ko‘ramiz.

Buvim ertak aytib berdilar.

Buvimning ko‘zoynagi bor.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bo‘g‘inlar ochiq va yopiq bo‘ladi. Masalan, ol-ma so‘zidagi birinchi bo‘g‘in yopiq, ikkinchi bo‘g‘in esa ochiq. Chunki ikkinchi bo‘g‘in oxiri unli harf bilan tugayapti. Endi yopiq bo‘g‘inli so‘zga misol aytamiz:

an-jir, at-las, ka-ram, ba-nan, ho-vuz, tar-vuz, kap-kir, daf-tar, qa-lam.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi esa guruhimizda qizlar bitta guruhga, yigitlar ikkinchi guruhga ajralamiz. Ikkita savatda turli buyumlar qo‘yilgan, qizlar bu vijonimizga tegishli buyumlarni ajratasizlar, yigitlar esa bobolarimizga kerakli narsalarni ajratadilar.

*(Bolalar buvi va boboga tegishli buyumlarni ajratadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, qani, buvimizga kerakli buyumlar nimalar ekan, ularning nomini ayting va nima uchun foydalanilishini tushuntirib bering.

**1-qiz:** – Angishvona, u tikayotganda qo‘lga igna kirib ketmasligi uchun ishlatiladi.

**2-qiz:** – Qo‘limdagi bu narsa ko‘zoynak, buvilarimiz ko‘zlari xira ko‘rgani uchun ko‘zoynak taqadilar.

**3-qiz:** – Bu ro‘mol, buvijonlarimiz, odatda, ro‘mol o‘rab oladilar.

**4-qiz:** – Bu ro‘molcha, buvilarimizning yonlarida har doim ro‘molcha bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, qani, endi yigitlar, bobolar savatidan nimalar topdingiz va ular nima uchun ishlatiladi?

**1-bola:** – Taroq topdik, taroqdan sochlarni tarab, tartibga keltirish uchun foydalanamiz.

**2-bola:** – Qo‘l soati. Bobomiz qo‘l soatini taqib, vaqtni bilib turadilar.

**3-bola:** – Bu tok qaychi, unda bobomiz daraxtlar va atirgullarning shoxlarini kesadilar.

**Tarbiyachi:** – Qoyil, bolajonlar, endi esa hammmiz kim istasa bobosini, kim istasa buvisini maqtab, bittadan gap aytasizlar. Kimning maqtovi eng chiroyli bo‘lsa, o‘sha bola g‘olib sanaladi.

*(Bolalar mening buvim mehribon, mening bobom aqlli, mening bobom kuchli, mening buvim zo‘r pazanda kabi gaplar bilan maqtaydilar, eng yaxshi maqtov aytgan ishtirokchi qarsaklar bilan olqishlanadi.)*

# BO'G'IN HAQIDA MA'LUMOT BERISH

## **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarga predmetlarning nomi so'zlarda ifodalanish ni, so'zlar yozma shaklda harflarda belgilanishini tushuntirish, so'zning qismla ya'ni bo'g'inlarga bo'linishini o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** tarbiyalanuvchilarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalarini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** og'zaki nutqni yozma nutqda ifodalash mumkinligini tushuntirish, so'zlar harflardan tashkil topishi va bo'g'inlarga bo'linishini o'rgatish, tarbiyalanuvchilarda ahillik, inoqlik xislatlarini tarkib toptirish, so'z boyligini o'stirish, fikrlash, xulosa chiqarishga o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, bo'g'inli kartochkalar.

## **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolalar, bir esga oling-chi, tovush nima edi? Birgalikda eslab olamiz. Quloq eshitadigan har qanday ovoz tovush deyiladi. Qulog'imiz nimalarni eshitadi? Gapirganimizni, kuylaganimizni, qichqirganimizni, yomg'irning shivirlab yog'ishini, momaqaldiroq gumburlab, chaqmoq chaqqanini, qushlarning sayrashini, hayvonlarning ovozin eshitadi. Mana shu eshitilgan ovozlarning tovush deyiladi. Hozir men sen bilan "Ovozidan top" o'yinini o'ynayman. Bu juda qiziq o'yin.

*(Tarbiyachi "Ovozidan top" o'yinini tashkil etadi. Bola qaysi hayvonning ovozi ekanini farqlashi kerak. Tarbiyachi bolaga xo'roz, mushuk, echki, kuchuk o'yinchoqlarini ko'rsatadi va ular haqida so'zlab berishi hamda qanday ovoz chiqarishini mashq qildiradi. Masalan, tarbiyachi bolaga echki bolasini ko'rsatadi. Bu ulochqa. U kichkina, shoxi, qulog'i bor. Uloqchani dumi kalta. Uloqcha "Me-ye-ye, me-ye-ye" deb ovoz chiqaradi. Bolalar ulochqaning ma'rashiga taqlid qiladilar.)*

**Tarbiyachi:** – Buzoq qanday ma'raydi?

**Bolalar:** – "mu-u..." deb ma'raydi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, o‘tgan mavzuni ham mustahkamlab oldik. Endi men sizlarga turli kartochkalar ko‘rsataman, sizlar unda nimalar tasvirlanganini aytishingiz kerak.

*(Tarbiyachi kema, olma, daraxt, ruchka, daftar, stol, shkaf, deraza, anor, qo‘g‘irchoq kabi predmetlar rasmini ko‘rsatadi, bolalar esa ularning nomini aytishadi.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, suratlarning nomini to‘g‘ri topdingiz. Sizlar aytgan mana shu nomlar so‘z deyiladi. Demak, har bir narsa-buyum nutqimizda so‘zlarda ifodalanar ekan. Shuningdek, insonlar ismi va hayvonlar laqabi, joylar nomlari ham so‘zlarda ifodalanadi. Masalan, biz yashayotgan poytaxt shahar nomi Toshkent deb nomlanadi. Qadimiy shahar bo‘lgan Samarqandning nomi shunday ataladi. Minoralarga boy yurt Buxoroning nomi – Buxoro.

Nutqimizdagi barcha so‘zlar tovushlardan tashkil topadi, yozuvda esa hamma so‘zlar harf va bo‘g‘inlardan tashkil topadi.

Keling, hozir men bo‘g‘inlarni aytaman, sizlar esa shu bo‘g‘inlardan so‘z hosil qilasiz.

Lo-la, ol-ma, o-na, bo-bo, a-ka, u-ka, bu-vi, bo-la.

*(Tarbiyachi har bir bo‘g‘inni alohida ajratib (masalan, chapak chalish yordamida) aytib ko‘rsatadi.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, har bir bo‘g‘inda bittadan unli tovush bo‘ladi. Diqqat qiling, o-na so‘zida ikkita unli harf bo‘lgani uchun ham bu so‘z ikki bo‘g‘indan tashkil topgan.

Endi har biringiz navbati bilan bitta so‘z o‘ylang va uni bo‘g‘inga ajratib ayting.

*(Bolalarni amaliy jarayonda tarbiyachi yo‘naltirib boradi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, men so‘z aytaman, sizlar esa bu so‘zlarni qanday aytayotganimni kuzatasiz. Ol-ma, non. Qaysi so‘zni qismlarga bo‘lib talaffuz qildim?

**Bolalar:** – Ol-ma so‘zini.

**Tarbiyachi:** – Non so‘zini-chi?

**Bolalar:** – Bu so‘z qismlarga ajratilmadi.

**Tarbiyachi:** – So‘zdagi har bir qism bo‘g‘in deb ataladi. Ol-ma so‘zi necha qismdan iborat edi?

**Bolalar:** – Ikki qismdan iborat.

**Tarbiyachi:** – Aytib ko‘r. Ol-ma. Olma so‘zida nechta bo‘g‘in bor ekan?

**Bolalar:** – Olma so‘zida ikkita bo‘g‘in bor ekan.

**Tarbiyachi:** – Non so‘zida nechta qism bor?

**Bolalar:** – Bitta qism bor.

**Tarbiyachi:** – Shu qismni bo‘g‘in deb nomlaymiz. Non bir bo‘g‘inli so‘z. Demak, so‘zlar nimalarga bo‘linadi?

**Bolalar:** – So‘zlar bo‘g‘inlarga bo‘linadi.

”O‘ylaganimni top!“ o‘yini

**Maqsad:** bolalarga so‘zni qismlarga bo‘lib talaffuz qilish bilan bo‘g‘in tushunchasini tushuntirish.

### ***O‘yinning borishi:***

**Tarbiyachi:** – Men ikki bo‘g‘inli mevaning nomini o‘yladim. Top-chi, qaysi mevaning nomini o‘ylagan ekanman?

Ol-cha, ol-ma, be-hi, an-jir.

**Tarbiyachi:** – Endi qaysi sabzavotning nomini o‘yladim?

Sab-zi, shol-g‘om, pi-yoz, kar-tosh-ka, pomidor.

**Tarbiyachi:** – Endi sizlar bilan bir o‘yin o‘ynaymiz, bunda men bir bo‘g‘in aytaman, sizlar shu bo‘g‘in ishtirokida so‘z tuzasiz.

Bo(bo), lo(la), ol(ma), bu(vi), li(mon), xur(mo), mak(tab), bog‘(cha), xo(la), bo(la), qo(vun), tar(vuz), mu(shuk), lay(lak), ko(sa), ta(roq), qa(lam), qo(g‘oz).

Bu so‘zlarning birinchi bo‘g‘inini tarbiyachi aytadi, bolalarga yordam sifatida pantomima harakatlari bilan ko‘rsatib turiladi.

Dam olish daqiqasi

Olma terdim ko‘pgina,

Hosili mo‘l, ko‘pgina,

Baland-baland shoxlardan,

Olay uzib ko‘pgina.

*(Matnga mos harakatlar bajariladi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir sizlarga so‘zlardagi bo‘g‘inlarning sxemasini chizib ko‘rsataman. Qarang, so‘zda bitta bo‘g‘in bo‘lsa, bitta belgi bilan, agar ikkita yoki uchta bo‘g‘in bo‘lsa, shuncha belgi bilan belgilanadi.

*(Dokaga bo‘g‘inlar sxemasi chizib ko‘rsatiladi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, kelinglar, sizlarga bo‘g‘inlar haqida ertak aytib beraman.

## QAYSAR BO‘G‘INCHA

Nasiba Erxonova

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir qaysar bo‘g‘incha bor ekan, u boshqa bo‘g‘inlarni atrofiga sira yaqinlashtirgisi kelmas ekan. Bir kuni qari Bo‘g‘in bobo nevarasiga nasihat qilibdi:

– Bolajonim, sen bunday qaysarlik qilaversang, do‘stlaring sendan uzoqlashib ketadi, bir o‘zing yakkalanib qolasan. Bittagina bo‘g‘in hech qanday ma‘no anglatmaydi. Hech kim seni eslamaydi, hatto tiliga ham olmay qo‘yadi. Shuning uchun sen boshqa bo‘g‘inlarni ham o‘z oldingdan qshyasan, orqangdan ergashtirasan va har xil so‘zlar hosil qilasan. Ana shunda seni odamlar tillaridan qo‘ymay gapirib yurishadi.

Bobosining bu gapidan bo‘g‘in o‘yga tolibdi. Boshqalarni yoniga yaqinlashtirgisi kelmasa ham, bog‘ga chiqib, boshqa bo‘g‘inlar bilan do‘st bo‘la boshlabdi. Shunda uning oldiga turli bo‘g‘inlar old tomoni va orqa tarafidan kelib ulana boshlabdi. Natijada turli so‘zlar hosil bo‘libdi. Bundan erka va tanti bo‘g‘inchaning o‘zi ham xursand bo‘libdi.

Shundan beri bo‘g‘incha hamma bo‘g‘inlarni o‘ziga do‘st bilib, birgalikda ahil-inoq yasharkan. Odamlar esa bo‘g‘inchani tillaridan qo‘ymay gapirib yurisharkan.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ko‘rdingizmi, tantilik qilib, yolg‘iz yurish hatto bo‘g‘inlarga ham yarashmaydi. Yolg‘iz bo‘g‘indan so‘z yasalmaydi.

Endi ishchi daftaringizni oling va unda berilgan rasmlarning nomini so‘zda qanday ifodalanishini aytamiz. Undan keyin bu so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib ta-laffuz qilamiz.

*(Amaliy ish bajartiriladi.)*



# TOVUSH VA HARFLARNI O'RGANAMIZ

## **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarga tovushlar, ularning xilma-xilligi haqida tushuncha berish, tovushlar harf vositasida ifodalanishini tushuntirish, so'zlardagi tovushlarni his qilishga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda guruh bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish, ularga xushmuomalalik yaxshi xislat ekanligini tushuntirish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarda ijodkorlik qobiliyatini o'stirish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish, lug'at boyligini oshirish.

**Kerakli jihazlar:** AKT vositasi, mavzuga oid suratlar, bo'g'inli kartochkalar.

## **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, bolajonlar. Bugungi ta'limiy faoliyatimizda tovush va harflar haqida suhbatlashamiz. Biz bilamizki, odamlar bir-biridan nimanidir so'rashga yoki ularga nimanidir aytishga ehtiyoj sezadi. Ana shu ehtiyoj natijasida nutq paydo bo'lgan. Nutqning yozuvdagi shakli matn deyiladi. Matnlar gaplardan, gaplar so'zlardan, so'zlar bo'g'inlardan, bo'g'inlar esa harflardan tuziladi. Biz tovushlarni eshitamiz, ularning yozuvdagi ifodasi esa harf deyiladi. Masalan, hozir piyolaga qoshiqni urib ko'raman, siz nimani sezdingiz?

**Bolalar:** – Ovoz chiqyapti.

**Tarbiyachi:** – Xo'p, endi qog'ozni g'ijimlab ko'raman, uni qimirlataman, ovoz eshitilayaptimi?

**Bolalar:** – Ha.

**Tarbiyachi:** – Endi esa audiodagi ovozni birgalikda eshitamiz.

*(Audioda arining vizzz-vizzz degan ovozi eshittiriladi.)*

**Tarbiyachi:** – Bu nimaning ovozi?

**Bolalar:** – Bu qog'ozning ovozi.

**Tarbiyachi:** – Tabiatdagi, borliqdagi hamma narsaning ovozi bor. Mana, masalan, eshikni ochdik, yopdik, o'ziga xos tovush eshityapti. Xuddi shuningdek, bu tovushlarning harfda ifodasi ham bor. Masalan, a harfini olaylik. Anor, arpa, arqon kabi so'zlar a harfi bilan boshlanadi. Bu harfning bosma shaklini doskaga yozib ko'rsataman. Sizlarga esa "nuqtalarni birlashtiring" topshirig'ini beraman. Siz nuqtalarni birlashtiring va qo'lingizni yozuvga tayyorlang.

*(Bolalar "nuqtalarni birlashtir" topshirig'ini bajaradilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, har bir tovush o‘ziga xos. Hozir men sizlarga suratlar ko‘rsataman. Sizlar unda tasvirlangan narsaning qanday ovoz chiqarishini aytib berasizlar.

*(Tarbiyachi bolalarga suratlarni ko‘rsatadi, bolalar javob beradilar.)*

**1-bola:** – Birinchi suratda sichqon ko‘rsatilgan. Sichqon chiy-chiy-chiy deb ovoz chiqaradi.

**2-bola:** – Ikkinchi suratda mushuk ko‘rsatilgan, mushuk miyav-miyav deb miyovlaydi.

**3-bola:** – Uchinchi suratda kakku ko‘rsatilgan, kukku kuk-ku, kuk-ku deb ovoz chiqaradi.

**4-bola:** – To‘rtinchi suratda ot ko‘rsatilgan. Ot dikir-dikir degan ovoz chiqaradi.

**5-bola:** – Beshinchi rasmda chigirtka tasvirlangan. Chigirtka chiyillagan ovoz chiqaradi.

**6-bola:** – Oltinchi suratda bedana tasvirlangan. Bedana har sayraganida pit-piliq degan ovoz chiqaradi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar. Endi dam olish daqiqasi o‘tkazamiz. Hammamiz o‘rnimizdan turamiz, poyezd misoli ovoz chiqarib, xonani ikki marta aylanib chiqamiz.

*(Aylanish asnosida cho‘x-cho‘x-cho‘x, vishsh-vishsh degan ovozlarni chiqariladi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, tovushlar unli va undosh bo‘ladi. Unli tovushlar talaffuz qilinayotganda hech qanday to‘siqqa uchramaydi, a-a-a-a-a-a-a, o-o-o-o-o-o-o, u-u-u-u-u-u-u, i-i-i-i-i-i-i. Talaffuz qilib ko‘ring.

Undosh tovushlar esa og‘iz bo‘shlig‘ida turli to‘siqlarga uchrab paydo bo‘ladi, ularning talaffuzida havo oqimi sirg‘alib yoki portlab chiqadi. Masalan, b, p, t, d, g, r. Qani, hammangiz mening ketimdan qaytaringlar-chi.

B, P, T, D, G, R.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, biz qaysi tilda gaplashamiz?

**Bolalar:** – O‘zbek tilida gaplashamiz.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, biz o‘zbek tilida gaplashamiz. Xuddi biz kabi rus, ivoq, tojik tilida ham odamlar gaplashadilar va ularning ham o‘z tovushlari va harflari bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi esa men sizlarga so‘zlar aytaman, sizlar uning bosh harfi nima ekanligini aytib berasizlar.

Olma (bosh harfi – o), varrak (bosh harfi – v), shamol (bosh harfi – sh), sandiq (bosh harfi – s)

Nok (bosh harfi – n), gilos (bosh harfi – g), devor (bosh harfi – d), randa (bosh harfi – r).

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, kelinglar, hozir sizlar bilan bo‘g‘inga ajratish mavzusini takrorlab olamiz. Men so‘z aytaman, kim bo‘g‘inga ajrata olsa, qo‘lini ko‘tarib javob beradi.

Likop, qalam, tandir, xurmo, daftar, jo‘ja, tovuq, karvon, hayvon, bo‘ri, banan.

*(Tarbiyalanuvchilar ushbu so‘zlarni bo‘g‘inga ajratadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, sizlar bo‘g‘in ajratishni ancha o‘zlashtirib olibsiz. Bu meni xursand qildi, qani, kim xursand bo‘ldi so‘ziga o‘xshash so‘z topa oladi?

*(Bolalar, mamnun bo‘ldi, quvondi, shod bo‘ldi, kayfiyati ko‘tarildi kabi gaplarni aytadilar.)*


**Tarbiyachi:** – Bolalar, ota-onangiz qachon xursand bo‘ladilar? Qani, kim shu mavzuda gap tuzadi?

**7-bola:** – Oyim salom berganimda xursand bo‘ladilar.

**8-bola:** – Buvim hovlilarni supurganimdan quvonadilar.

**9-bola:** – Menga shokolad berishganidan xursandman.

**Tarbiyachi:** – Qoyil, sizlar juda ham topqir bo‘lib ketibsizlar. Har doim ham-mamiz yaxshi kayfiyatda bo‘laylik, keyingi ta‘limiy faoliyatimizdan boshlab o‘zbek tilidagi harflar bilan navbatma-navbat tanishib boramiz.





# UNLI VA UNDOSSH HARFLAR

## Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta'limiy:** bolalarga unli va undosh tovushlar haqida tushuncha berish, ularning nutqini o'zlashtirish;

**Tarbiyaviy:** – tarbiyalanuvchilarda chiroyli gapirish ko'nikmasini shakllantirish, ijobiy ma'noli so'zlarni farqlashga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** – tarbiyalanuvchilarning lug'at boyligini oshirish, ularning nutqi ravon bo'lishiga erishish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, mavzuga doir suratlar.

## Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening qarddon, quvnoq bolajonlarim. Bugun sizlar bilan ta'limiy faoliyatimizda unli va undosh harflar haqidagi bilimlarimizni boyitib olamiz. Harflar unli va undosh bo'ladi. Tovushlarni talaffuz qilganimizda havo og'izda to'siqqa uchramay erkin o'tsa va faqat ovoz eshitilsa, bu unli harflardir. Undosh tovushlar esa og'izda to'siqqa uchraydi.

Hozirgi o'zbek tilida 6 ta unli fonema mavjud: a, o, i, e, u, o'.

O'zbek tilidagi undosh tovushlar bilan tarnishing: b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, sh, ch, ng.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, men hozir unli tovushlarni talaffuz qilaman, sizlar esa ortimdan qaytarasizlar. A-a-a-a-a. Qani, a harfi bilan boshlanadigan so'zlardan kim ayta oladi?

**1-bola:** – Alla, bo'g'inga bo'lsak al-la bo'ladi.

**2-bola:** – Abbos, bo'g'inga bo'lsak Ab-bos bo'ladi.

**3-bola:** – Amma, bo'g'inga bo'lganimizda am-ma bo'ladi.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri, zukko bolajonlarim. Qani, endi "o" harfini talaffuz qilib ko'ramiz. O-o-o-o-o. Xo'sh, kim "o" harfi bilan boshlanadigan so'z aytadi?

**4-bola:** – Olma, bo'g'inlab esa ol-ma deyiladi.

**5-bola:** – Ozg'in, bo'g'inlab oz-g'in deyiladi.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri, endi esa i-i-i-i-i-i deb birgalikda talaffuz qilib ko'ramiz.

**Tarbiyachi:** – Qani, kim "i" tovushi ishtirok etgan so'zlarni ayta oladi?

**6-bola:** – Issiq, bo'g'inlab is-siq o'qiladi.

**7-bola:** – Imkon, bo'g'inlab im-kon deb o'qiladi.

**Tarbiyachi:** – E-e-e-e, u-u-u-u-u, o‘-o‘-o‘-o‘-o‘-o‘ harflari ham talaffuz qilayotganimizda hech qanaqa to‘siqqa uchramaydi. Unli tovushlarni ittagancha cho‘zish mumkin. Masalan, amm-a-a-a deganimda ”a“ harfini bimalol cho‘zib ayta olaman. Lekin undosh tovushdan, masalan, non deganimda ”n“ harfini cho‘zib aytolmayman. ”N“ tovushini talaffuz qilayotganda til, tish, milk va hatto lab ham to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun ham u qisqa aytiladi. Qop, til, rom, devor, shamol, taxta, parta, kitob, qalam kabi so‘zlar ham hammasi undosh tovush bilan boshlanadi va bu so‘zlarni ming urinsak ham cho‘za olmaymiz. Shu so‘zlarni ketma-ketlikda mening ketimdan talaffuz qilib ko‘ringlar. Qop, til, rom, devor, shamol, taxta, parta, kitob, qalam.

*(Bolalar tarbiyachi jo‘rligida ushbu so‘zlarni talaffuz qiladilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, kelinglar, hozir sizlar bilan dam olish daqiqasi o‘tkazib olamiz, ana undan keyin ta’limiy faoliyatimizni davom ettiramiz.

Tasavvur qiling, biz samolyot bo‘lib uchyapmiz. Qo‘llarimizni ikki yonga cho‘zamiz va aylanamiz. Zuv-zuv, zuv-zuv shamoldek yelyapmiz, zuv-zuv yelyapmiz, yo‘lda bulutlar, bo‘ronlar, ularga taslim bo‘lmayapmiz, o‘zimiz ham shamoldek yelamiz.

*(Bolalar tarbiyachi boshchiligida xonada ovoz chiqarib aylanishadi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi e‘tiboringizni slayddagi suratga qarating va surat asosida kichik matn tuzing.

*(Tarbiyachi istirohat bog‘i tasvirlangan slayd namoyish qiladi.)*

**8-bola:** – Bolalar istirohat bog‘iga borishdi.

**9-bola:** – Bog‘da turli attraksionlar ko‘p edi.

**10-bola:** – Bolalar, ayniqsa, muzqaymoq sotilayotganini ko‘rib xursand bo‘lib ketishdi.

**Tarbiyachi:** – Yaxshi, barakalla, bolajonlar. Qani, kim aytadi, istirohat bog‘iga borganda nimalar qilish mumkin, nimalar qilish mumkin emas?

**11-bola:** – O‘zimizdan kattalarni ko‘rganda assalomu alaykum deyishimiz kerak.

**12-bola:** – Baqirmasdan, baland ovozda kulmasdan, odob bilan gapirishimiz kerak.

**Tarbiyachi:** – Do‘stlarimizga laqab qo‘yishimiz mumkinmi?

**13-bola:** – Do‘stlarimizga laqab qo‘ysak, bu xunuk ko‘rinadi, do‘stlarimizning ismini laqabsiz yana qisqartirmasdan to‘liq aytishimiz kerak.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, Baho, Zilol, Jami kabi ismlar qisqartmasi o‘sha do‘stimizga nisbatan hurmatsizlik bo‘ladi. Sizlar bajarayotgan amal ham, gapingiz ham har doim go‘zal bo‘lishi kerak. Bolajonlar, kelinglar, endi, barmoqlar-

imiz yordamida oldindan chizilgan suratlarni rangli bo‘yoqqa qo‘limizni botirib bo‘yaymiz. Bu usul bizni bo‘shashtirishi bilan birga, estetik zavq ham bag‘ishlaydi. Ranglar uyg‘unligini ko‘rganda kayfiyatimiz ko‘tariladi. Har bir rangni bo‘yayotganimizda o‘sha rang unli yoki undosh harfdan boshlanishini ham aytib o‘tamiz. Xo‘p, hamma tayyor bo‘lsa, qani boshladik.

*(Tarbiyachi bolalarga oldindan chizilgan suratlarni va bo‘yoqlarni tarqatib chiqadi.)*

**Tarbiyachi:** – Birinchi bo‘yog‘imizning rangi qizil ekan. Qi-zil, ”q“ harfi unli ekanmi yoki undoshmi, e’tibor bering. Qi-zil.

*(Bolalar ”q”ning undosh ekanligini aytadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Keyingi bo‘yoqning rangi oppoq, xo‘sh ”o“ harfi unliga o‘xshaydimi yoki undoshga?

*(Bolalar ”o”ning unli ekanligini aytadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bu bo‘yoqning rangi ko‘m-ko‘k. Xo‘sh, ”k“ qanday tovush ekan?

*(Bolalar ”k“ undosh tovushligini aytadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, endi esa qo‘llarimizni yuvib olamiz va joylarimizni egallaymiz. Men sizlarga suratlar ko‘rsataman, sizlar suratdagi narsaning nomi va uning bosh harfini topishingiz kerak.

*(Tarbiyachi koptok, ro‘mol, javon, kitob, paxta, ombir, lola, mosh, ko‘prik, uzum, uy suratlarini ko‘rsatadi, tarbiyalanuvchilar ularning nomi va bosh harfini aytib beradilar.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, sizlar judayam topqir ekansizlar. Endi esa sizlar bilan ”qaysi so‘z adashib qoldi“ o‘yinini o‘ynaymiz. Men so‘zlar ketma-ketligini o‘qiyan, sizlar men o‘qigan qatordagi qaysi so‘z ortiqchaligi va nima uchun ortiqchaligini aytib berasizlar.

Ko‘z, quloq, burun, lab, daftar (daftar ortiqcha, tana a‘zolari va daftar bir-biriga mos emas).

Qizil, yashil, sariq, oq, qoshiq (qoshiq ortiqcha, ranglar orasida qoshiq idish-tovoq sanaladi va u ranglarga kirmaydi).

Ip, igna, qaychi, angishvona, bolg‘acha (bolg‘acha ortiqcha, chunki undan oldingi buyumlar tikuvchiliki edi).

Stol, stul, javon, qo‘g‘irchoq (qo‘g‘irchoq ortiqcha, qo‘g‘irchoq mebellar orasiga kirmaydi).

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar. Bugungi ta’limiy faoliyatimizda ham-mangiz faol ishtirok etdingiz.

# “ O ” TOVUSHI VA HARFI

## **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarni "o" harfi va tovushi bilan tanishtirish, "o" tovushini talaffuz qilishga, "o" tovushining soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida kelishini oʻrgatish;

**Tarbiyaviy:** bolalarga doʻstona muhitda ishlashni, jamoada bir-birlarini hurmat qilish qoidalarini oʻrgatish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarning savol-javoblar vositasida nutqini rivojlantirish, soʻz boyligini oshirish.

**Kerakli jihozlar:** "o" harfining suratlari, "o" harfi ishtirok etgan soʻzlarning suratlari, qogʻoz, rangli qalamlar.

## **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening qiziquvchan va qadrdon bolajonlarim. Bugun sizlar bilan "o" tovushi va harfi haqida suhbatlashamiz. Qani, kim aytadi, oʻtgan gal ta'limiy faoliyatimizda qaysi tovush haqida suhbatlashgan edik?

**1-bola:** – "A" harfi haqida suhbatlashgan edik.

**Tarbiyachi:** – Toʻgʻri, "a" harfi unli harf edi-a, bolajonlar. Qani, kim menga "a" tovushi ishtirok etgan soʻzlarni aytib beradi?

**2-bola:** – Asal, avtomat, argʻimchoq, ashula, atlas, ananas.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolalar, bugungi oʻtadiganimiz "o" harfi va tovushi "O" unli tovush. Qani, eʼtiboringizni slaydga qarating, koʻrib turganingiz "e" harfi. "O" talaffuzda toʻsiqqa uchramaydi va biroz choʻzilib aytiladi. Hozir ham mamiz birgalikda "o" tovushini talaffuz qilamiz – "O"

*(Tarbiyachi va bolalar "o" tovushini talaffuz etishadi.)*

**Tarbiyachi:** – "O" harfi katta va kichik koʻrinishda, bosma shaklda qanday ekanligini slayddan koʻrishingiz mumkin.

**Tarbiyachi:** – "O" tovushi unli tovush, uni aytsak – tovush, agar kitoblarda koʻrsak va daftarga yozsak harf deb ataymiz. Endi yana diqqatingizni slaydga qarating, unda "o" harfi ishtirok etgan soʻzlar suratlari bilan birgalikda berilgan.

Qani, birgalikda qaytaramiz: os-mon, ol-ma, ol-cha, ot, osh, bo-zor, ol-xo‘-ri, ol-ti, ov-qat.

Endi esa, tasavvuringizni ishga soling va ayting-chi, ”o“ harfi qaysi narsa yoki buyumga o‘xshab ketadi?

**3-bola:** – Chizilgan quyoshga o‘xshaydi, men har gal quyoshni dumaloq shaklda chizaman.

**4-bola:** – ”O“ harfi koptokka o‘xshaydi.

**5-bola:** – ”O“ harfi g‘ildirakka ham o‘xsharkan, mashinaning g‘ildiragi ham xuddi ”o“ harfini eslatadi.

**6-bola:** – ”O“ harfi uzukka ham o‘xshaydi.

**7-bola:** – ”O“ harfi pufakka ham o‘xshaydi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar. Endi esa mana bu topishmoqning javobini topinglar.

Onalari tokchadan tushsa,

Bolalari yugurib keladi.

Bu nima?

**Bolalar:** – Choynak va piyola.

**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri javob topdinglar. Qani, endi ”o harfi bilan boshlanadigan ”ona“ so‘ziga birgalikda ta‘rif beramiz. Kim o‘z onasini eng yaxshi so‘zlar bilan ta‘riflar ekan?

**8-bola:** – Onam judayam pazandalar.

**9-bola:** – Onam dunyodagi eng mehribon inson.

**10-bola:** – Onamning hamma jihatlari menga yoqadi.

**11-bola:** – Oyimni borliklari uchun yaxshi ko‘raman.

**12-bola:** – Mening onam juda saxiy.

**13-bola:** – Mening onam esa hammani yaxshi ko‘radilar, hammaga yordam beradilar, ularni yaxshi ko‘raman.

**Tarbiyachi:** – Qoyil, bolajonlarim, hammangiz onangizni yaxshi ko‘rar ekansiz. Qani, endi, sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazib olamiz.

Oymomomiz op-poq,

Dum-dumaloq yalpoq,

Muloyim boqadi u,

Tunimiz etar yog‘du.

*(Hamma qo‘llarini ko‘tarib oymoma shaklini yasaydi, qo‘llarini tushiradi. Bu mashq uch-to‘rt marotaba bajariladi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir men sizlarga Zahro Hasanovanning ”Oilam“ nomli she‘rini o‘qib beraman. Sizlar esa, unda ”o“ tovushi ishtirok etgan so‘zlarni diqqat bilan eshitinglar, keyin menga aytib berasizlar.

Oila – otam,  
 Oila – onam,  
 Oila – ukam ko‘zlari.  
 Oila – singlim,  
 Oila – bobom.  
 Buvijonim so‘zlari.  
 Oila desam biri tan,  
 Biri jondek ko‘rinar.  
 Mo‘jazgina mustahkam,  
 Bir vatandek ko‘rinar.  
 Men ulardan o‘zimni  
 Tasavvur etmam ayro,  
 Oila – kichik Vatanim,  
 Men jilg‘aman, u – daryo.

**Tarbiyachi:** – Xo‘sh, bolajonlar, qani kim ushbu she‘rda ”o“ tovushi qatnashgan so‘zlarni aytib beradi?

*(Bolalar o‘zlari eslab qolgan ”o“ tovushi ishtirok etgan so‘zlarni aytib beradilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi sizlar bilan ”bir so‘z bilan ayt“ o‘yinini o‘ynaymiz. Bu o‘yin tahlil qilish qobiliyatimizni rivojlantiradi.

Masalan, qizil, sariq, yashil, ko‘k: bular – ranglar. Men so‘zlarni o‘qiyman, sizlar ularni umumiy nom bilan atab aytib berasizlar.

Olcha, olma, olxo‘ri – ... (Meva)

Bir, ikki, uch, to‘rt – ... (Sonlar)

Oval, uchburchak, to‘rtburchak – ... (Shakllar)

Bahor, yoz, kuz, qish – ... (Fasllar)

Piyola, choynak, qoshiq, likopcha – ... (Idish-tovoqlar)

Atirgul, lola, orxideya – ... (gullar)

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, sizlar bu vazifani ham oson uddaladinglar. Endi esa mana bu savollarga javob beringlar.

”O“ harfi so‘zning boshida kelgan so‘zga misol ayting.

”O“ harfi so‘zning o‘rtasida kelgan so‘zga misol ayting.

”O“ harfi so‘zning oxirida kelgan so‘zga misol ayting.

*(Bolalar misollar aytadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, endi yoningizga qo‘yilgan qog‘ozga quyosh rasmini chizinglar.



## ”O“ HARFI

# DIDAKTIK O‘YINLARI

### ”KIM TOPQIR?“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarni topqirlikka o‘rgatish.

Tarbiyachi topishmoqlar aytadi, bolalar topishmoqlar javobida ”o“ harfi ishtirok etganligiga ahamiyat berishi kerak.

Urdim, gup etdi,

Yer tagiga kirib ketdi. (ketmon)

Tushgan yerini uzar. (Ombur)

To‘rt oyoqli, temir tuyoqli. (Ot)

Tumshuqsiz chumchuq muz teshar. (Tomchi)

Oppoqqina dasturxon,

Yer yuzini qoplagan. (Qor)

Kecha tomda bir patir ko‘rdim,

Erta qaragam – yo‘q. (Oy)

Ko‘k ko‘ylakka qo‘l yetmas. (Osmon)

### ”HAMMASI ”O“ HARFIDAN“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** tarbiyalanuvchilarning ”o“ harfi haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

Tarbiyachi bolalarga savollar beradi, javob so‘zlar ”o“ harfi bilan boshlanishi kerak.

Beshdan keyingi keladigan son (Olti)

Tana a‘zosi nomi (Oyoq)

Meva nomi (Olma, olxo'ri)

Guruch qo'shiladigan taom nomi (Osh)

Tilla so'zini yana qanday aytish mumkin? (Oltin)


Uzoq vaqt qilinadigan o'y xayol (Orzu)

## "SO'ZDAN SO'Z YASA" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish.

Tarbiyachi bir nechta so'zni doskaga bosma harflarda yozib qo'yadi. Bolalar ana shu so'zdan yana yangi so'z hosil qilishlari kerak.

Olma – olam, ro'mol – mol, orzu – oz, zor – or, bodroq – qor, taroq – qora kabi.





# “N” TOVUSHI VA HARFI

## **Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** – tarbiyalanuvchilarga ”N“ tovushi va harfi haqida ma’lumot berish, ushbu harf talaffuzini o’rgatish;

**Tarbiyaviy:** – tarbiyalanuvchilarda o’zaro ahil bo’lish ko‘nikmasini shakllantirish, non ulug‘ ne’mat ekanligini uqtirish;

**Rivojlantiruvchi:** – savol-javob vositasida bolalar nutqini boyitish, ularning lug‘at boyligini oshirish, ”n“ tovushining so‘z boshida, o‘rtasi va oxirida kelishini tushuntirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, ”N“ harfi yozilgan kartochkalar.

## **Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, qadrlı bolajonlar, qani bugungi ta’limiy faoliyatga tayyormisizlar?

**Bolalar:** – Ha.

**Tarbiyachi:** – Unda mana bu topishmoqning javobini topinglar-chi.

Tog‘orada shishadi,

Tandirda u pishadi.

Xo‘sh, bu nima?

**1-bola:** – Bu – non.

**Tarbiyachi:** – Non qaysi tovush bilan boshlanyapti?

**2-bola:** – ”N“ tovushi bilan boshlanyapti.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, ha, ”non“ so‘zi ”n“ tovushi bilan boshlanyapti. Demak, bugun sizlar bilan ”n“ tovushi va harfi haqida suhbatlashamiz. ”N“ undosh tovush bo‘lib, tishlarimiz yopiq holatda, tilning uchi tilga tegib turganida hosil bo‘ladi. Bu tovushni talaffuz qilganimizda biroz shovqin eshıtıladi. Qani, hammamiz birgalikda ”n“ tovushini talaffuz qilib ko‘ramiz.

*(Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar birgalikda ”n“ tovushini talaffuz qiladilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, qani suratlarga qaranglar va undagi narsalar nomini birgalikda qaytaramiz. E’tibor bering, bu so‘zlarning hammasi ”n“ bilan boshlanadi.

Non, nay, nur, nok, novvot, narvon, nishon, niqob, no‘xat, nastarin.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi esa "n" tovushi soʻzning oʻrtasida ishtirok etgan soʻzlarga misollar keltiramiz. Marhamat, diqqatingizni yana monitorga qarating.

Banan, anor, karvon, ayvon, hayvon, tarnov, karnay.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, monitorda "n" harfining katta va kichik koʻrinishlarini koʻrib olamiz.

*(Monitorda "n" harfining katta va kichik shakllari koʻrsatiladi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi sizlarga non haqida kichik bir hikoya oʻqib beraman.

Tongda nonushta vaqti ekan. Xontaxtada barcha yeguliklar jam boʻlishibdi. Asal, sariyogʻ, murabbo, pishloq, kolbasa chiroyli idishchalarda koʻrk toʻkib turishardi. Toʻsatdan bu yeguliklar oʻrtasida bahs boshlanibdi.

– Men nonushtaning eng zarur mahsulotiman, – debdi sariyogʻ.

– Nimalar deysan, mensiz bolalar hecham kulmaydi, – debdi kolbasa.

– Meni esa yosh-u qari birdek yaxshi koʻradi, – debdi pishloq.

– Mening shirinligim, xushboʻy hidim hammaga yoqadi, – debdi murabbo.

– Asal koni foyda deb har kuni meni maqtashlari esingizdan chiqdimi? – debdi murabbo.

Barcha yeguliklar oʻzaro bahs boylab turgan vaqtida uy egasining ovozi eshitilibdi:

– Nimaga nonni ertaroq pishirmadinglar, axir, non dasturxonimiz toji-ku, usiz na asalni, na murabbo va na pishloqni yeb boʻladi. Bu mahsulotlarning hech biri boʻlmasdan faqat non boʻlganida ham qornimiz toʻygan boʻlardiyu. Bundan keyin birinchi nonni pishiringlar.

Boyadan beri men eng kerakli mahsulotman deb talashayotgan yeguliklarning ovozi tinibdi, ular soʻzsiz bir-biriga termulib qolishibdi.

Bolajonlar, nima uchun uy egasi nonni birinchi pishiringlar, deb aytdi?

*(Tarbiyalanuvchilarning javoblari eshutiladi.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, barchangizning javobingiz toʻgʻri.

Non aziz, non bilan hayotdir inson, non ushogʻin koʻzga surtgin bolajon, deb bejiz aytishmagan.

Qani, endi birgalikda jismoniy daqiqa oʻtkazib olamiz. Mana bu yerda sizlar-ga xamir tayyorlab qoʻyilgan, undan hammamiz birgalikda kulcha yasaymiz. Kichkinagina kulcha yasab, uning chetlarini chimchilab, shakl beramiz.

*(Bolalar tarbiyachi boshchiligida xamirdan kulcha yasaydilar va unga shakl beradilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, qani endi kim menga "n" harfi qatnashgan so'zlarga misollar aytadi?

*(Bolalar quyon, novvoy, nok, nur, no'xot, narvon kabi so'zlari aytadilar.)*

**Mustahkamlash uchun savollar:**

**Tarbiyachi:** – Bolalar, aytinglar-chi, "n" tovushi unli ekanmi yoki undosh? No'xot so'zida "n" tovushi so'z boshida kelyaptimi yoki o'rtasida?

S

H

W

F

C

K

O

G

P

E

V

F

T

R

C

W

# ”N“ HARFI DIDAKTIK O‘YINLARI

## ”TO‘G‘RI TA‘RIF BER“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarning nutqini boyitish, ularning so‘z boyligini oshirish.

Tarbiyachi bir nechta so‘z aytadi, bolalar shu so‘zlarning ta‘rifini aytishlari kerak. Misol uchun, non qanaqa – non yumshoq, mazali va h.k.

Nok – qora undan pishirilgan.

No‘xot – dumaloq shaklda, sariq rangda.

Novvot – shirin, choyga solib ichiladi.

Norin – xamirli taom.

Narvon – u yordamida tomga chiqiladi.

Naqsh – gilamga tushiriladi.

Navro‘z – bahor bayrami.

Namat – yerga solinadi.

Neft – yoqilg‘i turi

## ”SERGAK XARIDOR“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** o‘tilgan ”n“ harfi bo‘yicha bolalarning bilimlarini mustahkamlash.

Tarbiyachi – sotuvchi, bolalar esa xaridor rovida bo‘ladilar. O‘yin shartiga ko‘ra, xaridorlar ”n“ harfi ishtirok etgan narsalarnigina xarid qilishlari kerak. Tarbiyachi bolalarga savollar berib, ularni yo‘naltirib turishi mumkin.

(angishvona, no‘xot, nay, anor, qulupnay, nok, mashina o‘yinchoq, sichqoncha, un kabi narsalarni xarid qilish mumkin.)

## ”TEZ JAVOB BER“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarni topqirlikka o‘rgatish, ularning nutqini boyitish.

Tarbiyachi tomonidan berilgan savollarga bolalar tezlik bilan javob berishlari kerak.

Tuzli suvni nima deb ataymiz? (Namakob)

Xamirli taom (Norin)


Tong, saharni yana qanday nom bilan atash mumkin? (Nahor)

Ustaning asboblardan biri (Randa)

Kuy chalinadigan milliy cholg'u asbobi nomi. (Nay)

Ko'ylak ustidan kiyiladigan kiyim nomi (Nimcha)

Ertalabki ovqatlanish nima deb atash mumkin? (Nonushta)





# “A” TOVUSHI VA HARFI

## **Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** tarbiyalanuvchilarni unli harflar guruhiga kiruvchi ”a“ harfi va tovushi bilan tanishtirish, unli va undosh tovushlar bo‘yicha bilimlarini mustahkamlash, mazkur harf ishtirokida gap tuzishni, so‘zning qaysi o‘rinlarida shu harf kelayotganini topishga o‘rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarning nutqdagi harf va tovushlar haqidagi tushunchalarini rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda bir-birlarini o‘zaro hurmat qilish, tengdoshlarini tinglash ko‘nikmalarini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** multimedia vositasi, ”a“ harfli tasvirlangan kartochkalar, rasmi alifbo, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka.

## **Faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolalar, hozir ekranda turli hayvonlar ko‘rsatiladi. Ularning qanday ovoz chiqarishini ko‘rsatib beramiz.

*(Bolalar hayvonlarning qanday ovoz chiqarishiga taqlid qilishadi.)*

**Bolalar:** – Mo‘-o‘-o‘-o‘-o‘-o‘.

– Be-ye-ye-ye-ye-ye-ye-ye.

– Qu-qu-u-u-u-u-u-u.

– Vov-vov-vov-vov.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bu hayvonlar hozir o‘zlariga xos ovoz chiqardi. Bu ovozlarda turli tovushlar bor. Masalan, ”O“ tovushi, ”O“ tovushi, ”U“ tovushi.

Endi mana bu rasmga qarang. Unda nimani ko‘ryapsiz?

**Bolalar:** – Bolaning tomog‘ini doktor tekshiryapti.

**Tarbiyachi:** – Ayting-chi, tomog‘imizni doktor tekshirganda qanday ovoz chiqaramiz?

**Bolalar:** – A-a-a-a-a-a deb ovoz chiqaramiz.

**Tarbiyachi:** – Ana shunda qaysi tovushni chiqaramiz?

**Bolalar:** – ”A“ tovushini.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bu paytda ”a“ tovushini talaffuz qilamiz. Kelinglar, hammamiz baralla a-a-a-a-a deymiz.

*(Harakat bolalar tomonidan bajariladi.)*

**Tarbiyachi:** – Ayting-chi, ”a“ tovushini talaffuz qilganimizda tovush to‘siqqa uchradimi?

**Bolalar:** – Yo‘q.

**Tarbiyachi:** – Demak, ”a“ qanday tovush ekan?

**Bolalar:** – Unli tovush ekan.

**Tarbiyachi:** – Judayam to‘g‘ri, nutqimizda to‘siqqa uchramaydigan tovushlar unli harflar hisoblanadi. ”A“ tovushini talaffuz qilganda xohlagancha cho‘zib aytish mumkin. Cho‘zib aytiladigan tovushlar unli tovushlar bo‘ladi. Men ”A“ tovushini istagancha cho‘zishim mumkin, chunki ularni talaffuz qilayotganimda hech narsa to‘siq bo‘lmaydi. Mana kuzatinglar: ”a-a-a“.

Endi birgalikda ”a-a-a“ deb aytamiz. Nimani kuzatdinglar? Talaffuz vaqtida o‘pkadan chiqayotgan havo hech qanday to‘siqqa uchramadi.

*Unli tovushlarni o‘rganayotganimizda ularni qizil rangda belgilaymiz. (Tarbiyachi qizil kvadrat ichida tasvirlangan bosma ”A“ni ko‘rsatadi.)*

**Tarbiyachi:** – Endi ”a“ harfi bilan boshlanadigan so‘zlarni aytamiz. Men sizlarga kartochkalar ko‘rsataman, sizlar esa ularning nomini aytasiz.

**Bolalar:** – Anor, asal, ayiq, anjir, atir, atirgul, ari, ariq, arslon, arra.

*(Tarbiyachi bolalarga katta bosma ”A“ harfini doskada quyidagicha chizib ko‘rsatib beradi: ikkita tayoqchani yuqori uchlari birlashtirilib, ularning o‘rtasiga belbog‘cha qilib uchinchi tayoqcha chiziladi. Tarbiyachi ko‘rsatib bergan namunaga qarab bolalar sanoq cho‘plaridan katta ”A“ harfini yasaydilar.)*

Dam olish daqiqasi

Ayiq asal yaladi,

Asalari taladi.

Do‘p-do‘p etib maymoqvoy,

O‘rmon tomon qochadi.

*(Bolalar matnga mos harakatlarni tarbiyachi boshchiligida bajarishadi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlarim, biz katta ”A“ harfining kesma shaklda qanday yozilishini bilib oldik. Endi shu harfni qayerda ko‘rsak ham taniymiz, to‘g‘rimi?

Demak, harflar o‘qiladi, yoziladi va ularni ko‘rish mumkin.

*(Sanoq cho‘plardan yasalgan harf va kartochkalardagi harfni ko‘rsatadi.)*

Tovushlar eshitiladi va talaffuz qilinadi. Masalan, a-a-a-a-a-a kabi.

Harflar bosh va kichik shaklda bo‘ladi, masalan, mana bunday.

*(Katta va kichkina "A a" harflari tasvirlangan kartochka ko'rsatiladi.)*

**Tarbiyachi:** – Endi sizlarga rasmlar ko'rsataman, unda nimalar tasvirlanganini aytasiz, shu so'zni bo'g'inlarga bo'lasiz.

O-na, ol-ma, a-sal, a-nor, ar-ra.

*(Bo'g'inlarga bo'lish jarayonida bolalarga bo'g'inga ajratish chapak chalish yo'li bilan o'rgatiladi.)*

**Tarbiyachi:** – Har biringiz joyingizni egallang. Stolingizdagi kartochkalarda "a" va boshqa harf bilan boshlanadigan predmetlar rasmi berilgan. Sizlar qaysi predmet nomi "a" tovushi bilan boshlansa, uni aylanaga olgan holda belgilab chiqing.

*(Bolalar topshiriqni bajaradilar.)*

**Tarbiyachi:** – Hozir doskaga bir so'z yozaman, ushbu so'zda nechta "a" tovushi ishtirok etganini topishingiz kerak.

*(Tarbiyachi doskaga bosma harflarda "A-SAL" so'zini yozadi va undagi "a" harfi joylashgan o'rni bolalar bilan birga tahlil qilinadi, so'z bo'g'inlarga ajratiladi.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi birgalikda katta "A" harfining kesma shaklini havoda yozamiz.

*(Tarbiyachi har bir bolaning harakatlarini kuzatadi, topshiriqni xato bajarayotgan bolalar bilan individual ishlaydi.)*

**Tarbiyachi:** – Bilag'onlarim, bu harakatlarimizni sayrga chiqqanda rangli bo'r orqali asfaltga kesma "a" harfini yozish orqali davom ettiramiz.

Endi esa "a" harfi bilan boshlanadigan qisqa she'rlardan yodlab kelishni uyga topshiriq sifatida beraman.





# "A" HARFI DIDAKTIK O'YINLARI

## "HARFNI JOYIGA QO'Y" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** bolalarni topqirlikka o'rgatish, "a" harfi haqida o'tilganlarni mustahkamlash.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, so'zlardagi "a" harfi qayergadir qochib ketibdi. Qani, ularni o'z joyiga qo'yib, so'zlarning to'g'ri o'qilishiga yordam beraylik.

B...HOR, B...R...B...N, V...T...N, P...X...T, OLM..., V...R...R...K

## "JAVOBI "A" HARFIDAN" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** bolalarning so'z boyligini oshirish, ularning nutqini "a" harfi ishtirok etgan so'zlar bilan boyitish.

Sahnada rol ijro etadigan san'atkor nomi?

Zarg'aldoq rangli sitrus meva?

Martdan keyin keladigan oy nomi nima?

Uyimizda turadigan, shishadan yasalgan baliqlar "uyi"

Asalni yaxshi ko'radigan, qishda uyquga ketadigan hayvon nomi nima?

O'quvchining birinchi kitobi nomi?

Biz salom berganda nima deymiz?

"A" harfidan boshlanadigan, beshta harfdan iborat meva nomi?

Yangi yilda bolalar nima bezatadilar?

## "DO'KONDA" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** bolalarni "a" harfi haqidagi bilimlarini mustahkamlash, ularda diqqat va xotirani rivojlantirish.


Tarbiyachi bolalarga do'kondan "a" harfi ishtirok etgan narsa va buyumlar sotib olishlari kerakligini aytadi. Bolalar esa "a" harfi qatnashgan narsalar nomlarini aytib, uni savatchaga soladilar.

Ananas, apelsin, ayiqcha o'yinchog'i, mashina, varrak, karam kabi narsalarning nomlari aytilib, savatchaga solinadi.

## ”SO‘ZDAN SO‘Z YASAYMIZ“ O‘YINI

*O‘yinning maqsadi:* bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish, ularning xotira va diqqatini rivojlantirish.

Tarbiyachi bolalarga bitta so‘z aytadi, bola esa o‘sha so‘zdan yana bir so‘z yasashi kerak. Masalan, asal – asalari, fayz – fayzli, arava – aravakash, asl – asli – aslida, may – maymun.



# “ I ” TOVUSHI VA HARFI

Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta'limiy:** – tarbiyalanuvchilarda ”i“ harfi haqida tushuncha paydo qilish, talaffuzini o'rgatish, so'z boshida, o'rtasida va oxirida kelishini misollar bilan tushuntirish;

**Tarbiyaviy:** – bolalarni tartib-intizomga o'rgatish, o'zaro yordam ko'nikmasini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** – tarbiyalanuvchilarni topqirlikka o'rgatish, ularning so'z boyligini oshirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, ”i“ harfi kartochkalari, ”i“ tovushi ishtirok etgan so'zlar tasvirlangan suratlar, rangli qog'oz.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, bolajonlar, bugungi ta'limiy faoliyatimizni Xurshid Karimning bir she'ri bilan boshlamoqchiman.

Ilm izlab tolmayman,  
Ikki baho olmayman,  
Intilib yuksaklarga,  
Erishgum istaklarga.

Bolajonlar, siz ham hademay maktab ostonasini hatlab o'tib, o'quvchi bo'lasizlar. Bu she'r ham aynan o'quvchi nomidan aytiladi. E'tibor bergan bo'lsangiz, bu she'rda, uchta qator boshidagi so'z ham ”i“ tovushi bilan boshlanayapti. Demak, bugun biz siz bilan ”i“ harf tovushi haqida suhbatlashamiz. Hozir hamma-miz birgalikda ”i“ tovushini talaffuz qilamiz. ”I“ harfi unli bo'lib, aytayotganimizda hech qanday to'siqqa uchramaydi.

Demak, diqqatimizni monitorga qaratamiz. Unda ”i“ harfining bosma shakli ko'rsatilgan. Keyingi slaydda esa katta ”I“, keyingisida kichik ”i“ harfi tasvirlangan. Qani, endi slayddagi o'rmon suratiga qarang. Sinchiklab razm solsangiz, o'rmondagi narsalar orasida uchta ”i“ harfi tasvirlanganini topasiz.

*(Bolalar daraxtda, osmondagi bulut ustida va jirafa bo'ynida "i" harfi berkinib olganini aytadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar. Endi keyingi suratdan "i" harfining kichkina shaklini topinglar. Keyingi suratimizda meva va sabzavotlar tasvirlangan.

*(Bolalar jo'xorida, bodringda "i" harfining kichkinasi yashiringanini topadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi esa "i" tovushi ishtirok etgan so'zlarni suratlarga qarab talaffuz etamiz.

It, iz, in, ip, ildiz, ishchi, idish, ikki, isiriq, igna.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, qani endi mana bu tez aytishni qaytaring. Kim ko'proq va to'g'ri aytsa, ana o'sha bolani g'olib deb e'lon qilamiz.

Izg'irin Izzatni izillatdi.

*(Bolalar tez aytishni takrorlaydilar.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, hammangiz ham tez aytish borasida bir-biringizdan o'tib ketar ekansizlar. Qani, endi mana bu topishmoq javobini topinglar-chi.

Uchib yurgan qarg'aning inin buzib bo'larmi?

Bu nima? (Ari)

Tumshuqsiz chumchuq muz teshar.

Bu nima? (Tomchi)

Soyada yotar, ming qo'y boqar.

Bu nima? (It)

Tuya desam kattakon,

Usti keng bir makon.

Bu nima? (Fil)

Kelganda to'rt oyoq,

Ketganda ikki oyoq.

Bu nima? (Ayi)

Kechasi ovda, kunduzi uyda.

Bu nima? (Tulki)

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, sizlar hamma topishmoqlarga to‘g‘ri javob berdinglar. Endi esa sizlar bilan dam olish daqiqasi o‘tkazib olamiz. Tasavvur qiling, biz eng go‘zal qushlardan biri qaldirg‘ochmiz va osmonda parvoz qilamiz. Aylana shaklida turib olib, qo‘llarimizni tepaga ko‘tarib xayolan uchamiz.

Osmonlarda uchganim,  
Qaldirg‘ochim, qaldirg‘och.  
Doim baxtni quchganim,  
Qaldirg‘ochim, qaldirg‘och.  
Doim intiqmiz senga,  
Qaldirg‘ochim, qaldirg‘och.  
Uyimiz to‘ldir fayzga,  
Qaldirg‘ochim, qaldirg‘och.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi esa sizlar bilan oq qog‘ozdan qilingan bo‘laklar yordamida ”i“ harfining bosma shaklini yasab ko‘ramiz.

*(Bolalar ”i“ harfini qog‘oz bo‘laklaridan yasashadi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ”i“ harfini yasab oldik, endi esa qog‘oz bo‘laklarini joyiga qo‘yib qo‘yamiz. Ozoda bo‘lsak, bizni hamma joyda har doim yaxshi ko‘rishadi. Qani, kim aytadi, bizni yana nima uchun yaxshi ko‘radilar?

**1-bola:** – Rostgo‘y bo‘lganimiz uchun.

**2-bola:** – Oyimizga uy ishlarida yordam berganimiz uchun.

**3-bola:** – Ko‘p she‘rlarni bilganimiz uchun.

**4-bola:** – Salom berganimiz uchun.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, sizlar aytayotgan hamma javoblar to‘g‘ri. Endi esa sizlarga yana bir savol beraman. U dadamizda ham, bobo-buvimizda, oyimizda, aka-ukamiz, opa-singlimiz va o‘zimizda ham bor. Eng qizig‘i, u bizga tegishli bo‘lsa ham, undan boshqalar ko‘proq foydalanadi. Bu nima?

**Bolalar:** – Ism.

**Tarbiyachi:** – Juda to‘g‘ri, qani, bolajonlar, kim ”I“ harfi bor bo‘lgan ismlarni aytib bera oladi?

**5-bola:** – Ikrom, Izzat, Islom, Ilyos, Ilhom.

**6-bola:** – Iroda, Iqbol, Iltifot, Inobat, Inoyat.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, qani, endi aytinglar-chi, ismni aytayotganda biz qanday murojaat qilishimiz kerak? O‘rtog‘imiz ismini aytayotganda unga qo‘shimcha qo‘shish, ismni ataylab o‘zgartirish mumkinmi?

**Bolalar:** – Yo‘q.

**Tarbiyachi:** – Nima uchun?

**Bolalar:** – Chunki insonning ismini o‘zgartirib aytish uni xafa qiladi. Do‘stimizni xafa qilishni istamasak, uning ismini aynan o‘zini aytamiz.

**Tarbiyachi:** – Juda ham to‘g‘ri.

Qadim zamonda sergap bir bolakay bo‘lgan ekan. Uning ismi Tohir ekan. U hamma o‘rtoqlariga laqab to‘qir, ularning ismlarini qisqartirib aytarkan. Ibrohimni Ibo, Shohruxni Shoh, Izzatni Izza der ekan. Ismlarni noto‘g‘ri aytishini eshitgan bobosining jahli chiqibdi va unga shunday debdi:

– Sening to‘rt muchang soppa-sog‘, ism ham butunlikni, to‘laligicha aytishni istaydi. Bitta qo‘l yoki oyog‘ing bo‘lmasa, o‘zingni qanday his qilarding, bundan qattiq xafa bo‘larding. Shuning uchun ham ismlar bo‘g‘inlarini tushirib qoldirmay to‘liq aytgin.

Sergap Tohir ”xo‘p“ deb qo‘yibdi-yu, lekin baribir bilganidan qolmabdi. U haliyam o‘rtoqlarini turli laqablar bilan chaqirarkan, undan xafa bo‘lgan do‘stlari kundan-kunga kamayib ketibdi.

Bir kuni Tohir tush ko‘ribdi, tushida uning bitta oyog‘i va qo‘li undan qochib ketayotgan emish. Tushida ”To‘xtanglar, meni tashlab ketmanglar, men sizlarsiz nima qilaman“, deb rosa baqiribdi. Tohir baqirib chaqirib, terlab uyqudan uyg‘onib ketibdi. Va xuddi shu lahzadan boshlab ismlarni qisqartirib aytish ularni ham xuddi shunday xafa qilishini tushunib yetibdi. Shu-shu Tohir ismlarni to‘liq aytadigan bo‘libdi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?

”I“ tovushi ishtirok etgan so‘zlarga misollar keltiring.



# ”I“ HARFI DIDAKTIK O‘YINLARI

## ”TEZ JAVOB TOP“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalar dunyoqarashini o‘stirish, ularni topqirlikka o‘rgatish.

Tarbiyachi bolalarga turli mavzularda savollar beradi, ularning javoblarida ”i“ harfi ishtirok etadi.

Birdan keyin keladigan son? (Ikki)

Sudralib yuruvchi zaharli hayvon nomi. (Ilon)

Tikuvchining quroli ip va ... (Igna)

Ahil, totuv so‘zlarining sinonimi. (Inoq)

Detektiv kinolardagi qahramonlardan biri. (Izquvar)

## ”AJRATIB AYT“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarning ”i“ harfi haqidagi bilimlarini mustahkamlash, ularni ziyraklikka o‘rgatish.

Tarbiyachi bolalarga ifodali qilib she‘r o‘qib beradi. Bolalar she‘rni eshitib, unda ishtirok etgan ”i“ harfli so‘zlarni topib aytishlari kerak bo‘ladi. Misol uchun, Zulfiya Mo‘minovanning ”Kasallikni quvamiz“ nomli she‘rini o‘qib berish mumkin.

### KASALLIKNI QUVAMIZ

Kasallikni quvamiz

Erta turib tong sahar,

Tishimizni yuvamiz.

Tishlarning orasidan,

Mikroblarni quvamiz.

Xushbo'y nidi sovun-la  
Qo'limizni yuvamiz.  
Barmoqlar orasidan,  
Kasallikni quvamiz.  
Erinmaymiz boshdan to  
Tirnoqqacha yuvamiz.  
Sog'lom hayotimizdan,  
Kasallikni quvamiz.

### "KIM TOPQIR?" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** tarbiyalanuvchilarning nutqini boyitish, ularning "i" harfi haqida o'tilgan bilimlarini mustahkamlash.

Tarbiyachi javobida "i" harfi ishtirok etgan topishmoqlar aytadi.

Og'zi do'ppidek,  
Ichi qizil xumdon. (Tandir)

Hamma kishini ko'rganda labini o'padi. (Piyola)

Kichkina mitti,  
Echkini yiqitdi. (Pichoq)

Na ko'zi bor, na og'zi bor,  
So'ylashadi odam bilan. (Kitob)

Kuchukday ko'rinishi,  
Pichoqday o'tkir tishi,  
Vahshiy hayvondir o'zi.  
Yeydi qo'y va qo'zi. (Bo'ri)



# “M” TOVUSHI VA HARFI

## **Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** tarbiyalanuvchilarga ”m“ tovushi talaffuzini o’rgatish, ”m“ tovushini so’z boshida, o’rtasida va oxirida kelishini tushuntirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarga ”m“ tovushini o’rgatish asosida ”m“ harfiga mos so’zlarni topishga undash orqali ularga mehnatsevarlik haqida tushuncha berish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarni mantiqiy fikrlashga, ijodkorlikka o’rgatish, ularda mayda qo’l motorikasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, ”M“ harfi yozilgan kartochkalar.

## **Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening qiziquvchan bolajonlarim. Bugun biz sizlar bilan ”m“ tovushi va harfini o’rganamiz. ”M“ tovushi portlovchi sirg’aluvchi, jarangli undosh tovushdir. ”M“ tovushi talaffuzida o’pkadan chiqayotgan havo og’iz bo’shlig’ida to’siqqa uchrab, lablar yumiladi. Qani, hammamiz ”M“ tovushini birgalikda talaffuz qilib ko’ramiz.

*(Tarbiyachi va bolalar ”m“ tovushini birgalikda talaffuz qiladilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi esa ”m“ tovushini unli harflar bilan qo’shilgandagi holatda talaffuz qilib ko’ramiz: ma, mo, mu, mi, mo’.

Qani, e’tiboringizni monitorga qarating-chi, unda qaysi suratlarni ko’ryapsiz?

*(Bolalar malina, mashina, momaqaymoq, muzqaymoq, murch, mix, mushuk, mandarin suratlariga qarab ularning nomlarini aytadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, endi esa ”m“ harfining katta va kichik shakllarini slayd yordamida ko’ramiz. ”M“ harfi katta-kichik ko’rinishda ko’rsatilyapti, yaxshilab eslab qoling. Bolajonlar, siz qo’yning ma’rashini eshitganmiz-siz?

**Bolalar:** – Ha.

**Tarbiyachi:** – Qani, unda hammamiz qo’yning ma’rashini birgalikda qaytarib ko’raylik-chi.

*(Tarbiyachi va bolalar birgalikda ma-a-a-a, ma-a-a-a-a, ma-a-a-a, ma-a-a-a deb qaytaradilar.)*

**tarbiyachi:** – Bolajonlar, qani kim aytadi, qo‘ylar nima uchun ma‘raydi?

**1-bola:** – Qo‘ylar qorni ochganda yoki chanqaganda ma‘raydi.

**2-bola:** – Menimcha, ular biror joyi og‘riganda ma‘raydi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, javobingiz to‘g‘ri. Qani, kim menga aytadi, mehnatkash deb kimni ayta olamiz?

**3-bola:** – Ko‘p ish qiladigan, mehnatdan qochmaydigan odamlarni mehnatkash deymiz.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, eslanglar-chi, ”Zumrad va Qimmat“ ertagida qaysi qahramon mehnatkash edi?

**Bolalar:** – Bu ertakda Zumradxon mehnatkash qiz edi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolalar, sizlar juda ham to‘g‘ri javob berdingiz. Qani, kim mehnat haqida maqollar biladi?

**4-bola:** – Bemehnat hikmat yo‘q.

**5-bola:** – Daraxt yaprog‘i bilan ko‘rkam,  
Odam mehnati bilan.

**6-bola:** – Daryo suvini bahor toshirar,  
Odam qadrini mehnat oshirar.

**7-bola:** – Mehnatdan kelsa boylik,  
Turmush bo‘lar chiroylik.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar. ”M“ tovushi eshitaladi va talaffuz qilindi, harfi esa yoziladi va o‘qiladi. Endi hammangizga mato tarqatib chiqaman. E’tibor bering, unda uchtadan tugmacha va ilgak bor. Sizlar ana shu tugmachalarni ilgagiga taqishinglar kerak. Men uchgacha sanayman, uch deganimdan keyin qo‘lingizni ishdan to‘xtatasiz.

*(Tarbiyachi uchgacha sanaydi, bolalar esa ilgakka tugmachalarni taqadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Qoyil, bolajonlar, barmoq uchlarimizni qanchalik ko‘p ish-latsak, nutqimiz shunchalik yaxshi rivojlanadi. Bolajonlar, endi sizlar bilan ”teskarisini top“ o‘yinini o‘ynaymiz. Qani, kim aytadi, ”mehnatkash“ so‘ziga qarama-qarshi ma’noli so‘z nima bo‘lishi mumkin?

**8-bola:** – Dangasa.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi men so‘zlar aytaman, sizlar uning qarama-qarshi ma’noligini aytishingiz kerak.

Oq – qora

Kun – tun

Katta – kichik

Ma’noli – ma’nosiz

Yaxshi – yomon

Ma’qul – noma’qul

**Tarbiyachi:** – Qoyil, bolajonlar, sizlar kundan kunga topqir bo‘lib boryapsizlar. Endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz. Hammamiz doira shaklida turib olamiz. Koptokni bir-birimizga otamiz, koptokni ilgan bola, albatta, ”m“ tovushi ishtirok etgan so‘zga misol aytishi kerak. ”M“ so‘z boshida kelgan bo‘lishi shart emas, bu tovushni so‘z o‘rtasida va oxirida kelgani ham qabul qilinadi.

*(Tarbiyachi boshchiligida koptok otib ”m“ ishtirok etgan so‘zlarga misollar aytiladi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, men so‘zlar aytaman, sizlar esa ularni umumiy bitta so‘z bilan nomlaysizlar.

Manti, moshxo‘rda, mastava, bular – ... taomlar

Moychechak, chuchmoma, lola bular – ... gullar

Malina, mandarin, mango, bular – ... mevalar

Moviy, yashil, sariq, bular – ... ranglar

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, bugungi ta’limiy faoliyatimizda faol ishtirok etganingiz uchun rahmat.



# "M" HARFI DIDAKTIK O'YINLARI

## "GAPNI YAKUNLANG" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** boallar nutqini rivojlantirish, ularning so'z boyligini oshirish.

Tarbiyachi gaplarning bir qismini o'qiydi, bolalar esa gapning yakuniga yetkazishlari kerak. Bolajonlar albatta "m" harfi ishtirok etgan so'zlardan foydalanishlari eslatib o'tiladi.

Menga mevalardan malina, ... (mandarin) yoqadi.

Osmon chip-chiroyli ... (moviy) rangda edi.

Malika, ... (Muborak, Mehriniso, Muattar) qizlarning ismi.

Mohir, ... (Madamin, Mirfozil, Muhiddin) o'g'il bolalarning ismi.

... (malina) murabboshi judayam shirin chiqibdi.

## "KIM TEZ JAVOB BERADI?" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** bolalarda topqirlikni rivojlantirish, "m" harfi so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxirida kelishini eslatish.

Tarbiyachi bergan savollarga kim tez va to'g'ri javob bersa, o'sha g'olib sanaladi.

Fevraldan keyin keladigan oy nomi nima? (Mart)

"M" harfidan boshlanadigan mashina nomi (Malibu)

Kuchuk doim uni quvlab yuradi. U nima? (Mushuk)

Uzumning quritilgani, quruq meva nomi. (Mayiz)

Biroq, lekin so'zlarining qo'shnisi. (Ammo)

"M" harfi qatnashgan qizlar ismi. (Umida)

O'quv quroli nomi. (Qalam)


O'qituvchi so'zini yana qanday aytish mumkin? (Muallim)

## ”TUSHIB QOLGAN HARFLARNI O‘RNIGA QO‘Y“ O‘YINI

*O‘yinning maqsadi:* bolalarda topqirlikni rivojlantirish.

Tarbiyachi so‘zlarni harflari tushirib qoldirilgan holda bolalarga ko‘rsatadi. Bolalar esa tushib qolgan harflarni o‘rniga qo‘yib, so‘zni to‘g‘ri o‘qishlari kerak bo‘ladi.

...USHUK, ...IYA, ...OHIR, ...OMIQ, ...UHIM, ...OSH, ...OVIY, ...OY, ...UHIT.



# “ T ” “ TOVUSHI VA HARFI ”

## **Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** tarbiyalanuvchilarga ”t“ undosh tovushi talaffuzini o‘rgatish, ”t“ tovushi ishtirokidagi so‘zlardan misollar aytish yordamida ”t“ tovushini talaffuz qilishni mashq qildirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda o‘zaro yordam berish ko‘nikmasini, tartib-intizom qoidalariga amal qilishni shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish yordamida bolalar nutqini o‘stirish, ularning so‘z boyligini oshirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, ”T“ harfi yozilgan kartochkalar, ”t“ harfi ishtirok etgan so‘zlar suratlari.

## **Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening quvnoq, bilimdon bolalarim. Qani, bugungi ta’limiy faoliyatga hamma tayyormi, unda boshladik. Kelinglar, bugungi ta’limiy faoliyatimizni tez aytish bilan boshlaymiz.

Tolib tandir tagidan tanga topdi.

Qani, kim bu tez aytishni hammadan ko‘p ayta olarkan?

*(Tarbiyalanuvchilar tez aytishni takrorlaydilar, kim ko‘p marta va xatosiz aytgan bola tarbiyachi tomonidan rag‘ballantiriladi.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, siz tez aytishda ishtirok etgan so‘zlarni, tovushlarni juda yaxshi talaffuz qildingiz. Kim e’tibor berdi, tez aytishdagi so‘zlarning barchasi qaysi tovush bilan boshlanyapti?

**1-bola:** – ”T“ tovushi bilan boshlanyapti.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, judayam to‘g‘ri aytding. Demak, bugungi ta’limiy faoliyatimizda biz ”t“ tovushi va harfi bilan tanishamiz. Bolajonlar, ”t“ tovushini talaffuz qilganimizda lablar biroz ochib, harakatsiz, tinch holatda bo‘ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashadi, ammo birikmaydi. Hammamiz ”t“ tovushini birgalikda talaffuz qilib ko‘ramiz. T-t-t-t-t.

Endi esa ”t“ tovushiga unli harflardan qo‘shib talaffuz qilamiz: ta, to, tu, ti, te.

Barakalla, endi esa diqqatimizni monitorga qaratamiz va undagi narsalar nomini birgalikda qaytaramiz.

Tar-vuz, tut, to-la, tok-cha, to‘r, ta-roq, to-va, tu-xum, to-vuq.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, barakalla, endi monitorga qaraymiz, ”t“ tovushining katta va kichik ko‘rinishlarini yodda tutamiz.

Bolajonlar, endi esa mana bu topishmoqqa javob beringlar.

Shakar kabi oq mayda,

Ammo ta‘mi shirinmas.

O‘yla, hech vaqt, hech qayda

Usiz ovqat qilinmas.

Bu nima ekan?

**Bolalar:** – Bu – tuz.

**Tarbiyachi:** – Qoyil, bolajonlar, endi tuz, uning xususiyatlari haqida aytib beringlar-chi.

**3-bola:** – Tuz oq rangda bo‘ladi.

**4-bola:** – Tuz hamma ovqatga maza beradi.

**5-bola:** – Bobomning aytishlaricha, tuzni ko‘p yeyish mumkin emas ekan.

**6-bola:** – Tuz turgan idishning ustini ochiq qoldirib bo‘lmaydi.

**7-bola:** – Tuz mayda va yirik ko‘rinishlarda bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar. Endi sizlarga tuz haqida bir ertak aytib beraman.

Qadim zamonda bir qishloq bo‘lgan ekan. U yerda hamma ahil yasharkan, qo‘shnilar biror taom pishirsa, darrov yon qo‘shnisiga ilinar, kimga yordam kerak bo‘lsa, hamma darrov ko‘makka shay turarkan. Shu qishloqda yashaydigan Qobil ismli kishi bir kuni ertalab hovlisiga chiqib qarasa, hovlidagi hamma narsa yoyilib yotganmish. Uning yerto‘lasidagi un, shakar, yog‘ va boshqa mayda-chuydalar uy dahliziga olib kelib qo‘yilgan, lekin hech narsa olib ketilmagan ekan. Qobil uyimga kechasi o‘g‘ri kirib, narsalarni yerto‘ladan olibdi, lekin nimaga hech narsani olib ketmabdi, deb rosa o‘ylanibdi. U hamma narsalarni tekshirib ko‘ribdi, un, yog‘, guruchidan bir kaft ham kamaymabdi. Qobil buning sirini bilolmabdi va qishloq oqsoqoliga borib, bo‘lgan voqeani aytib beribdi. Qishloq oqsoqoli esa bosh chayqab kulib qo‘yibdi.

– O‘g‘ri, qopdagi mayda narsa nimaligini bilish uchun yeb ko‘rgan, tuzligini bilgach, sening uyingdagi narsalarni o‘g‘rilash u uchun haromligini bilgan. Bolam, bir kun non-tuz yegan joyingga qirq kun salom ber, deb bejiz aytishmagan. Hatto o‘g‘rilar ham tuz yegan uyini hurmatini qiladi, xursand bo‘laver, tuz sabab yerto‘langdagi narsalaringdan ayrilmabsan.

Qobil tuzning qadri shunchalar balandligini bilmas ekanman, deb hayron qolibdi.

Xo'sh, bolalar, bu hikoyadan kim nimani tushundi?

*(Bolalarning fikrlari tinglanadi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi sizlar bilan "oldin nima bo'lgan edi" o'yinini o'ynaymiz. Bu o'yin shartiga ko'ra, men aytgan narsaning avval nima bo'lganini topishinglar kerak bo'ladi. Masalan, jo'ja – tuxum, kapalak – qurt kabi.

*(Bolalar tarbiyachi tomonidan aytilgan so'zlarning avval nima bo'lganini aytadilar.)*

Non – un, uy – g'isht, stol – yog'och, daraxt – urug', ko'ylak – mato, paxta – chigit.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi esa sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazamiz. Men she'r o'qiyman va unga mos harakatlarni qilaman, sizlar esa mening harakatlarimni qaytarib turasizlar. Tolman qaddi bukilgan,

Terak kabi g'o'daymam,

Tavozeli bo'lsang gar,

Olam senga egilgay.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, biz "t" tovushi va harfi haqida suhbatlashyapmiz. Qani, endi "t" tovushi so'zlarning o'rtasida, so'zlarning oxirida kelgan so'zlarni topaylik-chi.

**4-bola:** – Ot.

**5-bola:** – Novvot.

**6-bola:** – Atir.

**7-bola:** – Atrof.

**8-bola:** – Tabiat.

**9-bola:** – Raketa.

**10-bola:** – Patir.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, endi sizlarga "t" harfining bosma shaklda qanday yozilishini tushuntirib beraman. Sizlar esa uning bosma shaklini yozilishiga qarab turasiz.

*(Bolalar tarbiyachining "t" harfini qanday yozayotganligini kuzatadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, shu bilan bugungi ta'limiy faoliyatimiz tugadi, e'tiboringiz uchun rahmat.







“ **HARFI**

## **DIDAKTIK O‘YINLARI**

### **”QO‘G‘IRCHOQ NIMA DEMOQCHI?”**

*O‘yinning maqsadi:* bolalarni topqirlikka o‘rgatish

O‘yin shartiga ko‘ra, qo‘g‘irchoq ayrim harflari tushirib qoldirilgan so‘zlar aytadi, bolalar esa tushirib qoldirilgan o‘ringa kerakli harfni qo‘yib, so‘zni to‘g‘ri o‘qishlari kerak.

...ARVUZ, ...AXT, DAF...AR, ...UT, ...ABIB, ...AKLIF, ...URSHAK, ...ELE-FON, ...O‘RT, ...AROQ, ...ABASSUM.

### **”ZANJIR“ O‘YINI**

*O‘yinning maqsadi:* bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin shartiga ko‘ra, bolalardan biri bitta so‘z aytadi, ikkinchisi esa o‘sha so‘z yakunida kelgan harf bilan boshlanadigan so‘z aytadi. Agar kimdir so‘z topa olmasa, navbat keyingi ishtirokchiga beriladi.

Stol – lampa – anor – rubob – baliq – qizil – lola – apelsin – nok – karam – murabbo – oq – qora – akula.

### **”DO‘KONDA“ O‘YINI**

*O‘yinning maqsadi:* tarbiyalanuvchilarning ”t“ haqida o‘tilgan bilimlarni mustahkamlash, ularning nutqini boyitish.

O‘yin shartiga ko‘ra, bolalar do‘konga kiradilar va u yerdan faqat ”t“ harfi qatnashgan so‘zli narsalarni xarid qilishlari kerak.

Misol uchun, tarvuz, stul, tasha, turshak, atlas mato, atir, tuxum, tut, termos, televizor, telefon, tuz, tipratikan, tog'ora, tanka o'yinchoq.

### "TEZ JAVOB AYT" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** bolalarning nutqini o'stirish, ularni hozirjavoblikka o'rgatish.


Tarbiyachi bergan savollarga bolalar tezlikda javob qaytarishlari kerak. Savolga javob topolmagan bola navbatni keyingisiga beradi.

Uchdan keyin qaysi raqam keladi? (To'rt)

Poliz ekini, dumaloq shaklda, u nima? (Tarvuz)

"T" harfi bilan boshlanadigan o'g'il bolalar ismi. (Tohir)

U, v, x, y, z, o', g', sh, ch, ng, tutuq belgisi.





### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarni "l" tovushi va harfi bilan tanishtirish, "l" tovushi qatnashgan soʻzlarni talaffuz qilishni oʻrgatish;

**Tarbiyaviy:** tarbiyalanuvchilarda bir-birlariga yordam berish koʻnikmasini rivojlantirish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarning mayda motorikasini rivojlantirish, ularning soʻz boyligini oshirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, "l" tovushi ishtirok etgan predmetlar suratlari.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening bilimdon bolajonlarim. Bugungi ta'limiy faoliyatimizda "l" tovushi va harfini oʻrganamiz. Ta'limiy faoliyatimizni tez aytishni aytish bilan boshlaymiz.

Asalari asalni ayiqdan ayamadi.

Qani, bolajonlar, kim bu tez aytishni koʻp marta va xatosiz ayta oladi?

*(Bolalar tez aytishni aytadilar, koʻp marta va xatosiz takrorlagan bola ragʻbatlantiriladi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi "l" tovushi haqida ma'lumot beraman. "l" talaffuz qilinganda lablar yengil kulgi holatida boʻladi, tishlar koʻrinib turadi, tilning orqa qismi biroz koʻtariladi, havo ogʻiz orqali oʻtadi, tovush bogʻlamlari bogʻlanadi, tebranadi va tovush hosil qiladi. "l" tovushi soʻzning boshida, oʻrtasida va oxirida keladi. Soʻzning boshida: laylak, lampa; soʻzning oʻrtasida: alla, malla; soʻzning oxirida: aql, oqil kabi uchraydi. Qani, hammamiz "l" tovushini birgalikda talaffuz qilib koʻramiz.

*(Bolalar tarbiyachi bilan birgalikda "l" tovushini birgalikda talaffuz qiladilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ”I“ undosh tovush, u cho‘zib talaffuz qilinmaydi. Kelinglar, ”I“ tovushini unli tovushlar bilan birgalikda aytamiz: la, lo, lu, li, le.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi diqqatingizni monitorga qarating, unda nomlarida ”I“ tovushi ishtirok etgan predmetlarni ko‘rishingiz mumkin. Ularni nom-nom sanab o‘tamiz.

Lola, lampa, akula, baliq, malina, shamol, kalit, buloq, quloq, yo‘lbars, tulki, laylak, ko‘ylak, shaftoli, lavlagi, do‘lana.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, men sizlarga hozir laylak va tulki haqidagi ertakni o‘qib beraman. Sizlar diqqat bilan eshitinglar.

Laylak bilan tulki do‘st bo‘lgan ekan. Qimmatchilik bo‘lib, ikkisi bola-chaqasi bilan och qolibdi. Bir kun laylak tulkiga:

– Tulkiboy, sen uyga qarab o‘tir. Men uchib borib, o‘zimizga va bolalarimizga ovqat topib kelay, – debdi.

Tulki rozi bo‘lib, uyda bolalarga qarab qolibdi. Laylak ovga ketibdi. Tulki uyda o‘zi va laylakning bolalariga qarab o‘tiribdi. Oradan besh kun o‘tibdi, olti kun o‘tibdi, laylakdan darak bo‘lmabdi. Tulkinging qorni nihoyatda ochib, holdan ketay debdi. Tulki u yoq-bu yoqqa qarab, hech kim yo‘qligidan foydalanib, laylakning bitta bolasini tappa bosib yeb qo‘yibdi. Bolani yeb bo‘lgandan keyin qarasa, laylak ikki toshbaqa, beshta qurbaqa, ikki ilonni olib, ovdan kelyapti. Tulki o‘zicha:

– Ey, attang, yana bir kun chidaganimda do‘stim ancha oziq olib kelar ekan, endi nima deb javob beraman, – deb yig‘lay boshlabdi.

Laylak uyga kelsa, tulki do‘sti yig‘lab o‘tirgan emish. Laylak:

– Ey, tulki do‘stim, nega yig‘laysan? – deb so‘rabdi. Tulki yig‘i aralash:

– Hay, hay, laylak do‘stim, bo‘yni uzunjonning biri kasal bo‘lib o‘lib qoldi, shunga yig‘layapman, – deb suyaklarini ko‘rsatibdi.

Laylak xafa bo‘libdi, yig‘labdi va bolasini tulkidan yashirib, boshqa yoqqa uchib ketibdi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ertak sizlarda qanday taassurot qoldirdi?

Laylak nima uchun xafa bo‘ldi? Tulki to‘g‘ri ish qildimi?

*(Tarbiyalanuvchilarning fikrlari tinglanadi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, sizlar juda to‘g‘ri fikrlarni aytdinglar. Bu ertakdagi so‘zlarda ”I“ tovushi ko‘p uchragani uchun sizlarga uni aytib berdim.

”L“ tovushi eshitiladi va talaffuz qilinadi, ”l“ harfi esa yoziladi, uni ko‘rishimiz va o‘qishimiz mumkin. Hozir men sizlarga ”l“ harfini bosma shakldagi katta va kichik ko‘rinishlarini yozib ko‘rsataman. Diqqat bilan kuzating.

(Tarbiyachi doskaga ”l“ harfining bosma shaklini yozib ko‘rsatadi.)

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hammangizning stolingizda ip turibdi, ana shu ip bo‘laklaridan ”l“ harfining bosma shaklini doskaga qarab yasab ko‘ringlar.

(*Bolalar tarbiyachi hamrohligida ”l“ harfini yasashadi.*)

**Tarbiyachi:** – Barakall, bolajonlar, sizlar ”l“ harfini yasashni uddaladinglar. Endi esa sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz. Hammamiz o‘rnimizdan turamiz, aylana shaklida joylashib olamiz va bir-birimizga qarab koptokni otamiz, koptok otish jarayonida ”l“ tovushi ishtirok etgan so‘zlarni aytamiz.

(*Tarbiyachi boshchiligida bolalar koptokni bir-birlariga otadilar va ”l“ tovushi bo‘lgan so‘zlarga misollar aytadilar.*)

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi esa hammamiz o‘z joyimizni egallab olamiz. Men so‘zlar aytaman, sizlar ularga umumiy nom topasizlar.

Qulupnay, malina, shaftoli, bular... – meva.

Akula, baliq, delfin, bular... – dengiz hayvonlari.

Qizil, sariq, yashil, ko‘k, bular... – ranglar.

Lola, nastarin, karnaygul, bular ... – gullar.

Lada, kobalt, damas, bular ... – mashinalar.

Qalam, ruchka, daftar, bular ... – o‘quv qurollari.

Piyola, likopcha, qoshiq, bular... – idish tovoqlar.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, sizlarning topqirligingizni sinash maqsadida tezkor savol-javob o‘tkazamiz.

Men biror narsani ta’riflayman, sizlar uning nominii topasizlar. Diqqat qilinglar, javobinglarda, albatta, ”l“ tovushi ishtirok etishi kerak.

U judayam shirinso‘z, yaxshi muomalada bo‘ladi, demak, u ... (xushmuomala).

Aka-ukalar bir-birlari bilan juda yaxshi munosabatda, ular ... (ahil).

Lola qip-qizil rangda, bahor elchisi chiroyli ... (gul).

Onaning bolaga aytadigan birinchi qo‘shig‘i, bu ... (alla).

Bir-biringizga doim nima tilashingiz kerak? ... (yaxshilik).

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugungi ta’limiy faoliyatimiz sizga yoqdimi?

”L“ tovushi ishtirok etgan so‘zlarga misollar ayting.

# "L" HARFI DIDAKTIK O'YINLARI

## "TEZ JAVOB AYT" O'YINI

*O'yinning maqsadi:* bolalarni topqirlikka o'rgatish.

Tarbiyachi bolalarga topishmoqlar aytadi, topishmoqlarning javobida albatta "l" harfi ishtirok etganligini eslatib qo'yadi.

Oyog'i yo'q qochadi,  
Qanoti yo'q, uchadi. (Bulut)

Qozonda emas qaynaydi,  
Qishin yozin tinmaydi. (Buloq)

Yo'l-yo'l to'ni bor,  
Odam qo'r qar turqi bor. (Yo'lbars)

Qanoti bor,  
Qoni yo'q.  
Tuxum qo'yar,  
Soni yo'q. (Kapalak)

Kichkinadir o'zi,  
Yiltir-yiltir ko'zi. (Yulduz)

Beli beli belang ot,  
Beli nozik kulrang ot.  
Toqqa minsa toymas ot,  
O'lat tgsa o'lmas ot. (Chumoli)

## ”TOPGAN TOPALOQ“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish.

Tarbiyachi doskaga bir nechta harf qo‘yadi, bolalar shu harflar yordamida so‘z topishlari kerak bo‘ladi.

K A L Y S M O‘ I


Misol uchun laylak, sumalak, yo‘lak, kal, mo‘l, so‘l, kalima, aka, is kabi so‘zlarni aytishlari mumkin.

## ”QALAMGA YORDAM BER“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish.

Tarbiyachi oq qog‘ozga so‘zlar yozadi, bolalar shu so‘zlarga mos fikrlar aytadilar. Masalan, laylak – qush, lavanda – gul kabi.

Loviya – don, lola – gul, Laziz – ism, a‘lo – yaxshi, chumoli – hashorat, yo‘lbars – hayvon, shavla – taom, atlas – mato, quloq – tana a‘zosi.



# “ B ” TOVUSHI VA HARFI

## **Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** tarbiyalanuvchilarni undosh harflar guruhiga kiruvchi ”b“ harfi va tovushi bilan tanishtirish, shu paytgacha o’rganilgan unli va undosh tovushlar bo’yicha bilimlarini mustahkamlash, bo’g’inlarni qo’shib o’qishni o’rgatish, ”b“ tovushi ishtirok etgan so’zlardan gap tuzish, ”b“ tovushi so’zning qaysi o’rinlarida kelayotganini topishga o’rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarning so’z, gap, matn haqidagi tushunchalarini rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** jamoada ishlash, tengdoshlariga yordam berish ko’nikmalarini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** multimedia vositasi, ”b“ harfi tasvirlangan kartochkalar, rasmi alifbo, kesma harflar, ish daftari.

## **Faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugungi savod o’rgatish mashg’ulotimizda yana bir yangi harfni o’rganamiz. Hozir men sizlarga kartochkalar ko’rsataman, ushbu so’zlarning bosh harfini topish orqali bugun o’rganadigan harfimizni aniqlaysiz.

Bo-bo, ba-liq, bal-lon, ba-nan, ba-qa, barg, bay-roq, bi-no, bi-naf-sha.

*(Mazkur rasmlar nomini va bosh harfini aytgach, tarbiyalanuvchilar bu ”b“ harfi ekanligini topishadi.)*

**Tarbiyachi:** – Ayting-chi, ”b“ harfini cho’zib talaffuz qila olamizmi?

**Bolalar:** – B-b-b. Yo’q, bu harfni cho’zib talaffuz qila olmaymiz.

**Tarbiyachi:** – Demak, bu undosh tovush, u kartochkada qanday rangda belgilangan ekan?

**Bolalar:** – Ko’k rangda.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, undosh harflarni biz ko’k rangda belgilab ajratamiz.

Endi mana bu stolda aralash kartochkalar qo’yilgan, sizlar undan ”b“ harfi ishtirok etgan predmetlarni ajratib olishingiz kerak. Bu o’yinning nomi ”Tegishlisini top“ deb ataladi. Buning uchun 3 daqiqa vaqt ajratamiz.



*(Bolalar "b" harf ishtirok etgan so'zlar rasmlari tasvirlangan quyidagi kartochkalarini ajratib olishadi: bedana, behi, beda, bino, bloknot, bodom, bodring, bola, bolta, burgut, bulut.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi birgalikda mana bu magnitli shakllar yordamida "b" harfining shaklini hosil qilamiz. Asos qilib to'g'ri chiziq tortamiz va yarim aylana hamda kichkina chiziqni yoniga joylashtiramiz.

*(Harakatlar amalda ko'rsatib beriladi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar "b" harfining bosma shaklda yozilishini ekranda diqqat bilan kuzating va o'zingizning ishchi daftaringizda ko'rsatilganidek nuqtalarni birlashtirish orqali shu harfni hosil qiling.

Dam olish daqiqasi

Bahavodir bog'chamiz,

Bunda shodon bolalar.

Bilim sirin ochamiz,

Bilimdon, shod bolalar.

*(Matnga mos harakatlar bajariladi.)*

**Tarbiyachi:** – Hozir sizlarga matn o'qib beraman. Uni yaxshilab tinglang.

Bir kuni bog'cha bolalari tarbiyachisi bilan birgalikda hayvonot bog'iga borishdi. U yerda katta akvarium bor edi. Akvariumdagi baliqlar esa judayam ko'p va turli-tuman edi. Boburni baliqlardan ham ko'ra akvariumdagi baqa hayratga soldi. Chunki u baqani baliqlar bilan birga ko'raman deb o'ylamagan edi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ayting-chi, bu voqea qayerda sodir bo'libdi?

**Bolalar:** – Hayvonot bog'ida.

**Tarbiyachi:** – Bolalar bog'da nimalarni ko'rishibdi?

**Bolalar:** – Akvariumdagi baliqlarni.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, akvariumda baliqlar bilan birga nima bor ekan?

**Bolalar:** – Baqa.

**Tarbiyachi:** – Baqa kimni hayratga solibdi?

**Bolalar:** – Baqa Boburni hayratga solibdi.

**Tarbiyachi:** – Judayam to'g'ri, endi mana shu matnda ishtirok etgan "b" harfidan boshlanadigan so'zlarni birgalikda topamiz.

Bir, bog'cha, bolalar, bilan, birgalikda, bog', borishdi, bor, baliqlar, Bobur, baqa.

*(Tarbiyachi ushbu so'zlarni kesma harflar bilan doskaga yozadi.)*

**Tarbiyachi:** – E'tibor bering, men bir so'zni katta, ya'ni bosh harf bilan yozdim, bu "Bobur" so'zi. Demak, insonlar ismlari, hayvonlar nomlari, joy va ko'cha nomlari gapning qaysi o'rnida kelsa ham, katta harf bilan yoziladi. Buni eslab qoling.

Kelinglar, bugun o'rganganlarimizni mustahkamlash uchun bir o'yin o'tkazamiz. Men bir bo'g'inli kartochkalarni aralashtirgan holda stolga qo'yaman, sizlar esa mana shu bo'g'inlar ishtirokida so'zlar hosil qilasiz.

Bo-la, bo-bo, ba-nan, bi-no

*(Bolalar alohida bo'g'inlardan mazkur so'zlarni hosil qiladilar va ularni qo'shib o'qish mashqi o'tkaziladi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi qo'llarimizni dam oldirish uchun barmoqlar mashqini o'tkazib olamiz.

*(Qo'llar harakatlantiriladi.)*

**Tarbiyachi:** – Endi esa sizlarga "b" harflari ko'plab ishtirok etgan she'rlarni o'qib beraman.

Baliqcha

Nasiba Erxonova

Baliqcham bilq-bilq etar,

Suv yuzini chalpitar.

Tangalari tovlanib,

Bir zumda suzib ketar.

Tutqich bermas, ushlatmas,

Yuvosh hamda beozor.

Suvni qilmaylik iflos,

Baliq chekmasin ozor.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, "b" harfi haqida o'rganganlarimizni uyimizda ham kattalarga aytib beramiz, ularga harf tanishingiz, so'zlarni bo'g'inlab o'qiy olishingizni ko'rsatib bersangiz, xursand bo'lishadi.

# ”B“ HARFI DIDAKTIK O‘YINLARI

## ”SO‘ZNING OXIRINI TOP“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish.

Tarbiyachi va bolalar aylana shaklida turib oladilar. Tarbiyachi bolaga to‘p otish jarayonida bitta so‘zning yarmini aytadi, koptokni ilib olgan bola esa o‘sha so‘zning oxirini aytishi kerak. Masalan, ba-(hor), bo‘-(ron), yo‘l-(bars), bug‘-(doy), bu-(g‘u), bu-(run), bosh-(liq), bod-(ring), Ba-(hodir), bo-(la), bo‘y-(chan).

## ”AVTOBUS“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarda tasavvur qila olish qobiliyatini rivojlantirish.

Tarbiyachi va bolalar stullarga o‘tirib oladilar. Tarbiyachi har bir bolaga bir nechtdan suratlar tarqatib chiqadi. Bola ”b“ harfi ishtirok etgan so‘zlardan top-sa avtobus yurishi, bo‘lmasa avtobus joyidan jilmasligini aytadi. Bolalar qo‘li-dagi suratlarqa qarab, banan, bodring, baqlajon, bodroq, bino, baqaterak, barg, balchiq, bayroq, beshiktebratar, balet, beshik, bilak, qurbaqa, toshbaqa kabi so‘zlarni aytadilar.

## ”TEZ JAVOB TOP“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarning dunyoqarashini o‘stirish, ularning diqqat va xotirasini rivojlantirish.

Tarbiyachi bolalarga javobi ”b“ harfi bilan boshlanadigan savollar beradi.

To‘rtidan keyin keladigan son nomi? (Besh)


Qishdan keyin keladigan fasl nomi? (Bahor)

”B“ harfi bilan boshlanadigan tana a’zosi (Bosh)  
O‘zbekistondagi tarixiy shahar nomi (Buxoro)  
Dadamizning dadasini kim deb ataymiz? (Bobo)  
Mushukni erkalab nima deb chaqirish mumkin? (Baroqvoy)  
Sitrus meva nomi? (Banan)  
U suvda suzadi, quruqlikda yashay olmaydi, uning nomi (Baliq)

## ”UNLIMI YOKI UNDOSH?“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** tarbiyalanuvchilarning unli va undosh harflar haqida o‘tilgan bilimlarini mustahkamlash.

Tarbiyachi bolalarga qizil va ko‘k rangli kartochkalar tarqatadi. Tarbiyachi unli harfni ko‘rsatganida bolalar qizil kartochkani, undosh harfni ko‘rsatganida ko‘k rangli kartochkani yuqoriga ko‘tarishlari kerak bo‘ladi.



# “K” TOVUSHI VA HARFI

## **Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** tarbiyalanuvchilarni “k” tovushi va harfi bilan tanishtirish. Ushbu harf va tovush soʻzning turli oʻrinlarida kelishini tushuntirish. K tovushi ishtirok etgan soʻzlarni topib, boʻgʻinlarga ajratish;

**Rivojlantiruvchi:** “K” tovushi va harfi ishtirok etgan maqol, tez aytishlarni aytish, ish daftari bilan ishlash orqali mayda motorikani rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** topshiriqlarni jamoaviy bajarishga oʻrgatish, oʻzaro bir-biriga yordam berish koʻnikmasini egallashiga yordam berish.

## **Kerakli jihozlar –**

## **Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hammamiz oʻtirib olamiz va koʻzimizni yumgan holda oʻyin oʻynaymiz. Sizlar xotirjam koʻzingizni yumasiz, men esa bir jonivorning belgilarini aytaman. Sizlar uning nima ekanligini topasiz. Marhamat, tinglang.

Bu jonivor juda nozik, uning ikkita qanoti bor. U beozor. Uning ranglari kamalak singari rang-barang. U koʻproq gullarni yaxshi koʻradi. Bu jonivor bogʻlarimizga koʻrk boʻladi. Afsuski, bu goʻzal hasharotning umri qisqa, u juda kam muddat yashaydi. Shunday boʻlsa-da, qisqa umri davomida insonlarga zavq-shavq bagʻishlaydi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi koʻzimizni ochamiz. Ayting-chi, siz bu taʼrifni eshitib qaysi hasharotni koʻz oldingizga keltirdingiz?

**Bolalar:** – Bu – kapalak.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, haqiqatan ham, bu kapalak edi. Bolajonlar, kapalak soʻzi qaysi harfdan boshlanadi?

**Bolalar:** – “K” harfidan.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bugun “k” harfi va tovushini oʻrganamiz. Birgalikda “k” tovushini talaffuz qilamiz.

**Bolalar:** – K-k.

**Tarbiyachi:** – “K” tovushini choʻzib aytak boʻladimi?

**Bolalar:** – Yoʻq.

**Tarbiyachi:** – Demak, ”k“ undosh tovush ekan. ”K“ tovushi og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchraydi.

Mening zukko bolajonlarim, endi qiziqarli bir o‘yin o‘ynaymiz.

### **”Kuk-ku“ oyini**

*(Bolalar doira hosil qilib o‘tiradilar. Tarbiyachi o‘rmon tasvirlangan rasmni ko‘rsatadi.)*

**Tarbiyachi:** – Daraxt shoxlariga kakku qushlari qo‘nibdi. Ular juda chiroyli sayramoqa. O‘rmondan ”kuk-ku, kuk-ku, kuk-ku“ degan ovoz kelmoqda. Bolalar, kelinglar, biz ham kakku qushi bo‘lib uchamiz va bir-birimizni chaqiramiz.

*(Bolalar qo‘llarini qush qanoti kabi harakatlantiradilar va ”kuk-ku, kuk-ku, kuk-ku“ deb ovoz chiqaradilar. Bolalar guruh bo‘lib va alohida tovushlarni talaffuz etadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Kelinglar, endi monitorga qarab, kesma ”k“ harfining yozilishini diqqat bilan kuzatamiz va o‘zimiz shunga mos ravishda sanoq cho‘plar yordamida yozamiz.

*(Tarbiyalanuvchilar kesma harfning yozilishini o‘rganishadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi ”Tovush qayerda?“ oyinini o‘ynaymiz.

*(Rangli karton qog‘oz (karton qog‘oz eniga chizilgan chiziqlar bilan 3 ga bo‘linadi, faqat kesilmaydi) va fishka (bayroqcha yoki doiracha kerak bo‘ladi).*

*(Tarbiyachi so‘zni talaffuz qiladi. Bolalar berilgan tovushning so‘zdagi o‘rnini aniqlaydilar. Tovush so‘zning boshida, o‘rtasida yoki oxirida kelganiga qarab, fishka chiziqning birinchi, ikkinchi yoki uchinchi qismiga qo‘yiladi. Bunday o‘yin, logoped stolida katta format qog‘ozi bilan yoki har bir bolaga alohida karton qog‘oz tarqatib chiqqan holda ham olib borilishi mumkin. Bolalar avval tovushning so‘zni boshida kelgan holatini, keyin esa so‘zning oxirida kelgan holatini aniqlaydilar. Buni yaxshi o‘zlashtirib olganlaridan keyingina, so‘zning o‘rtasida kelishi mumkin bo‘lgan holatlar ko‘rib chiqiladi.)*

Kema, karam, kabutar, uzuk, kaklik, kalit, kamalak, kapgir, kartoshka, katak, kefir, kiprik, kit, kitob, kiyim, konfet, kompas, kosa, koptok, kulcha, ko‘zgu.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, ”k“ harfi va tovushi so‘zlarning qaysi o‘rnida kelganligini to‘g‘ri topdingiz.

Endi ishchi daftaringizni olasiz va undagi kesma ”K“ harfini hosil qiluvchi nuqtalarni birlashtirib chiqasiz. Topshiriqdan so‘ng karam va kamalak rasmlari ham nuqta-nuqta shaklida berilgan. Ularni avval birlashtirib, so‘ng rangli qalamlar bilan uyda bo‘yab kelasiz.

Keling, endi harakatli o‘yin o‘ynab, barmoqlarimizni dam oldiramiz.

### **”Barmoqlar sayri“ dam olish daqiqasi**

**Tarbiyachi:** – Dastlab bir qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘ini ikkinchi qo‘lning bosh barmog‘i bilan bog‘lagan holat bolalarga ko‘rsatiladi va aksincha bajariladi. Kerakli barmoqlar bog‘langanidan so‘ng, ”sayr“ boshlanadi. Bir qo‘lning bosh barmog‘i bilan o‘rta barmoq ushlanadi. Ikkinchi barmoq bilan ham xuddi shunday qilinadi.

Davom eting:

- bosh barmoq – nomsiz barmoq;
- bosh barmoq – nomsiz barmoq;
- bosh barmoq – jimjiloq;
- bosh barmoq – jimjiloq.

Barmoqlar ”sayrga“ chiqqandan so‘ng quyidagi she‘r o‘qiladi:

Hol so‘raydi bosh barmoq,

Katta-kichik, hammadan.

Do‘stlar o‘zaro o‘rtoq,

Qochmas yozish, mehnatdan.

**Tarbiyachi:** – Navbatdagi topshiriqda o‘rganganimiz unli va undosh harflar ishtirokida bo‘g‘inlar berilgan. Ular orasidan ”k“ harfi va tovushi ishtirok etgan bo‘g‘inlarni topishingiz kerak.

Ka, ko, ku, ki

Uk, ak, ok, ik.

*(Bolalar savatchadagi aralash bo‘g‘inlar ichidan topishadi.)*

P

F

V

T

R

C

W

# ”K“ HARFI DIDAKTIK O‘YINLARI

## ”HARFLARNI O‘RNIGA QO‘Y“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish, ularda diqqat va xotirani o‘stirish.

Tarbiyachi bolalarga harflar almashib qolganini, bolalar esa shu harflarni o‘ylab qo‘rib joy-joyiga qo‘yishlari va bitta so‘z hosil bo‘lishini aytishlari kerak.

M R A K A (Karam)

Z O‘ K A (Ko‘za)

O‘ Z K (Ko‘z)

K O T P O K (Koptok)

O N V E R T K (Konvert)

O S M O S K (Kosmos)

U L G I K (Kulgi)

## ”SO‘ZNI OXIRIGA YETKAZ“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarda ijodkorlik va tasavvurni rivojlantirish.

Tarbiyachi so‘zlarni yarmini aytadi, bolalar uning davomini aytishlari kerak.

Misol uchun kon-(ki), uk-(ki), ki-(tob), ik-(ki), ka-(lit), kun-(jut), ka-(lish), kun-(duzi), kun-(jara), ke-(pak), kul-(don), kur-(ka), ki-(yim), kul-(cha), kur-(tak), kul-(cha)

## ”TA‘RIFGA QARAB JAVOB TOP“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarda topqirlikni rivojlantirish.

Tarbiyachi biror narsaga berilgan ta‘rifni o‘qiydi, bolalar ta‘rifga qarab so‘z nomini aytishlari kerak bo‘ladi. Har bir savolning javobida ”k“ harfi qatnashgan bo‘ladi.



U barcha eshiklarning qulfini ochadi. (Kalit)


Tana a'zosi, uning yordamida butun dunyo go'zalligidan bahramand bo'lamiz. (Ko'z)

U uylarning shiftiga in qo'yadi, chang joylarda bo'ladi. (O'rgimchak)

Tor so'ziga qarama-qarshi ma'noli so'z. (Keng)

Qavat qavat to'nli sabzavot nomi. (Karam)

Rang nomi (ko'k, kulrang)



# “ R ” TOVUSHI VA HARFI

## **Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** ”r“ harfi va tovushi bilan tanishish jarayonida bolalarda alifbo va undagi harflar haqida tasavvur uyg‘otish, shu harf va tovush ishtirokida bo‘g‘inlar tuzishga o‘rgatish, so‘zdagi bo‘g‘inlar sonini aniqlash, so‘zdagi tovush turlarini (unli va undosh) ajratish va to‘g‘ri talaffuz qilishni ko‘rsatish;

**Rivojlantiruvchi:** ”r“ harfi va tovushining so‘zdagi o‘rnini aniqlashga, uning undosh harf ekanligini bilishga, so‘z, gaplarni chizma, jadvallardan foydalanib tuzishga, o‘qishga o‘rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoaviy o‘yinda faol ishtirok etish, fikrlarini erkin bayon etish, topshiriqlarni jamoa bilan hamjihatlikda bajarish malakalarini mustahkamlash, she’r va topishmoqlarni o‘rganishga qiziqishini orttirish.

## **Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlarim, har biringiz o‘ylamasdan tezda do‘stingiz kimligini ayting-chi.

*(Bolalar do‘stlarining ismlarini aytadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Ha, juda yaxshi, hammangizning do‘stingiz bor ekan. Bola-jonlar, do‘stlikning qadriga yetish, zarur bo‘lganda do‘stga yordam berish kerak. Do‘stga yolg‘on gapirish mumkin emas, agar u xato ish qilayotganini ko‘rsangiz, buni o‘ziga sekinlik bilan tushuntirish kerak.

Ta’limiy faoliyatimizni boshlashdan oldin do‘stlik haqida o‘rganganlarimizni mustahkamladik. Hozir do‘stlik haqidagi she’ni ham yodga olamiz.

DO‘STLIK

Nasiba Erxonova

Do‘stlarim ko‘p, quvnoqmiz,

Yaxshilikka chanqoqmiz.

Bo‘ylarimiz tenglashgan,

Dugona-yu o‘rtoqmiz.

Urishmaymiz to‘satdan,  
Yomon illat – yot bo‘lsin.  
Xunuk so‘zlar bisotdan,  
O‘chsin, adolat bo‘lsin.

Shirin so‘zdir do‘stlikning  
Ham dorisi, darmoni.  
Yordam berish do‘stlikning  
Ham qarori, farmoni.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi diqqat bilan tinglang, qanday ovozni eshityapsiz?

*(Multimedia vositasida dalada traktorning yer haydayotgani namoyish etiladi.)*

**Tarbiyachi:** – Tasvirda qanday holat tasvirlangan va qanday ovozni eshitdiniz?

**Bolalar:** – Tr-r-r-r-r-r-r-r-r-r.

**Tarbiyachi:** – Bu nimaning ovozi ekan?

**Bolalar:** – Bu traktorning ovozi.

**Tarbiyachi:** – Juda to‘g‘ri, dehqon dalada traktor bilan yer haydayapti.

Bugun bilganingizdek, ”r“ hafi va tovushini o‘rganamiz. Avval bu tovushning unli yoki undosh ekanligini aniqlab olamiz. Buning uchun talaffuz qilamiz.

**Bolalar:** – R-r-r-r-r-r-r-r.

**Tarbiyachi:** – Harfni talaffuzda cho‘zib ayta olayapmizmi?

**Bolalar:** – Yo‘q.

**Tarbiyachi:** – Demak, ”r“ undosh harf ekan. Mana bu ”harflar uychasi”dan hozir sizlarga ”r“ harfini olib ko‘rsataman va uning kesma shaklini yozishni o‘rganamiz.

*(Tarbiyachi harfning kesma shakli qanday hosil qilinishini doskada yozib ko‘rsatadi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir 1, 2, 3 deb sanagan holda 3 guruhga bo‘linib olamiz.

*(Bolalar uch guruhga bo‘linishadi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir ”Qarg‘alar“ o‘yinini o‘ynaymiz.

*(Bolalar 3 guruhga bo‘linadilar. Birinchi guruh bolalari archalarni tasvirlab, qo‘llarini pastga tushirgan holda doira o‘rtasida turadilar. 2-guruh bolalari*

*qarg'alar bo'lib, doira ichiga sakrab kiradilar va "qar-qar" deb qag'illaydilar. 3-guruh bolalari kuchukni tasvirlaydilar.)*

Logoped: "Qarg'alarni ko'rib itlar yugurishdi" deganda, qarg'alarni tasvirlagan bolalar qo'llarini qanot qilib uchishni tasvirlab, "qar-qar" deb qag'illashadi. 3-guruh kuchukni tasvirlagan bolalar "r-r-r" deb itlarning ovozigga taqlid qilib irillashadi va qarg'alarni ushlab uchun doira ichiga kirishga harakat qilishadi. O'yin bir necha marta takrorlanadi va o'yinda bolalar rollarni almashadilar.

*(Tarbiyachi bolalarning "r" tovushini to'g'ri talaffuz etishlari, qarg'a va kuchukning ovozigga to'g'ri taqlid qilishlarini kuzatadi.)*

**Tarbiyachi:** – Endi birinchi guruh o'z joyini egallaydi va mana bu oynali stoldagi qumda "r" harfini yozadi.

Ikkinchi guruh esa mana bu to'qish uchun mo'ljallangan rangli iplar yordamida "r" harfini yozadi.

3-guruh plastilindan foydalangan holda "r" harfini yozadi.

*(Har bir guruh bolalari o'zaro joy almashib, uch turdagi yozish usulini ham bajarishadi.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi sizlarga kartochka tarqataman va undagi rasm nimaligini aniqlab, bo'sh katakchalar ichiga bosh harflarini yozib chiqamiz.

Rom, rul, ar-ra suratlari tasvirlangan kartochkalarni bolalar undosh harflarni ko'k, unli harflarni qizil qalam bilan yozishadi.

**Tarbiyachi:** – Bilag'onlarim, endi dam olish daqiqasi o'tkazamiz.

Randa bunday ishlaydi,

Arra bunday ishlaydi.

Qirqib, yog'och, taxtani,

Sara-sara ishlaydi.

**Tarbiyachi:** – Endi ishchi daftarimizni olib, undagi rubob va arra rasmini hosil qilish uchun nuqtalarni birlashtiramiz va katta hamda kichik "R r" harfini ham nuqtalarni birlashtirgan holda hosil qilamiz.

*(Bolalar ishi nazorat qilinadi.)*



# "R" HARFI DIDAKTIK O'YINLARI

## "KIM KO'PROQ ESLAB QOLADI?" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** bolalarning xotirasini rivojlantirish, ularning so'z boyligini oshirish.

O'yin shartiga ko'ra, tarbiyachi "r" harfi qatnashgan bir nechta so'z o'qiydi. Bolalar qkim ancha ko'p so'zlarni eslab qolib, takrorlab aytib bersa, o'sha bola g'olib deb topiladi.

Tarbiyachi quyidagi so'zlar ketma-ketligini o'qib berishi mumkin:

Radio, rahbar, raqqosa, raqam, randa, rais, rahmat, rahmdil.

Rasm, raqobat, raqib, raketa, rafiqa, rost, ro'mol, ravon.

Rozi, ro'zg'or, rubob, ruxsat, ruchka, ro'para.

## "QAYSI HARF QATNASHYAPTI?" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

Tarbiyachi ketma-ketlikda so'zlar o'qiydi. Bolalar esa har bir so'zda qaysi harf ishtirok etayotganini eshitib turib aytib berishlari kerak.

Ruchka, radio, raketa, arra. ("R" harfi)

Aql, qarg'a, quloq, qamish. ("Q" harfi)

Artist, arzanda, a'lo, adabiyot. ("A" harfi)

Karam, ko'z, keng, akula. ("K" harfi)

Raqs, ro'mol, rubob, ravon. ("R" harfi)

## "FAQAT "R" BILAN" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** tarbiyalanuvchilarning o'tilgan "r" haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O'yin shartiga ko'ra, bolalar tarbiyachi beradigan hamma savolga "r" harfi qatnashgan so'z aytib javob berishlari kerak. Tarbiyachi quyidagi savollarni berishi mumkin:

Ustaning ish quroli. (Arra)

Kechqurun ko'cha qanaqa bo'ladi? (Qorong'i)

Bahorda bolalar osmonda nima uchirishni yaxshi ko'radilar? (Varrak)

Qishdan keyin keladigan fasl nima? (Bahor)

Suratning yana bir nomi. (Rasm)

"R" bilan boshlanadigan qizlar ismiga misollar ayting. (Ra'no, Rahima, Ro'zixon)

"R" bilan boshlanadigan o'g'il bolalar ismiga misollar ayting. (Rahim, Ravshan, Rasul, Rustam)

### **"MOYCHECHAK" O'YINI**

**O'yinning maqsadi:** "s" tovushini ochiq va yopiq bo'g'inlarda to'g'ri va aniq talaffuz etishga o'rgatish. Bolalar doira bo'lib o'tiradilar. Doiraning o'rtasida bitta bola turadi. O'rtada turgan bola "S" tovushini ifodalaydi va moychechak markazi hisoblanadi. Qolgan bolalarga tarbiyachi unli tovushlarni taqsimlaydi, ular moychechakning oq gullaridir. Tarbiyachi o'yinimiz boshlandi, deganda "S" tovushi, ya'ni markazdagi bola oq gullarga – unli harflar yoniga birma-bir boradi. Bunda bolalar hosil bo'lgan bo'g'inlarni o'qishadi:

sa, so, si, su, se.

So'ng bolalar o'rin almashishadi. Har bir bola "s" tovushini ifodalashi zarur.

### **"DO'KON" O'YINI**

**O'yinning maqsadi:** "s" tovushini so'zlarda aniq va to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish.

Tarbiyachistolustiga "S" tovushi ishtirok etgano'yinchoqyokirasmlarniqo'yadi va bolalarni navbat bilan chaqiradi. Bolalar do'konga kelib istagan o'yinchoqlarini xarid qiladilar. Uni o'rtoqlariga ko'rsatib turib, nomini baland ovoz bilan "s" tovushini cho'zib aytadilar. Masalan:

soat, sovun, sandiq, kosa, doska, gilos, avtobus va h.k.

Bolalardan so'zlarni bo'g'inlarga ajratib talaffuz qilish so'raladi. "S" tovushi so'zning boshida, o'rtasida, oxirida kelishiga misol bo'ladigan so'zlar tahlil qilinadi.

## ”BILAG‘ON“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** ”s” tovushi ishtirok etgan so‘zlar bilan yaqindan tanishish, harfning so‘z boshi, o‘rtasi va oxirida kelishini tahlil qilishga o‘rgatish.

Tarbiyachi bolalarga aralash rasimli kartochkalarni tarqatadi. Unda turli predmetlar tasvirlanadi: sichqon, taroq, avtobus, uy, doska, sabzi, gul, gilos, sigir, svetofor, asal. Bolalar o‘yinning birinchi bosqichida kartochkadagi rasmlardan ”s“ harfi ishtirok etgan rasmlarni belgilashlari kerak bo‘ladi.

O‘yinning ikkinchi bosqichida esa shu belgilangan rasmlarni ifodalovchi so‘zlar ishtirokida gaplar tuziladi. Tarbiyachi gaplardan bog‘lanishli matn tuzishga bolalarni yo‘naltiradi.





# “ TOVUSHI VA HARFI

## **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarga "o" tovushi va harf haqida ma'lumot berish, mayda motorikani rivojlantirish yordamida ularning nutqini o'stirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarning xotirasini rivojlantirish, ularning so'z boyligini oshirish.

**Kerakli jahozlar:** AKT, "o" harfini ifodalovchi suratlar.

## **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening qadrdon tarbiyalanuvchilarim. Bugun biz sizlar bilan "o" tovushi va harfi haqida suhbatlashamiz. "O" unli harf hisoblanadi. U so'zning boshida, o'rtasida va oxirida ham kelishi mumkin. O'rdak, o'rmon, o'rgimchak kabi so'zlarda so'z boshida, qo'shni, mo'ri, ko'z kabi so'zlarda so'z o'rtasida, obro' so'zida esa so'z oxirida keladi.

Qani, hammamiz birgalikda "o" tovushini talaffuz qilib ko'ramiz. *(Bolalar tarbiyachi bilan birgalikda "o" tovushini talaffuz qiladilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi hammamiz e'tiborimizni monitorga qarata-miz. Unda "o" harfi ishtirok etgan so'zlarning suratlari ko'rsatilgan. Ularning nomlarini men bilan birga qaytarasizlar.

*(Monitorda nomlanishida "o" ishtirok etgan narsa-buyumlar suratlari ko'rsatiladi.)*

**Tarbiyachi:** – O'rdak, o'rik, o'rmon, yo'lbars, ko'kat, ko'z, o'quvchi, o'ra, o'sma, o't, o'g'il, yo'lak, ko'k, sho'rdanak.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, endi diqqatingizni yana monitorga qa-rating. Unda katta va kichik "o" harfining bosma shaklini ko'rishingiz mumkin. Bolajonlar, "o" harfining ko'rinishini nimaga o'xshatish mumkin?

**1-bola:** – Tuxumga o'xshatish mumkin.

**2-bola:** – Doiraga ham o'xshab ketadi.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri, "o" harfining ko'rinishi tuxumga ham, aylana shakli-ga ham o'xshaydi. Bolalar, endi esa sizlarga o'rdakcha haqida bir hikoya o'qib beraman. Diqqat bilan eshitinglar.



## BOTIR O‘RDAKCHA

Boris Jitkov

Har kuni ertalab uy egasi o‘rdakchalarga likopchani to‘ldirib qiymalangan tuxum qo‘yarkan. O‘rdakchalar likop oldiga qarab chopishlari bilan bog‘dan kattakon bir ninachi uchib kelib, ular ustida aylanarkan. U shunday vahimali chirillarkanki, o‘rdakchalar qo‘rqanlaridan qochib, o‘tlar ichiga yashirinisharkan. Ular ninachi chaqib oladi, deb qo‘rqisharkan.

Ninachi bo‘lsa likopchaga qo‘nib, ovqatni yeb, keyin uchib ketarkan. Shundan keyin o‘rdakchalar kun bo‘yi likopchaga yaqin kelmas ekan. Ninachi yana uchib keladi, deb qo‘rqisharkan-da!

Kechqurun uy egasi likopchani olib: ”O‘rdakchalarimiz kasal bo‘lganga o‘xshaydi, ular hech narsa yemayapti”, – deb hayron bo‘larkan. U o‘rdakchalarining har kuni kechasi och yotishini bilmas ekan.

Bir kuni o‘rdakchalar oldiga Alyosha nomli qo‘shni o‘rdakcha mehmon bo‘lib keldi. O‘rdakchalar unga ninachi to‘g‘risida gapirib berishdi, u esa kula boshladi.

– Yuraklaringizga balli-yey! – dedi mehmon o‘rdak. – Men bir o‘zim u ninachini haydab yuboraman. Mana, ertaga ko‘rasizlar.

– Maqtanyapsan, – deyishdi o‘rdakchalar. – Ertaga hammadan oldin o‘zing qo‘rqib, qochib qolasan.

Ertasi kuni ertalab uy egasi avvalgidek qiymalangan tuxum solingan likopchani o‘rdakchalar oldiga qo‘yib ketibdi.

– Mana, ko‘ringlar, – dedi botir Alyosha. – Hozir sizning ninachingiz bilan olishaman.

U shunday deyishi bilan ninachi uchib keldi. Tepadan to‘ppa-to‘g‘ri likopchaga qarab uchdi. O‘rdakchalar qochmoqchi bo‘lishdi, lekin Alyosha qo‘rqmadi.

Ninachi likopchaga qo‘nib bo‘lganicha yo‘q ediki, Alyosha tumshug‘i bilan uning qanotidan tishlab oldi. Ninachi o‘zini zo‘rg‘a qutqarib, qanoti singanicha uchib ketdi. Shundan beri u sirayam boqqa uchib kelmadi, o‘rdakchalar bo‘lsa har kuni to‘yib-to‘yib ovqatlana boshlashdi. O‘zlarigina ovqatlanib qolmay, balki ninachidan qutqargan botir o‘rdakcha Alyoshani ham mehmon qiladigan bo‘ldilar.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ertak yoqdimi? Kimga qaysi qahramon yoqdi? Qani, fikrlaringizni bildirishingiz mumkin.

*(Bolalarning fikrlari tinglanadi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalar endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz. Tasavvur qiling, biz o‘rdakchalarmiz va xuddi o‘rdakdek yurib ko‘ramiz. O‘rdaklar qanday tovush chiqarishi esingizdami?

G‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a-g‘a,  
Birga yurib tolmaymiz,  
Ahillikdan qolmaymiz.  
Bizga yoqar ko‘p yurish  
Va gerdayib tik turish.  
G‘a-g‘a-g‘a.

*(Bolalar tarbiyachi boshchiligida o‘rdakka o‘xshab yuradilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi sizlarga topishmoqlar aytaman. Ularning javoblari tez topishingiz kerak. Diqqat qiling, har bir topishmoqda ”o“ tovushi qatnashgan. Demak, boshladik.

Borayotganda och minar,  
Kelayotganda to‘q. (Ko‘za)

Ukamga o‘xshar o‘zi,  
Aslo yumilmas ko‘zi. (Qo‘g‘irchoq)

Tomdan tuxum irg‘itdi. (Do‘l)

Ikki og‘ayni bir-birini ko‘rmaydi. (Ko‘z)

Ovozasi azonda, mazaligi qozonda. (Xo‘roz)

Asal emas yoqadi, ari emas, chaqadi. (So‘z)

*(Tarbiyachi topishmoqlarga tez javob topgan tarbiyalanuvchilar uchun guruh bir bo‘lib qarsak chalishini so‘raydi. Butun guruh topqir bolalarni qarsak chalish bilan rag‘batlantiradi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, do‘ppi bizning milliy kiyimlarimizdan biri hisoblanadi. U boshni issiq tutishi bilan birga kiygan odamga juda ham ko‘rkamlik baxsh etadi. Bizda avvaldan tayyorlab qo‘yilgan do‘ppi surati bor. Ana shu suratni namunaga qarab bo‘yab olamiz. Bu ishda barmoqlarimiz yaxshi ishlaydi, o‘zimiz bo‘shashamiz, kayfiyatimiz ko‘tariladi.

*(Bolalar oldindan chizib qo‘yilgan suratlarni rangli qalamlar bilan bo‘yadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugungi ta‘limiy faoliyatimizda faol bo‘lganingiz uchun sizga katta rahmat. Sog‘ va salomat bo‘ling.



## “ HARFI DIDAKTIK O‘YINLARI

### ”MO‘JIZALI XALTACHA“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** tarbiyalanuvchilarning ”o“ harfi haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

Tarbiyachi bitta xaltacha olib kiradi va unda juda ko‘p narsalar borligini aytadi. Bolalar ko‘zlari yumuq holda biror buyumni oladilar, uning nima borligini aytishlari kerak.

Tarbiyachi xaltachaga mashina o‘yinchoq, o‘rdakcha, o‘t, o‘chirg‘ich, jo‘ja, ro‘molcha, po‘kak, pingvin o‘yinchoq, ko‘zgu, do‘ppi, do‘lana, bo‘yinbog‘ so‘lishi mumkin.

### ”O‘ZING GAP TUZ“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalar nutqini rivojlantirish, ularning so‘z boyligini oshirish.

Tarbiyachi bolalarga so‘zlar aytadi, bolalar esa shu so‘zlar ishtirokida gap tuzishlari kerak. Bir bola aytgan gapni ikkinchisi qaytarmasligi kerak.

Tarbiyachi o‘rgimchak, bo‘ri, o‘rmon, O‘zbekiston, o‘rdak, moshxo‘rda, jo‘va, yo‘l, do‘lana, o‘zim, ko‘pchilik, ko‘zacha, o‘tirmoq, ko‘p kabi so‘zlarni aytishi mumkin.

### ”HARFLARNI O‘RNIGA QO‘Y“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarni topqirlikka o‘rgatish.

Tarbiyachi so‘zlardagi harflarning o‘rni almashib qolganini, ularni o‘z o‘rniga qo‘ysa, so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish mumkinligini aytadi.

O‘G‘RIT, O‘RIB, CHIMO‘CH, TKIRO‘, O‘RONB, O‘GRIMKACH, AZO‘K, AJO‘J, O‘RNI

# “D” TOVUSHI VA HARFI

## **Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** ”d“ tovushi va harfi bilan tanishtirish, ”d“ harfini talaffuz qilishga o‘rgatish, mayda motorikani rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda mehnatsevarlik tuyg‘usini shakllantirish, o‘zaro yordam berish ko‘nikmasini rivojlantirish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarning nutqini rivojlantirish, ularning diqqat va xotirasini turli o‘yinlar vositasida o‘stirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, ”d“ harfi ishtirok etgan narsa-buyumlar suratlari.

## **Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening quvnoq va qadrdon tarbiyalanuvchilarim. Bugungi ta’limiy faoliyatimizda sizlar bilan ”d“ tovushi va harf haqida suhbatlashamiz. ”D“ undosh harf hisoblanadi. ”D“ tovushini talaffuz qilganimizda lablar biroz ochiq, harakatsiz, tinch holatda bo‘ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashadi, lekin tegmaydi. Men hozir ”d“ tovushini talaffuz qilaman. Siz esa diqqat bilan tinglang. D tovushini endi birgalikda talaffuz qilamiz.

*(D tovushi bolalar bilan birgalikda talaffuz qilinadi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ”d“ harfini cho‘zib talaffuz qila olamizmi?

**Bolalar:** – Yo‘q.

**Tarbiyachi:** – Bu harf danak, dono, daftar so‘zlarining boshida, odob, qudrat so‘zlarining o‘rtasida, mard, dard, gard so‘zlarining oxirida keladi. Qani, endi ”d“ undosh tovushiga unli harf qo‘shib birgalikda talaffuz qilamiz.

Da, du, do, de, di.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ”d“ harfining bosma shakldagi ko‘rinishiga qarang. ”D“ harfi katta va kichik shaklda bo‘ladi. Kelinglar, hozir plastilindan shu harfni birgalikda yasaymiz. Monitorida ”d“ harfining ko‘rinishi katta qilib ko‘rsatilgan, yana har biringizga ”d“ harfi yozilgan kartochka tarqataman. Siz ”d“ harfini suratga qarab yasashingiz mumkin.

*(Bolalar plastilindan harf yasaydilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, qani endi kim tez aytish aytadi. Men sizlarga ikkita tez aytishni misol qilib keltiraman. Sizlar ularni eshitib, o‘zingizga ma’qulini aytishingiz kerak.

Donogina Durdona Diyoraga dugona.

Dorivor daraxt do‘lana,  
Mevasi dona-dona.

*(Bolalar tez aytish aytadilar, eng ko‘p tez aytish aytgan tarbiyalanuvchilar tarbiyachi tomonidan rag‘batlantiriladi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi esa sizlar bilan bir o‘yin o‘ynaymiz. Hammamiz aylana shaklida turib olamiz. Men koptokni bir ishtirokchiga otaman, u koptokni ilib oladi va sherigiga to‘pni oshirayotganda ”d“ harfi ishtirok etgan bi-rorta so‘z aytadi. Koptokni ilib olgan ishtirokchi ham uni tezda boshqa sherigiga o'tishi kerak. Kim so‘z aytolmasa, u mag‘lub sanaladi.

*(Tarbiyachi bolalarga osonroq bo‘lishi uchun ”d“ harfi ishtirok etgan so‘zlar surati tushirilgan kartochkalarni bolalarga ko‘rinadigan joyga ilib qo‘yadi.)*

**Tarbiyachi:** – Qoyil, bolajonlar, sizlarning so‘z boyligingiz ancha oshibdi. Kelinglar, endi sizlarga daraxt haqida bir ertak aytib beraman.

Bir o‘rik daraxti bor ekan. Bahor kelishi bilan dovuchcha tugarkan va umid bilan yoz kelishini kutarkan. Yozda dovuchcham o‘rik bo‘ladi va uning mevasidan hamma bahramand bo‘ladi derkan-da. Ammo o‘tgan-ketgan yo‘lovchilar ham, mahalla bolalari ham, bog‘cha va maktabdan qaytayotgan bolalar ham uning mevasini pishgunicha kutmasdan dovuchchaligidayoq uzib olisharkan. Yeyishgani ham mayli, daraxtning shoxlarini sindirib, uning barglarini yulib tashlasharkan. Bechora daraxt bu hol har yili sodir bo‘lganidan yig‘larkan, o‘zini bechora his qilarkan. Ammo daraxtning dardini tushunadigan, uni tinglaydigan hech kim yo‘q ekan.

Bir kuni odatdagidek bolalar dovuchcha uzish uchun daraxt tepasiga chiqishibdi, bir keksa otaxon ko‘rib qolib:

– Bolalar, shoshmanglar, pastga tushinglar, – debdi.

Bolalar otaxondan uyaliib daaxtdan tushishibdi.

– Qaranglar, daraxt shoxlarining tagi suv bo‘lib qolgan, yerda ham suv bor. Siz faqat o‘z nafsingizni o‘ylayotgan vaqtda daraxt bechoraning tanasiga qanchalik ozor yetkazayotganingizni sezmayapsiz. U mevasi pishsa, sizga eng sar-

xil o'riklarini berishni istayapti, siz esa shoshqaloqlik qilib uni mevasidan judo qilyapsiz, tanasini qiynayapsiz.

Bolalar daraxt tagiga qarashibdi, haqiqatan ham, yer suv bo'lib qolgan ekan. Bolalar otaxondan uzr so'rashibdi va qaytib daraxt mevasini pishmaguncha uzmaydigan bo'lishibdi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, sizlarga ertak yoqdimi, bu ertakdan kim qanday xulosa chiqardi?


*(Bolalarning fikrlari tinglanadi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi esa mana bu savollarga javob beringlar.

”D“ harfi unli ekanmi yoki undosh?

”D“ harfi so‘zning boshida kelgan so‘zlarga misollar ayting.

”D“ harfi so‘zning o‘rtasida qatnashgan so‘zlarga misollar ayting.



# ”D“ HARFI DIDAKTIK O‘YINLARI

## ”SEHRLI XALTACHA”

**O‘yinning maqsadi:** bolalarda mayda motorikani rivojlantirish, his etish va sezish ko‘nikmalarini shakllantirish.

”Sehrli xaltacha”ga ”d“ harfi ishtirok etgan turli predmetlar – daftar, piramidacha, kubiklar, kitob, qalamlar solinadi. Bola xaltani paypaslab ”d“ harfi ishtirok etgan so‘zli predmetlarni topishlari va xaltadan chiqarib olishlari hamda u bilan turli xatti-harakatlar bajarishlari lozim.

Masalan, bola daftarni oladi va unga yozish mumkinligini ko‘rsatib beradi. Bolalardan daftar bilan yana qanday vazifalarni bajarish mumkinligi borasida suhbat olib boriladi.

## ”RASSOMGA YORDAM BERING“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish.

Tarbiyachi monitororda rassomning yordam so‘rab turgan suratini ko‘rsatadi. Tarbiyachi, bolajonlar, rassom aka ”d“ harfiga mos suratlar chizish topshirig‘ini olgan ekan, ammo ”d“ harfi ishtirok etgan narsalar nomini unutib qo‘yibdi. Kelinglar, unga ”d“ harfi qatnashgan so‘zlar nomini aytib yordam beramiz, deydi. Bolalar danak, daftar, do‘ppi, doira, daraxt, disk, do‘lana, dev, dala, bodom, adyol, pomidor kabi so‘zlarni aytadilar.

## ”G‘AROYIB QUTICHA“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarning diqqati, tasavvuri, nutqini rivojlantirish.

Tarbiyachi ijodiy bezak berilgan qutichaga oldindan ”d“ harfi ishtirokidagi turli quruq meva (chaq-chuqlar) – sho‘rdanak, bodom, xandon pista solib, ustini yopib qo‘yadi. Bolalar navbati bilan qo‘lini qutichaga solib, paypaslab ko‘rib, xohlaganini oladi. O‘zi quruq mevaning mazasi, ta‘mi, rangi, nimalarga ishla-


tilishini ta'riflaydi va shu mahsulotni tasvirlovchi she'r yoki topishmoq aytib beradi.

Masalan, bola qo'lini qutichaga solib, bodomni tanlaydi.

**Bola:** – Bu – bodom, uning mag'zi oq bo'ladi, malla rangli qoplamasi bo'ladi, mazasi yoqimli, undan turli pishiriqlarda foydalanishi mumkin. Mehmon kelganda dasturxonga qo'yiladi.

U yog'i tosh, bu yog'i tosh,  
O'rtasida shirin osh. (Bodom)

*(Bu jarayonda tarbiyachi bolaga yo'naltiruvchi savollar aytib, yordam beradi va bog'lanishli nutqqa e'tibor qaratadi).*





# “U” TOVUSHI VA HARFI

## Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta’limiy:** tarbiyalanuvchilarga ”u“ harfi va tovushi haqida ma’lumot beris’ uning talaffuz etilishini mashq qildirish;

**Tarbiyaviy:** tarbiyalanuvchilarda o‘zaro yordam ko‘nikmasini shakllantiri tartib-intizomga o‘rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarning so‘z boyligini oshirish, ularning tasavvurini kengaytirish.

**Kerakli jihozlar:** Multimedia resursi, mavzuga mos surat va kartochkalar.

## Ta’limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, hurmatli bolajonlarim. Sizlarni yana sog‘-salomat ko‘rib turganimdan xursandman. Bugungi ta’limiy faoliyatimizda sizlar bilan ”u“ harfi va tovushi haqila suhbatlashamiz. Qani, hamma ta’limiy faoliyatga tayyormi?

**Bolalar:** – Ha, tayyormiz.

**Tarbiyachi:** – Juda yaxshi. Qani, hammamiz e’tiborimizni monitorga qaratamiz, unda u harfining surati ko‘rsatilgan. ”U“ tovushini talaffuz qilayotganimizda lablarimiz biroz oldinga cho‘zilib, doira shakliga o‘xshash bo‘lib qoladi. ”U“ tovushini aytayotganimizda labimiz taxminan mana shunday ko‘rinishda bo‘ladi.

*(Monitorida ”u“ tovushini aytayotgan lab surati ko‘rsatiladi.)*

**Tarbiyachi:** – Qani, hammamiz birgalikda ”u“ni talaffuz qilib ko‘ramiz.

”U“ unli tovush bo‘lgani uchun to‘siqqa uchramaydi. Qani, monitorga qarang, unda katta ”U“ harfi va kichkina ”u“ harfi ko‘rsatilgan.

Endi esa ”u“ tovushi ishtirok etgan so‘zlar suratlariga qarab, ularning nomini aytamiz:

Un, uy, u-zum, us-ta, uy-qu, us-toz, uch-bur-chak, uch.

**Tarbiyachi:** – Bolalar bo‘ri qanday uvillaydi? Qani, hammamiz birgalikda o‘sha tovushni qaytarib ko‘raylik-chi: uv-uv-uv-uv-uv.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi esa men tovushlarni o‘qiyman, sizlar diqqat bilan quloq solinglar. Agarda ”u“ tovushini eshitsanglar chapak chalasizlar.

Um, om, on, tu, tut, ot, tur, ku, su, ru.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi esa mana bu topishmoqning javobini ayting-lar.

Kunduzi jim yuradi,  
Tun bo‘lsa qichqiradi.  
Qorong‘uda ”u-u-u”lab,  
Sichqonlarni ovlaydi.  
Bolajonlar, bu nima?

**Bolalar:** – Bu – ukki.

**Tarbiyachi:** – Ukki sayraganda qanday ovoz chiqaradi?

**Bolalar:** – U-u-u-u-u-u.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi esa sizlar bilan barmoq mashqlarini bajaramiz. Xo‘sh, bolg‘acha qanday ovoz chiqaradi?

Taq-taq-taq, taq-taq-taq.

*(Bolalar qo‘llari bilan bolg‘ani urish harakatini bajaradilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, eshikni taqillatganimizda qanday ovoz chiqadi?

Tuk-tuk-tuk.

*(Bolalar tarbiyachi ko‘rsatganidek barmoqlari yordamida uy eshigini taqillatgandek harakat qiladilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi mana bu tez aytishni qaytarib aytamiz.

Ukki uzoqqa uchib, uzumniyam uzadi.

*(Bolalar tez aytishni qaytaradilar.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, maktabda o‘quvchilarga ta‘lim beradigan kasb egalari biz kim deb aytamiz?

**Bolalar:** – Ustozlar.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, to‘g‘ri aytdinglar. Hozir men sizlarga Xurshid Karimning ustozlar haqidagi she‘rini aytib beraman.

Ustoz, ulug‘ mo‘tabar,  
O‘g‘itlari tillo, zar.  
O‘qitgan chekib zahmat,  
Ustoz, sizga ming rahmat.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ”u“ harfi otning taqasiga ham o‘xshaydi. Hozir sizlarga mayda dumaloq shaklchalar tarqatib chiqaman. Sizlar uni slayddagi ”u“ harfiga o‘xshatib ketma-ketlikda terib chiqishinglar kerak. Kim ”u“ harfi o‘xshatsa, unga kitobcha sovg‘a qilaman.

*(Bolalar shaklchalar yordamida "u" harfini yasab ko'radilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi esa mana bu topishmoqlarga javob beringlar. E'tibor beringlar, topishmoq javobida, albatta, "u" tovushi bor.

Usti berk, tagi berk, atrofi devor,  
Qishda ham, yozda ham, odamni yutar.

Bu nima?

**Bolalar:** – Uy.

**Tarbiyachi:** – Ahil bo'lib yashar doim yetmish mard,  
Tani yonib, elga qiladi xizmat.

Bu nima?

**Bolalar:** – Gugurt.

**Tarbiyachi:** – Posbonidir u uying,  
Ko'zi, tili yo'q uning.

Bu nima?

**Bolalar:** – Qulf.

**Tarbiyachi:** – Birlashtirib kiyimni,  
Issiq tutadi bizni.

Bu nima?

**Bolalar:** – Tugma.

**Tarbiyachi:** – To'ni silliq, tuki yo'q,  
Ichi qizil, ko'ki yo'q  
Uni cho'qolmas chumchuq.

Bu nima?

**Bolalar:** – Tarvuz.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugungi ta'limiy faoliyatda juda ham faol ishtirok etdinglar. Ta'limiy faoliyatimiz so'ngida mana bu savollarga javob beringlar.

"U" tovushi ishtirok etgan so'zlarga misollar ayting.

"U" harfining bosmacha shaklini chizib ko'rsating.



# ”U“ HARFI DIDAKTIK O‘YINLARI

## ”YASHIRILGAN NARSA NIMA?“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarda mantiqiy fikrlash jarayonini rivojlantirish, topqirlik, vizual xotirasi va sezgi malakalarini shakllantirish.

Bolalar davra qurib yoki bir qator saf tortib turadilar. Tarbiyachi polga bolalar ko‘z o‘ngida 3–5 ta buyum (kubcha, bayroqcha, shiqildoq, uchburchak, koptok, uy va boshqalar) qo‘yadi va ularni eslab qolishni taklif qiladi. Keyin tarbiyachining ishorasiga qarab bolalar doira markaziga orqa o‘girib buriladilar yoki devorga qarab turadilar. Tarbiyachi buyumlar ustini yopib qo‘yadi va: ”Qaranglar”, – deydi. Bolalar qaraydilar va buyumlarni diqqat bilan ko‘zdan kechiradilar, ular buyumlar orasidan ”u“ harfi qatnashgan predmetlarni eslab qolib, nomlarini aytishi kerak.

## ”QOPDA NIMA BOR?“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarda chamalash, solishtirish, tahlil kilish qobiliyatini shakllantirish.

O‘yin shartiga ko‘ra, har bir bola tarbiyachi yoniga keladi. Tarbiyachi kichkina qopchaga solingan narsaning (ushbu predmetda ”u“ harfi ishtirok etishi kerak) belgilarini aytadi. Tarbiyalanuvchilar esa shu belgilarga qarab qopchanning ichida nima borligini aytib berishi kerak.

Masalan, u bizni issiq va sovuqdan himoya qiladi, deraza va eshiklari, tomi bo‘ladi...

Ushbu ta’riflarni eshitib, bolalar nimaligini topishadi.

## ”XATOMNI TOP“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini kuchaytirish.


Tarbiyachi bolalarga ”u“ harfi ishtirok etgan va etmagan gaplarni ketma-ketlikda o‘qiydi, bolalar esa qaysi gapda ”u“ harfi borligini va mantiqan xato gaplarni aytib berishlari kerak.

Misol: Komiljonlarning Uyi juda chiroyli. Lekin derazasi yo‘q (mantiqan xato).

TUrsUnali har kuni Uch baho oladi. U sinfdagi a‘lochi o‘quvchilardan (mantiqan xato).

Umida zilol sUv bo‘yida miriqib dam oldi. Lekin u judayam chanqab ketdi (mantiqan xato).

KUn juda sovUq edi. Zuhra muzdekkina tavUzni maz-za qilib yedi (mantiqan xato).



# “ Y ” TOVUSHI VA HARFI

## **Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** tarbiyalanuvchilarni ”y“ undosh tovushi va harfi bilan tanishtirish, bu harf ishtirokidagi so‘zlarni tahlil qilishga o‘rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** ”y“ undosh tovushining so‘z boshida, o‘rtasida, oxirida kelishini tushuntirish, shu harf ishtirokidagi bo‘g‘inlardan so‘z tuzishni o‘rgatish;

**Tarbiyaviy:** tarbiyalanuvchilarga bir-birini tinglashni, savollarga javob berishni o‘rgatish.

**Kerakli jihozlar:** rasmi alifbo, sanoq cho‘plar, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ”y“ tovushi ishtirok etgan predmetlar suratlari, bo‘g‘inli kartochkalar, AKT.

## **Faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ayting-chi, suratda qaysi hayvon rasmi tasvirlangan?

*(Ekranda yo‘lbars surati ko‘rsatiladi.)*

**Bolalar:** – Yo‘lbars.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, yo‘lbars qayerda yurgan ekan?

**Bolalar:** – Yo‘lda.

**Tarbiyachi:** – Ziyrak bolalarimiz bugun qanday harfni o‘rganishimizni bilib olishdi. Anglaganingizdek, bugun ”y“ undosh tovushi va harfini o‘rganamiz. Hozir bu tovush ishtirok etadigan so‘zlarni atrofimizdan izlab ko‘ramiz, qani, kim nimalarni ko‘rayapti?

**Bolalar:** – Yaproq, yeng, yelim, yer, yuz, yurak, yurt.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi men sizlarga ”y“ tovushi so‘zning o‘rtasida kelgan so‘zlarni aytaman, sizlar ushbu so‘zlarning suratlarini mana bu aralash kartorchkalar ichidan topasiz.

*(Tarbiyachi ayvon, ayol, laylak, kiyik, daryo, tuya so‘zlarini aytadi, bolalar suratlarini topib, tartib bilan qo‘yadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlarim, endi diqqatingizni ekranga qarating va ”y“ harfining kesma shakli qanday yozilishini bilib oling.

*(Ekranda "y" harfining bosma tarzda qanday yozilishi harakatli animatsiya yordamida ko'rsatib beriladi.)*

**Tarbiyachi:** – Endi, bolajonlar, har birimiz sanoq cho'plarimizni olamiz va men bu videoni yana bir marta takror namoyish etaman, sizlar ham harakat qilib, "y" harfini yasang.

*(Tarbiyachi bolalarga harfni sanoq cho'plar yordamida yasashiga yordam beradi va har bir bolaning harakatini, bajargan ishini nazorat qiladi.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi shu kungacha o'rgangan harflarimizni yodga olamiz, marhamat, ekranga diqqatingizni qarating.

*(Ekranda O, N, A, I, M, T, L, B, K, R, O', D, I, U harflari va ular ishtirokidagi bo'g'inlar ko'rsatiladi, bolalar bo'g'inlarni jo'r bo'lib o'qiydilar.)*

**Tarbiyachi:** – Zukko o'g'il-qizlarim, har bir harfni eslab qolibsiz, hozir esa dam olish daqiqasi o'tkazamiz.

Yayrab sakrar kiyikcha,

Yengil chopar kiyikcha.

Shoxlari taram-taram,

Zuv yugurar kiyikcha.

*(Matnga mos harakatlar bajartiriladi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlarim, hozir "y" harfi bilan birga kelgan bo'g'inlarni o'qiyamiz.

Yo, ya, yi, yo', yu.

Ay, o'y, oy, iy, uy.

*(Bo'g'inlar tarbiyachi qo'li yoki ko'rsatkich bilan ko'rsatilgan holda jo'r bo'lib o'qiladi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlarim, ishchi daftaringizni oling va "y" harfining kesma shaklini nuqtalarni birlashtirgan holda hosil qilamiz.

*(Bolalar ish daftari bilan 10 daqiqa davomida ishlashadi.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, ruchkani to'g'ri ushlaganingiz uchun shakllaringiz tekis va aniq chiqibdi. Hozir juftlikda ishlaymiz va mana bu kartochkalardan "y" harfi ishtirok etgan bo'g'inlarni hosil qilamiz.

*(Bolalar yo, ya, yi, yo', yu, ay, o'y, oy, iy, uy bo'g'inlarini hosil qilishadi.)*

**Tarbiyachi:** – Zukko bolajonlarim, endi sizlarga "Kiyikcha" hikoyasini o'qib beraman, diqqat bilan tinglang, sizlar qayta so'zlab berasizlar.

KIYIKCHA

Nasiba Erxonova

Bir kuni ona kiyik farzandini izlab rosa charchadi. Axir ertalabdan kiyikchaga:

– Mashina yuradigan yo‘lga chiqmagin, mashinalar yuradi, sendan xavotir olaman, – deb tayinlagan. Kiyikcha esa:

– Xo‘p, – deganicha yugurgilab ketgandi.

Lekin quyosh botayotganiga qaramay, kiyikchadan darak yo‘q.

Ona kiyik o‘yga tolib turgan edi, bir payt uzoqdan kiyikchanning dupurlagan tuyoq tovushlari eshitiildi.

– Oyijon, oyijon, – deb hansirardi kiyikcha. – Men yo‘lbarsni ko‘rdim, – dedi kiyikcha ko‘zlari katta-katta bo‘lib.


– O‘zing omonmisan, bolajonim, – deya ona kiyikning ko‘zlaridan yosh oqib ketdi.

– Endi sira uzoqqa ketmayman, katta yo‘lga ham chiqmayman, sizni topaman deb adashib qoldim, – kiyikcha aybini tan oldi.

Shundan beri kiyikcha onasining aytganlarini qiladigan bo‘libdi.

*(Matn tahlil qilinadi, "y" tovushi ishtirokidagi so‘zlarda u qaysi o‘rinda kelayotgani o‘rganiladi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlarim, bugungi mashg‘ulotimizda yangi o‘rgangan harf bilan boshlanadigan 10 ta misolni uyda ota-onangiz yordamida topib kelinglar.





# ”Y“ HARFI DIDAKTIK O‘YINLARI

## ”O‘ZING SO‘Z TOP“ O‘YINI

*O‘yinning maqsadi:* tarbiyalanuvchilarning so‘z boyligini oshirish, ularning nutqini boyitish.

Tarbiyachi bolalarga ”y“ harfi ishtirok etgan so‘zlarga misollar keltirishni aytadi. Bolalar yaproq, yolg‘on, yolg‘iz, yer, yelvizak, yengil, yig‘lama, yirtqich, yetuk, yemak, yirik, yiqilmoq, yig‘im, yigirma kabi so‘zlarni aytishlari mumkin.

## ”TOPGAN TOPALOQ“ O‘YINI

*O‘yinning maqsadi:* bolalarni topqirlikka o‘rgatish, ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish.

Tarbiyachi bolalarga bir qancha topishmoqlar aytadi, bolalar topishmoqlar javoblarini topishlari kerak.

Oltin kelganda kumush ketar,  
Kumush kelganda oltin ketar. (Quyosh, oy)

Onasi bitta,  
Bolasi mingta. (Oy va yulduzlar)

Bir palosim bor,  
Hyech yig‘olmayman. (Yer)

O‘zi katta,  
Dumi kalta. (Tuya)


Kelganda to‘rt oyoq,  
Ketganda ikki oyoq. (Ayi)

Shoxlari bor qo‘chqordek,  
Bo‘yi misli daraxtdek. (Kiyik)

### ”BO‘G‘INGA AJRATIB O‘QIYMIZ“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** tarbiyalanuvchilarning o‘qish va bo‘g‘inga ajratish malakalarini oshirish.

Tarbiyachi bolalarga suratlar ko‘rsatadi, bolalar esa suratdagi narsa nomini bo‘g‘inga ajratgan holda aytib berishlari kerak. Tarbiyachi yalpiz, yigit, yelkan, yostiqliq, yomg‘ir, yubka, yog‘och, yo‘lak, yo‘lbars, yo‘lka, yurak, yelka suratlarini ko‘rsatishi mumkin.



# “ E ” TOVUSHI VA HARFI

## **Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** bolalarni unli harflar guruhiga kiruvchi ”e“ harfi bilan tanishtirish, ”e“ harfining soʻz boshida, oʻrtasida, oxirida kelishini oʻrgatish;

**Tarbiyaviy:** tarbiyalanuvchilarda guruh boʻlib ishlash koʻnikmasini shakllantirish, ularni mehnatsevarlikka oʻrgatish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarda xotira va diqqatni oʻstirish, turli savol-javoblar vositasida ularning nutqini oʻstirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, ”e“ harfi ishtirok etgan buyumlar suratlari.

## **Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening qadrdon bolajonlarim. Kayfiyat-laringiz yaxshimi? Unday boʻlsa, bugun sizlar bilan ”e“ harfi va tovushi haqida suhbatlashamiz.

Bolajonlar, ”e“ harfi unli harflar guruhiga mansub, u talaffuz qilinganda choʻzib aytiladi: e-e-e-e. Qani, birgalikda ”e“ tovushini talaffuz qilib koʻraylik-chi.

*(Tarbiyachi va bolalar ”e“ tovushini talaffuz qiladilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi ”e“ ga birorta tovush qoʻshib birgalikda talaffuz qilamiz.

Et, ek, es, er.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, nomlanishida ”e“ harf boʻlgan narsalarni monitorda koʻramiz va ularning nomini birgalikda aytamiz.

Bedana, elak, etak, ekin, echki, eshak.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi tezkor savollarga javob beringlar.

Sizlar har kuni uyqu oldidan oyingizdan nima aytib berishini soʻraysiz? (Ertak)

Bugundan keyin keladigan kun. (Erta)

Oyijonlarimiz xamir ovqat qilishdan oldin unni nimadan oʻtkazadilar? (Elak)

Yaxshi bolalarni buvilarimiz qanday erkalaydilar? (Esli bola)

Bugundan oldingi kunni nima deb ataymiz? (Kecha)

Uyali aloqa vositasining yana bir nomi nima? (Telefon)

Kuchli, chaqqon insonlarni yana qanday maqtash mumkin? (Epchil)

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolalar, sizlar hamma savollaringizga tez va aniq javob berdingiz. Endi esa "e" harfining bosma shaklini chizib ko'rsataman. Sizlar doskadagi mening qo'l harakatlarimga diqqat bilan qarab turinglar.

*(Tarbiyachi doskaga "e" harfini yozib ko'rsatadi.)*

**Tarbiyachi:** – Bu harf ham xuddi boshqa harflarga o'xshab katta va kichik shaklga ega. Shuning uchun ham men sizlarga ularning katta va kichik ko'rishlarini ko'rsatdim. Endi esa, bolajonlar, sizlarga sanoq cho'plar tarqataman. Sizlar shu cho'plar yordamida "e" harfining bosma shaklini yasab ko'rsatasizlar.

*(Bolalar tarbiyachi yordamida "e" harfini yasaydilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, kelinglar, e harfi ishtirok etgan so'zlardan tashkil topgan tez aytishlarni birgalikda aytamiz.

Erkin egatga ekin ekdi.

Ergash Erkinga ergashdimi,

Erkin Ergashga ergashdimi?

*(Tez aytishni ko'p marta xatosiz aytgan bola tarbiyachi tomonidan ertak kitobi bilan taqdirlanadi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazamiz. Tasavvur qiling, har birimizning qo'limizda elak bor. Biz elakda un elaymiz, o'ngga bir marta, chapga bir marta, o'ngga bir marta, chapga bir marta. Uning ichida qumoq bo'lib qolgan yirik unlar, don kepaklari bo'lishi mumkin, ana shuning uchun ishlatishdan oldin un elanadi. Bolalar, oyijonlarimiz unni elab xamir qorib, nimalar pishiradilar, kim aytadi?

*(Bolalarning javoblari tinglanadi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, shu o'rinda "e" harfi bilan boshlanadigan ezgulik haqida ham biroz to'xtalib o'tishni lozim deb topdim. Ezgulik sizningcha nima? *(Bolalarning javoblari tinglanadi.)*

**Tarbiyachi:** – Qoyil, bolalarim, sizlar bu so'zning ma'nosini yaxshi bilar ekansizlar. Men hozir ezgulik haqida bir she'r o'qib beraman.

Ezgulik nima deb so'radim ko'zdan,

U dedi: hayotni to'g'ri ko'rmoqlik.

Ezgulik nima deb so'radim yuzdan,

U dedi: halollik gashtin surmoqlik.

Ezgulik nima deb so‘radim tildan,  
U dedi: samimiy dildan so‘zlamoq.  
Egulik nima deb so‘radim dildan,  
U dedi: eng to‘g‘ri yo‘lni ko‘zlamoq.


**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, fursatdan unumli foydalanib, ezgu ishlar qilishga urinishimiz lozim. Kattalarga salom berish, kichiklarni izzat qilish kabi ishlarni har doim amalga oshirish kerak. Jonivorlarga, daraxtlarga ozor bermaslik ham ezgulikning bir ko‘rinishi.

Endi esa mavzumizga doir mana bu savollarga javob beringlar:

”E“ harfi so‘z boshida kelgan so‘zlarga misollar keltiring.

”E“ harfi qatnashgan so‘zlar ishtirokida gap tuzing.

”E“ harfi unli harflar guruhiga kiradimi yoki undosh harflar guruhiga?



# "E" HARFI DIDAKTIK O'YINLARI

## "OYIMNING SUMKASI" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** tarbiyalanuvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish.

**Tarbiyachi:** – bolajonlar, oyimiz sumkasida bozordan faqat "e" harfi bilan boshlanadigan narsa buyumlar sotib olib kelibdi. Kelinglar, ularning nomini aytamiz.

Bolalar elak, egov, etik, konfet, pechene, kefir, marmelad, keks kabi so'zlarni aytadilar.

## "TEZ JAVOB TOP" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** tezkor savol-javob vositasida bolalarning "e" harfiga doir olgan bilimlarini mustahkamlash.

Unni nimada elaymiz? (Elak)

Uyga nimani ochib kiramiz? (Eshik)

"E" dan boshlanadigan hayvon nomi? (Eshak)

Qo'yga o'xshaydi, soqoli bor, u nima? (Echki)

Nabiradan keyin tug'iladigan bola kim bo'ladi? (Evara)

Yaxshilikni yana qaysi so'z bilan aytishimiz mumkin? (Ezgulik)

## "KIM KO'P ISM BILADI?" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** bolalarda diqqat va xotirani rivojlantirish, ularni topqirlikka o'rgatish.

Tarbiyachi "e" harfi ishtirok etgan ismlarni kim ko'proq ayta olishini so'raydi. Kim ko'p ism aytsa, o'sha ishtirokchi g'olib deb topiladi.

E'zoza, E'tibor, Erkin, Ergash, Eldor, Ergashali, Behruz, Oybek, Bekzod, Sherzod, Toshtemir, Ravshanbek, Otabek, Mehri, Mehriniso, kabi ismlarni aytish mumkin.

## "HAMMASI "E" DAN" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** bolalarda topqirlikni rivojlantirish, ularni hozirjavoblikka o'rgatish.

Tarbiyachi saralangan topishmoqlardan o'qib beradi, topishmoqlarning javobida "e" harfi qatnashgan bo'lishi kerak. Misol uchun,


Bir o'zi,  
Ming ko'zi. (Elak)

Po'lat qushim uchdi-ketdi,  
Bir zum o'tmay  
Oyga yetdi. (Raketa)

Katta quti, ko'zi bor,  
Ko'p tomosha, so'zi bor. (Televizor)

Zar gilam, zar-zar gilam,  
Ko'taray desam, og'ir gilam. (yer)

Tushgan yerini kesar. (Tesha)



# “G” TOVUSHI VA HARFI

## **Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** ”g“ harf va tovushi bilan tanishtirish, ”g“ning so‘z boshida, o‘rtasida, oxirida kelishini tushuntirish;

**Tarbiyaviy:** tarbiyalanuvchini jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatish, ularda mehnatsevarlik tuyg‘ularini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarda diqqat, xotira va mayda motorikani rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, ”g“ harf, tovushi ishtirok etgan so‘zlardan tashkil topgan narsalar suratlari.

## **Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, zukko bolajonlarim. Bugungi ta’limiy faoliyatimizda biz ”g“ harfi va tovushi bilan tanishamiz. Hozir sizlarga ”g“ harfi bilan boshlanadigan narsalar nomiga bog‘liq topishmoq aytaman. Sizlar esa diqqat bilan quloq solinglar va javobini topinglar.

Hidlay desam gul emas,

yeyishga ovqat emas.

Yuzing kabi qip-qizil,

Yeyman deb qilma hazil. (Garmdori)

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bu topishmoqning javobi – garmdori. Bolajonlar, garmdori achchiq bo‘ladimi yoki shirin?

**Bolalar:** – Garmdori achchiq bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, mana bu tez aytishni aytib ko‘rinlar-chi, oralaringda kim ko‘proq va to‘g‘ri ayta olarkin?

Gultojixo‘roz – xo‘rozning tojiga o‘xshaydi, xolos.

(*Bolalar orasidan tez aytishni ko‘p aytgan bola qarsak bilan rag‘batlantirildi.*)

**Tarbiyachi:** – Endi ”g“ tovushining talaffuzi haqida aytib beraman. ”G“ tovushi talaffuzida lablar biroz ochiq, harakatsiz bo‘ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan bo‘ladi, ammo birikmaydi. ”G“ undosh harf hisoblanadi. ”G“ tovushini talaffuz qilaman, sizlar esa eshitinglar.

(*Tarbiyachi tovushni talaffuz qiladi.*)



**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ”g“ tovushini birgalikda talaffuz qilaylik-chi.

*(Bolalar ”g“ tovushini tarbiyachi bilan birgalikda talaffuz qiladilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi ”g“ tovushini unli tovushlar bilan birga talaffuz qilamiz.

Ga, go, gu, gi, ge, go‘.

Bu harfni yozish, ko‘rish mumkin va o‘qish mumkin. Hozir diqqatingizni monitorga qarating, unda ”g“ harfining bosma katta va kichik shakllarini ko‘rasiz. Hozir men sizlarga ”g“ harfining bosma shaklini doskaga yozib ko‘rsatib beraman, sizlar esa qarab turinglar.

*(Tarbiyachi doskaga ”g“ harfining bosma shaklini yozib ko‘rsatadi.)*

Bolalar, ”g“ harf tovushi so‘z boshida gugurt, gilam, gul, so‘z o‘rtasida agar, tugma, so‘z oxirida barg, bodring ham kelishi mumkin.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi sizlar bilan bir o‘yin o‘ynaymiz. Hammamiz doira bo‘lib turib olamiz. Men koptokni bittangizga aytish jarayonida ”g“ tovushi ishtirok etgan so‘z aytaman, koptokni ilib olgan ishtirokchi ham yana bir so‘z aytib, uni boshqa ishtirokchiga otishi lozim.

*(Bolalar o‘yin jarayonida gilos, go‘dak, gilam, gugurt, gul, tugma, ilgak, tugma, gap kabi so‘zlarni aytadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, endi esa sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz. Tasavvur qiling, biz ayiqmiz va ayiqdek harakat qilamiz.

Davangirday ayiqman,

Lapanglagan qayiqman,

Asalni xush ko‘raman,

Sog‘inib tush ko‘raman.

*(Bolalar tarbiyachi ko‘rsatgan xatti-harakatlarni bajaradilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi esa ip yordamida ”g“ harfini yozamiz.

*(Bolalar tarbiyachi nazoratida ip bilan ”g“ harfini yozadilar.)*

Bolajonlar, endi mana bu savollarga javob beringlar.

”G“ unli harf ekanmi yoki undosh?

Gul so‘zi ishtirokida bitta gap ayting.



# "G" HARFI DIDAKTIK O'YINLARI

**O'yin nomi:** "TO'G'RI TOP"

**O'yinning maqsadi:** Bolalarda his etish va sezish ko'nikmalarini shakllanti-radi, g harfi ishtirok etgan so'zlarni tahlil qilishga o'rganadi, tarbiyalanuvchilar-ni mantiqiy fikrlashga o'rgatadi.

**O'yinning borishi:** O'yin shartiga ko'ra, tarbiyachi g harfi ishtirok etgan va ishtirok etmagan so'zlarni ketma-ketlikda o'qiydi, tarbiyalanuvchi esa g harfi ishtirok etgan so'zlarni eshitganda qarsak chalishi kerak. Masalan: gul, barg, gavhar, galaktika, gantel, garaj, gimn, gerb, govmish, guldasta, go'dak.

(Jarayonda bolalarning lug'at boyligini boyitish maqsadida so'zlarga izoh beriladi).

**O'yin nomi:** "GURUHLARGA AJRAT"

**O'yinning maqsadi:** bolalarni tahliliy fikrlashga o'rgatish, taqqoslash haqidagi bilimlarini boyitish.

**O'yinning borishi:** Tarbiyachi ismlarni ketma-ket o'qiydi, tarbiyalanuvchi-lar esa bu so'zlarni guruhlaydi. Masalan, Go'zal, Gulbahor, Gulchehra, Gavhar, Gulsara – bular qizlarning ismi.

Garmdori, gul, gazon, gerbariy, gulkaram, gilos, giyoh so'zlari – bular o'sim-liklar.

Endi o'zingiz "Idishlar" degan guruhga mansub so'zlarni ayting deb topshiriq berish mumkin.


**O'yin nomi:** "UMUMIY JIHATNI TOP"

**O'yinning maqsadi:** bolalarning atrof-olam haqidagi bilimlarini boyitish, g harfi ishtirokidagi yangi so'zlar vositasida lug'at boyligini oshirish.

**O'yinning borishi:** O'yin shartiga ko'ra, tarbiyachi aytayotgan so'zlardagi umumiy yaqinlikni bolalar topishlari kerak.

Gul va guldasta, bular – gullar, gul – bitta gul, guldasta – turli gullar jamlanmasi. Guruch va grechka, bular – dukkaklilar, guruch – oq va mayda don, undan palov tayyorlanadi. Grechixa yormasi jigarrangdagi mayda yorma, undan garnir, sutli bo‘tqa tayyorlanadi.

(O‘yin shu tarzda davom ettiriladi).



# “NG” TOVUSHI VA HARFI

## **Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** ”ng“ harf birikmasi bilan tanishtirish, so‘z tuzish va o‘qishga o‘rgatish, tovush talaffuzini o‘rgatish shu tovush ishtirok etgan so‘zlarga misollar aytish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda guruh bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirish, ularni mehnatsevarlikka o‘rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarning mayda motorikasini o‘stirish, ularning nutqini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, ”ng“ birikmasi ishtirok etgan narsalar suratlari.

## **Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening qadrdon bolajonlarim! Bugungi ta’limiy faoliyatimizda ”ng“ harf birikmasi haqida suhbatlashamiz. ”Ng“ birikmasini siz rang, tong, bodring kabi so‘zlarni eshitgansiz. Ana shu so‘zlarda ”ng“ harf birikmasi ishlatiladi. Undosh harflar guruhiga kiruvchi ”ng“ tovushini talaffuz qilaman, siz esa eshiting.

*(Tarbiyachi tong, bong, rang, keling, boring kabi so‘zlarni aytarkan, asosiy urg‘uni ”ng“ harf birikmasiga tushiradi.)*

Bolajonlar, ”ng“ harf birikmasi ham bosma va yozma shaklda bo‘ladi. Uning ko‘rinishini monitorga qarab ko‘rib olishingiz mumkin. Men sizlarga ”ng“ harf birikmasini doskaga yozib ko‘rsataman. Siz esa diqqat bilan mening qo‘l harakatlarimga qarab turing.

*(Tarbiyachi doskaga ”ng“ harfini yozib ko‘rsatadi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ish daftaringizga ”ng“ harfini siz ham yozib ko‘ring. *(Bolalar ”ng“ harfini ish daftarlari yozib ko‘radilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, kelinglar, endi ”ng“ tovushi ishtirok etgan so‘zlarga misollar aytamiz.

**1-bola:** – So‘ng, keng, zang, shudring, rang.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, chaqaloq yig‘laganda qanday ovoz chiqaradi?

**Bolalar:** – Inga, inga, inga.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, to‘g‘ri aytdinglar. ”Ng“ harf birikmasi yana ken-guru so‘zida ham bor. Qani, endi faoliyatimizda topishmoqlar vaqti deb e‘lon qilamiz.

Igna uchi yaltiroq. (Shudring)

Mayda-mayda uzunchoq,  
Tashi ko‘k, ichida zirachak. (Bodring)

Rangi har xil,  
Nomi bir xil. (Rangli qalam)

Cheti gulli patir non,  
Ichi to‘la g‘ij-g‘ij don. (Kungaboqar)

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, endi esa mana bu savollarga javob be-ringlar.

Uyni tozalayotganimizda shkaflar, tokchalarning ustida nimani artamiz? (Changn)

Tikuvchilar biror narsa tikayotganda to‘rtinchi barmoqlariga ninadan himo-ylanish uchun nima taqib oladilar? (Angishvona)

Kuy-qo‘shiqni eshitayotganda uning nimasi bizga yoqadi? (Ohang)

Chet tillaridan ”ng“ birikmasi ishlatilgan til nomini ayting. (Ingliz tili)

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz. Mana hozir chang haqidagi savolga javob berdingiz. Chang joyda yashash, chang havodan nafas olish organizm uchun zararli hisoblanadi. Hozir hammangizga bir parchadan mato beraman, sizlar o‘zingiz o‘tirgan stol va stol ustini artib ola-sizlar. Biz mashg‘ulot o‘tadigan xona, biz yashaydigan uy chang va g‘uborlar-dan toza bo‘lishi salomatligimiz uchun foydali. Buyuk tabib Abu Ali ibn Sino bobomiz ham, agar chang bo‘lmaganida inson ming yil yashaydi, deb aytganlar.

*(Bolalar tarbiyachi nazoratida stol ustini artib oladilar.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, endi qo‘llarimizni sovunlab yuvib ola-miz. Har doim qo‘llarni sovunlab yuvish salomatligimiz uchun koni foyda.

Bolajonlar, endi esa yana so‘z o‘yini o‘ynaymiz. Men bitta so‘z aytaman, siz esa uning qarama-qarshi ma‘nosini topib aytasiz.

Keng – tor.

Chang – toza

Katta – kichik

O‘ng – chap.

Baland – past.

Yorug‘ – qorong‘i.

Keling – boring

Oq – qora.


**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi esa mana bu savollarga javob beringlar.

Ko‘ylakda ikkita nima bo‘ladi? (yeng)

Uy shinam va yana qanday bo‘lishi kerak? (Keng)

U judayam xushfe‘l va ... (Bag‘rikeng)

Qiz bola, oyimning qizi, u kim. (Singil)



# "NG" HARFI

## DIDAKTIK O'YINLARI

### "DIQQAT BILAN ESHIT" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** bolalarda diqqat bilan tinglash ko'nikmasini rivojlantirish.

Tarbiyachi bir nechta so'zlarni o'qiydi, bolalar esa so'zlardagi "ng" harf birikmasi so'z boshida, o'rtasida yoki oxirida ekanligini qo'l ko'tarib aytishlari kerak.

Bodring, ko'ngil, dengiz, tanga, mangu.

### "O'ZING AYT" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** bolalar nutqini rivojlantirish, ularning so'z boyligini oshirish.

O'yin shartiga ko'ra, bolalar o'zlari bilgan "ng" harf birikmali so'zlarga misollar aytishlari kerak. Kim ko'proq so'z aytsa, tarbiyachi tomonidan rag'batlantiriladi.



# “S” TOVUSHI VA HARFI

## **Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** bolalarga ”s“ tovushi va harfi haqida ma’lumot berish, ”s“ tovu-shining soʻz boshida, oʻrtasida va oxirida kelishini tushuntirish;

**Tarbiyaviy:** tarbiyalanuvchilarda oʻzaro xayrixohlik va yordam koʻnikmalarini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarda mantiqiy fikrlash, tasavvur qila olish qobiliyatini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** Harflar kassasi, boʻgʻinli kartochkalar.

## **Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, bolajonlar, qani, kim mana bu topishmoq-ning javobini topa oladi?

Osmonda uchar nima?

Togʻlarni quchar nima?

Shamol otda yurtlardan

Yurtlarga koʻchar nima?

**1-bola:** – Bu – samolyot.

**Tarbiyachi:** – Toʻgʻri, qani kim aytadi, samolyot qayerda uchadi?

**2-bola:** – Samolyot osmonda uchadi.

**Tarbiyachi:** – Samolyot haqida sheʼr bilasizlarmi?

**3- bola:** –

Samolyotga mazada,

Parvoz qilar samoda.

Qanot qoqsa bir zumda,

Zamin ham ortda qolar.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonim. Endi esa sizlar bilan ”s“ tovushi haqida suhbatlashamiz. ”S“ tovushini talaffuz qilganimizda lablar kulmoqchi boʻlganimiz holatida, tishlar koʻrinib turadi, tishlar bir-biriga yaqinlashadi, lekin birikmaydi, tovush bogʻlamlari ochiq tovush jaranglaydi. ”S“ tovushini birgalikda talaffuz qilamiz.



*(Tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchilar "s" tovushini birgalikda talaffuz qiladilar.)*

**Tarbiyachi:** – "S" undosh tovush ekan. E'tiboringizni monitorga qarating unda "s" ishtirok etgan so'zlarning suratlari ko'rsatilgan. "S" tovushi so'z boshi da kelganda: savat, soat, svetofor, sariyog', surat, sakkiz, saqich.

"S" tovushi so'zning o'rtasida kelganda: Asad, misol, asal, qasr, kasal, masal.

"S" tovushi so'zning oxirida kelganda: atlas, havas, mis, kes.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, "s" tovushining bosma katta va kichik shakllarini ko'rib eslab qolamiz. Bilib qo'ying, tovushlar yozilganida biz ularni harf deb ataymiz. Harflar esa bosma va yozma shaklda bo'ladi, biz hozircha ularning bosma shaklini o'rganamiz. Hozir katta "S" harfining yozilishini ko'rsatib beraman.

*(Tarbiyachi doskaga harfning yozilishini ko'rsatib beradi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi esa sizlar bilan "teskarisini top" o'yinini o'ynaymiz. Men bitta so'z aytaman, sizlar uning ma'no jihatidan teskarisini to'pishinglar kerak. Masalan, issiq-sovuq.

Baland – ... (past)

Uzun – ... (qisqa)

Keng – ... (tor)

Katta – ... (kichik)

Chiroyli – ... (xunuk)

Oq – ... (qora)

Achchiq – ... (shirin)

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, endi menga "s" tovushi ishtirok etgan so'zlar qatnashgan gap aytib beringlar.

**4-bola:** – Salim soatini taqib oldi.

**5-bola:** – Devorda soat osilib turibdi.

**6-bola:** – Buvim sumalakni yaxshi ko'radilar.

**7-bola:** – Suvni isrof qilmaslik kerak.

**8-bola:** – Sunnat sartarosh bo'lishni xohlaydi.

**Tarbiyachi:** – Qoyil, bolajonlar, sizlar men o'ylaganimdan ham ko'ra topqir-roq ekansizlar. Endi "bo'ri quyonni quvlab yuribdi" o'yinini o'ynaymiz. Hammamiz o'rnimizdan turib olamiz. Qizlar – quyon, o'g'il bolalar esa bo'ri rolida bo'ladilar. Bo'ri quvlayapti, quyon qochyapti, quyonlar bir-biriga qarab "tsss-tsss-tsss" deb sekin-sekin yuradilar. Uch qadam tashlaymiz, to'xtaymiz, "tsss-tsss-tsss".

Endi bo‘rilar quyon, quyonlar bo‘ri ro‘liga kiradilar. Xatti-xarakatlarimiz ham xuddi quyon va bo‘rilarni eslatadi. Qani, quyonvoylar, bir-birimizni ogohlantiramiz: tsss-tsss-tsss-tsss.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, endi ”s“ tovushi ko‘p ishtirok etgan Mirtemirming ona haqidagi she‘rini sizlarga o‘qib beraman.

Alisherga alla aytib uxlatgan

Sen – ona.

Og‘ushida Bobur kamolga yetgan

Sen – ona.

Torobiyni og‘ir jangga jo‘natgan

Sen – ona.

Olamni nurida munavvar etgan

Sen – ona.

Yig‘lasa, dunyoni raso titratgan

Sen – ona.

Kulgisi saodat parvarish etgan

Sen – ona.

Daholar beshigin bedor tebratgan

Sen – ona.

Mehri bahorida elni yashnatgan

Sen – ona.

Yagona o‘g‘lingni jo‘natding jangga,

Bo‘l bardam, ona.

Onaday oshiq yo‘q ona Vatanga,

Muhtaram ona.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bu she‘rda qaysi so‘z ko‘p ishlatilgan?

*(Bolalar javoblari tinglanadi.)*

**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri javob berdinglar, endi mana bu savollarga javob beringlar.

”S“ tovushi so‘z boshida keladigan so‘zlarga misol toping.

”Sarimsoq“ so‘zida nechta s tovushi bor ekan?

”S“ tovushi unli ekanmi yoki undosh?

# "S" HARFI DIDAKTIK O'YINLARI

**"MOYCHECHAK"** O'yinning maqsadi: "S" tovushini ochiq va yopiq bo'g'nlarda to'g'ri va aniq talaffuz etishga o'rgatish. O'yinning borishi: Bolalar doira shaklida o'tiradilar. Doiraning o'rtasida bitta bola turadi. O'rtada turgan bola "S" tovushini ifodalaydi va qoqigulning markazi hisoblanadi. Qolgan bolalarga tarbiyachi unli tovushlarni taqsimlaydi, ular qoqigulning oq gullaridir. Tarbiyachi o'yinimiz boshlandi, deganda "S" tovushi, ya'ni markazdagi bola oq gullarga – unli harflarning yoniga birma-bir boradi. Bunda bolalar hosil bo'lgan bo'g'nlarni o'qishadi. "sa, so, si, su, se".

So'ngra bolalar o'rin almashishadi. Har bir bola "S" tovushini ifodalashi zarur.

**"DO·KON"** O'yinning maqsadi: "S" tovushini so'zlarda aniq va to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish. O'yinning borishi: Tarbiyachi stol ustiga "S" tovushi ishtirok etgan o'yinchoq yoki rasmlarni qo'yadi va bolalarni navbat bilan chaqiradi. Bolalar do'konga kelib istagan o'yinchoqlarini xarid qiladilar. Uni o'rtoqlariga ko'rsatib turib, nomini baland ovoz bilan "S" tovushini cho'zibroq aytadilar.

Masalan: soat, sovun, sandiq, kosa, doska, gilos, avtobus. Bolalardan so'zlarni talaffuz qilganlarida bo'g'nlarga ajratib talaffuz qilish so'raladi. "S" tovushi so'zning boshida, o'rtasida, oxirida kelishiga misol bo'ladigan so'zlar tahlil qilinadi.

**"BILAG'ON"** O'yinning maqsadi: "S" tovushi ishtirok etgan so'zlar bilan yaqindan tanishish, harfning so'z boshi, o'rtasi va oxirida kelishini tahlil qilishga o'rgatish.


O'yinning borishi: Tarbiyachi bolalarga aralash rasmi kartochkalarini tarqatadi.

Unda turli predmetlar tasvirlanadi: sichqon, taroq, avtobus, uy, doska, sabzi, gul,

gilos, sigir, svetofor, asal. Bolalar o'yinning birinchi bosqichida kartochkadagi

rasmlardan "S" harfi ishtirok etgan rasmlarni belgilashi kerak bo'ladi. O'yinning ikkinchi bosqichida esa shu belgilangan rasmlarni ifodalovchi so'zlar

ishtirokida gaplar tuziladi. Tarbiyachi gaplardan bog'lanishli matn tuzishga bolalarni yo'naltiradi.



# “ H ” TOVUSHI VA HARFI

## **Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** bolalarga ”h“ tovush va harfini tanishtirish, ”h“ tovushining soʻz boshida, oʻrtasida va oxirida kelishi mumkinligini oʻrgatish;

**Tarbiyaviy:** tarbiyalanuvchilarni oʻzaro guruh boʻlib ishlashga oʻrgatish, ularda bir-birlariga yordam berish koʻnikmasini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarning mayda motorikasini rivojlantirish yordamida ularning nutqini oʻstirish, soʻz boyligini oshirish, tasavvurini kengaytirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, ”H“ harfi yozilgan kartochkalar, ”h“ tovushi ishtirok etgan predmetlar suratlari.

## **Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening qadrdon tarbiyalanuvchilarim. Bugungi ta’limiy faoliyatimizda biz ”h“ tovushi va harfi haqida suhbatlashamiz. ”H“ tovushi boʻgʻizda hosil qilinadigan, sirgʻaluvchi jarangsiz tovushdir. H tovushi soʻzning boshida ham: handalak, hosil; soʻzning oʻrtasida ham: ahil, mahmadona; soʻzning oxirida ham: solih, guvoh ham uchrashi mumkin. Bu tovush asosan arab va fors tillaridan oʻzlashgan soʻzlarda uchraydi. Qani, hammamiz birgalikda ”h“ tovushini talaffuz qilaylik.

*(Bolalar va tarbiyachi birgalikda ”h“ tovushini talaffuz qiladilar.)*

**Tarbiyachi:** – Endi ”h“ tovushini unlilar bilan birgalikda oʻqib koʻramiz: ha, ho, hu, hi, he, hoʻ.

**Tarbiyachi:** – Endi esa hammangiz stolingiz ustida turgan suratlarga qarang va ularning nima ekanligini ayting. Men har biringizning stolingiz ustiga ”h“ tovushi ishtirok etgan narsalar suratlarini qoʻyganman.

*(Bolalar handalak, hassa, hasip, haykal, timsoh, harflar, huquqshunos kabi soʻzlarni aytadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ”h“ tovushi katta va kichik shaklda yoziladi. Tovush yozilganida biz uni harf deb ataymiz. Men sizlarga hozir ”h“ harfini bosma shaklda yozib koʻrsataman.

*(tarbiyachi doskaga "h" harfini yozib ko'rsatadi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, qani, sizlar ham sanoq cho'plar yordamida doskadagi harfga qarab o'zingiz "h" harfini hosil qilib ko'ringlar-chi.

*(Bolalar sanoq cho'plar yordamida "h" harfini yasaydilar.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, sizlar bu harfni chiroyli yasay oldinglar. Endi mana bu topishmoqlarga javob topinglar.

Boradi, boradi

Tangaday joyni oladi. (Hassa)

Ko'zga ko'rinmas,

Qo'lga tutilmas. (Havo)

Bola kelar, bola kelar,

Ilk mehr ola kelar,

Silab-silab daraxtlarga

Guldan marjon taqa kelar. (Bahor)

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bu topishmoqlarni bejiz tanlamadim. Ularning har birida "h" tovushi ishtirok etgan. Endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazib olsak.

O'ng qo'limda besh barmoq,

Chap qo'limda besh barmoq.

Ikkalasi o'n barmoq,

Menga yordamchi quvnoq.

*(Bolalar tarbiyachi harakatlariga qarab qo'llarini harakatlantiradilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, kelinglar sizlar bilan birga o'yin o'ynaymiz. Men so'zlar aytaman, agar uning tarkibida "h" tovushi bo'lsa, qarsak chalasizlar. Agar "h" ishtirok etmasa, qarsak chalmaysizlar.

Ahil, tarvuz, aholi, quloq, hassa, hovuch, qoshiq, keng, timsoh, guvoh, delfin, quvvat, aqlli, muhtasham, hurmatli, hakam, qalin, cho'mich, qarmoq, ahvol, novvot, ovqat, mahtal, muhim.

*(Bolalar tarbiyachi so'zlariga qarab yoki qarsak chaladilar yoki jim o'tiradilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugungi ta'limiy faoliyatda nimani o'rgandik?

"H" tovushi ishtirok etgan so'zlarga misollar keltiring.

"H" tovushini harfda ifodalaganimizda qanday shakllarda bo'lar ekan?

# ”H“ HARFI DIDAKTIK O‘YINLARI

## ”QAYSI HARF TUSHIB QOLGAN?“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarda diqqat va xotirani rivojlantirish.

Tarbiyachi ushbu so‘zlarda qaysi harf tushib qolganini toping va uni joyiga qo‘ying, deb topshiriq beradi. Bolalar nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan harfni topib joyiga qo‘yadilar.

...OLVA, ...OVLI, ...UNAR, ...OZIR, ...AYKAL, ...AYDOVCHI, ...AYVON, ...ASSA.

## ”ORTIQCHA SO‘ZNI TOP“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish.

Tarbiyachi ”h“ harfi ishtirok etgan so‘zlarga misollar aytadi, ularning ichida ”h“ harfi qatnashmagan so‘z qaysi ekanligini bolalar topishlari kerak.

Aholi, hissa, hayajon, uchuvchi.

Hazil, his, tikuvchi, hiyla.

Hisob, satarosh, hid, hayot.

Sotuvchi, hayvon, hazin, hayqirmoq.

## ”KIM ZUKKO?“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarda topqirlikni rivojlantirish.


Tarbiyachi ketma-ket so‘zlar o‘qiydi, bolalar agar unda ”h“ harfi ishtirok etgan bo‘lsa qarsak chaladilar, yo‘q bo‘lsa chalmaydilar.

Tarbiyachi hayf, hayhot, kibr, hayit, kamtar, hofiz, havas, hasrat, ziyo, ham-mom, hojat, o‘qish, haqiqat kabi so‘zlarni o‘qib beradi.

## ”UCH SO‘Z AYT“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** tarbiyalanuvchilarning ”h“ harfi va tovushi haqida o‘tilgan bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin shartiga ko‘ra, bolalar uchtdan ”h“ harfi qatnashgan so‘zlarni aytishlari kerak. Bir bola aytgan so‘zni ikkinchisi takrorlamaydi. O‘yinda tezkorlik talab etiladi, kim uchta so‘z topolmasa, navbat keyingi ishtirokchiga beriladi.





# “Sh” TOVUSHI VA HARFI

## **Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** ”Sh“ harfi bilan tanishtirish, uning talaffuzini o’rgatish, undosh tovush ekani haqida ma’lumot berish;

**Tarbiyaviy:** tarbiyalanuvchilarda o’zaro guruh bo’lib ishlash ko’nikmasini shakllantirish, ularga o’zaro hurmatni o’rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarda mayda motorikani rivojlantirish, ularning diqqatini, xotirasini o’stirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, ”sh“ harfi ishtirok etgan so’zlar suratlari.

## **Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening qiziquvchan bolajonlarim. Bugungi ta’limiy faoliyatimizda biz ”sh“ tovush va harfi haqida suhbatlashamiz. Hozir esa mana bu topishmoqqa javob beringlar-chi.

Yum-yumaloq, oy emas,  
Sap-sarig’-u, moy emas.  
Dumi ham bor, toy emas.

**1-bola:** – Bu sholg’om.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonim, bu topishmoqning javobi, haqiqatan ham, sholg’om.

Qani, bolalar, yana kim ”sh“ harfi ishtirok etgan so’zlarni biladi?

**2-bola:** – Shaftoli, sho’rva, shamol, sho’rdanak, shkaf, sharshara.

**Tarbiyachi:** – Qoyil, sen ”sh“ tovushi ishtirok etgan so’zlarni bir zumda aytib berding. Endi esa bolajonlar, diqqat qiling, men ”sh“ undosh tovushini talaffuz qilaman.

*(Tarbiyachi ”sh“ tovushini talaffuz qiladi, monitorda ”sh“ harfi surati qo’yilgan bo’ladi.)*

**Tarbiyachi:** – ”Sh“ tovushi talaffuzida lablar aylana shaklida va oldinga biroz chiqqan, tishlar bir-biriga yaqinlashadi. ”Sh“ tovushi talaffuzi jarayonida

havo oqimi og‘iz orqali o‘tib ketadi, tovush jaranglamaydi. Qani, hammamiz ”sh“ tovushini birgalikda talaffuz qilib ko‘ramiz.

*(Tarbiyachi va bolalar ”sh“ tovushini talaffuz qiladilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ”sh“ tovushi so‘z boshida, so‘z o‘rtasida va so‘z oxirida ham kelishi mumkin. Misol uchun, shamol, shovqin, shira, shabada kabi so‘zlarda so‘z boshida, toshbaqa, ashula kabi so‘zlarda so‘z o‘rtasida, osh, qish, kurash kabi so‘zlarda so‘z oxirida keladi.

”Sh“ tovushini cho‘zib talaffuz qilib bo‘lmaydi.

Qani, bolajonlar, diqqatingizni monitorga qarating, u yerda ”sh“ harfining bosma shaklda katta va kichik ko‘rinishi ko‘rsatilgan. Bu harf ham xuddi boshqa harflar singari o‘qiladi, ko‘riladi va eshitiladi. Endi ”sh“ harfini unli harflar bilan qo‘shib o‘qib ko‘ramiz.

Sha, sho, shi, she, shu, sho‘.

*(Tarbiyachi va bolalar jo‘r bo‘lib qaytaradilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi tezkor savol javoblarga javob beringlar. Diqqat qiling, har bir savolim javobida albatta ”sh“ harfi ishtirok etgan bo‘ladi.

Tana a‘zosi. (Bosh)

O‘rmon podshohi. (Sherxon)

Ikki qanoti bor, uchadi. U nima? (Qush)

Guruch, sabzi, go‘sht solib tayyorlanadigan milliy taom. (Osh)

Dangasa nimadan qochadi? (Ish)

Unga kiyimlarimizni taxlab qo‘yamiz. U nima? (Shkaf)

Ustida toshi bor, sekin yuradi. U nima? (Toshbaqa)

”Sh“ harfi bilan boshlanadigan sabzavot nomi. (Sholg‘om)

Bosh harfi ”sh“ bilan boshlanadigan meva nomi. (Shaftoli)

**Tarbiyachi:** – Qoyil, bolajonlar, sizlar savollarimga juda tez javob berdinglar. Qani, endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazib olamiz.

Sherxondek gerdaymagin,

Mushukday pismaymagin,

Doim bo‘lgin sen kamtar,

Xushmuomala va abjir.

*(Bolalar tarbiyachi ko‘rsatgan harakatlarni qaytaradilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi esa sizlar bilan qumda ”sh“ harfini yozamiz.

*(Bolalar tarbiyachi ko‘rsatganiga qarab qumda ”sh“ harfini chizadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi esa sizlarga shkaf haqida ertak aytib beraman. Bu ertakni Nasiba Erxonova degan ijodkor opangiz yozgan. Demak, diqqat bilan eshitamiz.

## SIRDOSH SHKAFCHA

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, mo‘juzgina uychada shkaf yasharkan. Shkaf juda eski bo‘lishiga qaramay, u sifatli yog‘ochdan yasalgani uchun mustahkam va bejirim ekan. Shkafcha atrofida boshqa mebellar yo‘qligi uchun zerikarkan va shu xonadonda yashaydigan Olimjon bilan sirlasharkan. Uning ko‘ngli ochiq va rahmdil bo‘lgani uchun Olimjon xafa bo‘lsa kuyunarkan, xursand bo‘lsa sevinarkan.

Bir kuni Olimjon ko‘chadan xomush kirib kelibdi. Shkafcha buning sababini so‘ragan ekan, o‘rtog‘i uni nohaq xafa qilganini aytibdi. Shunda shkafcha Olimjonni yupatib, do‘sti bir kuni xatosini tushunib yetishini aytibdi.

– Sen bu ko‘ngilsizlikni esingdan chiqar va do‘stingning yaxshi xislatlari haqida o‘yla, shundagina uni kechirishing oson bo‘ladi, – debdi shkafcha.

Olimjon sirdoshining aytganlarini qilgan ekan, haqiqatan, do‘stini kechirishi oson kechibdi.

Shunday kunlarning birida Olimjonning otasi uyga eski shkaf o‘rniga yangisini olib kelmoqchi ekanligini aytibdi. Shu zahoti Olimjon otasidan iltimos qilibdi:

– Dadajon, uyimizdagi shkaf menga juda yoqadi, keling, uni bo‘yab, ta‘mirlab yangidek qilib qo‘yamiz, – debdi.

Sirdoshining qiyin vaziyatda himoya qilganidan shkafcha mamnun bo‘libdi va bir sakrab qo‘yibdi. Ustalar kelib shkafchani ta‘mirlyotgan paytda ham Olimjon parvona bo‘libdi. Ularga yordam beribdi. Bir zumda yangi holatga kirgan shkafcha Olimjonga rahmat aytibdi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ertak sizlarga yoqdimi?

*(Bolalarning fikrlari tinglanadi.)*

**Tarbiyachi:** – Endi mana bu savollarga javob toping.

”Sh“ harfi bilan boshlanadigan so‘zlarga misollar ayting.

”Sh“ unli harf ekanmi yoki undosh?



# ”Sh“ HARFI

## DIDAKTIK O‘YINLARI

### ”DAVOMINI O‘ZING AYT“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish, ularning tasavvuri-ni shakllantirish.

Tarbiyachi so‘zlarning yarmini aytadi, bolalar esa qolgan yarmini o‘zlari topib, so‘zni to‘liq aytishlari kerak.

SHA-MOL (Shamol)  
SHA-FAQ (Shafaq)  
SHAF-QAT (Shafqat)  
SHAF-TOLI (Shaftoli)  
SHA-HAR (Shahar)  
SHA-KAR (Shakar)  
SHAR-BAT (Sharbat)  
SHA-G‘AL (Shag‘al)  
SHI-MOL (Shimol)  
SHI-NAM (Shinam)

### ”O‘ZING GAP TUZ“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish, ularning so‘z boyligini oshirish.

Tarbiyachi so‘zlar aytadi, bolalar ana shu so‘z ishtirokida gap tuzishlari kerak.

Tarbiyachi quyidagi so‘zlarni o‘qishi mumkin:

Shamol, shisha, shkaf, shira, shoir, shirinso‘z, shashka, shinam, sholcha, shavla, sharf, shaftoli, shijoat, shifo, sherik, shaxdam, shavq, shalabbo, shapka, shamdon.

## ”KIM ZIYRAK?“ O‘YINI

*O‘yinning maqsadi:* bolalarning so‘z boyligini oshirish, ularning nutqini rivojlantirish.

O‘yin shartiga ko‘ra, tarbiyachi bitta so‘z aytadi, bolalar esa shu so‘z yakuni qaysi harf bilan tugasa, ana shu harf bilan boshlanadigan boshqa so‘z aytishlari kerak. Kim yigirma soniya ichida javob topolmasa, o‘yindan chiqadi.

Misol uchun, shokolad – dono – omad – dala – ashula – ashaddiy – yo‘lbars – soat – tosh – shvabra – achchiqtosh – sho‘r – ravon – no‘xot – turshak – karam – mosh – sho‘rva – ananas – savat.



# “ P ” TOVUSHI VA HARFI

## **Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** tarbiyalanuvchilarni ”p“ tovushi va harfi bilan tanishtirish hamda to’g’ri talaffuz qilishga o’rgatish, lug’at boyligini oshirish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarning fikrlash qobiliyatini o’stirish, qo’l motorikasini rivojlantirish, harf va tovushlarni farqlash ko’nikmasini mustahkamlash;

**Tarbiyaviy:** guruhda ishlash, bir-birini eshitish va tushunish ko’nikmalarini shakllantirish. Diqqatini bir joyga jamlashiga, yangi bilim olishga bo’lgan ishtiyoqini oshirishiga yordam berish.

**Ta’limiy faoliyat jihozi:** ”Harf xaltasi”, harf tasmasi, kesma harflar, mavzuga mos rasmlar.

## **Ta’limiy faoliyatning borishi:**

*(Bolalar bilan yil fasllari, hafta kunlari haqida qisqacha suhbat uyushtiriladi. Avvalgi darsda o’tilgan tovush va harflar takrorlanadi. Harf tasmasidan bolalar o’tilgan harflarni o’qiydilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugun ”p“ tovushi va harfini o’rganamiz. Marhamat, shu harf bilan boshlanadigan so’zlarni eslang va aytinglar-chi.

*(Bolalar javoblari tinglanadi.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, sizlar bu harflar qaysi so’zlarda ishtirok etishini ajrata oldingiz. Yana mana bu so’zlarda ham shu harf ishtirok etgan:

paket, palov, parda, parta, pasport, pechka, pianino, pechene, pirog, piyola, piyoz, pichoq, pomidor.

**Tarbiyachi:** – Endi diqqatingizni monitorga qarating, unda ”p“ harfining kesma shakli qanday yozilishini kuzating.

**Tarbiyachi:** – Hozir ”so’zdan tovushni ajratib ol“ o’yinini o’ynaymiz.

*(Bolalar diqqati doskada ilingan pilla rasmiga jalb qilinadi. Ular ”Pilla” so’zini butunligicha va bo’g’inlarga bo’lib talaffuz qilishlari kerak.)*

**Tarbiyachi:** – Pilla so’zi nechta bo’g’indan iborat?

**Bolalar:** – Pilla so’zi ikki bo’g’indan iborat.

**Tarbiyachi:** – Bu so‘zda nechta tovush va harf bor?

*(Tarbiyachi doskada pilla so‘zining andozasini chizadi, unli va undosh tovushlar tahlil qilinadi.)*

**Tarbiyachi:** – Endi, mana bu oyna qarshisiga kelamiz va ”p“ tovushini talaffuz qilamiz.

*(Bolalar tarbiyachi bilan birgalikda oynaga qarab p tovushini talaffuz qiladilar.)*

### **Dam olish daqiqasi**

Boqqa kirsam olmalar,

Qip-qizarib pishibdi.

Silkitibdi shamollar,

Yerga to‘p-to‘p tushibdi.

### **”Bo‘g‘in tuzish“ o‘yini**

Bolalar tarbiyachi boshchiligida unli harflar bilan ”p“ tovushidan foydalanib, bo‘g‘inlar tuzadilar: po, pa, pi, pu, po‘.

*(Bo‘g‘inlarni avval tarbiyachi o‘qib beradi, keyin navbat bilan bolalar o‘qiydilar. Shu o‘rinda bo‘g‘inlar ishtirokida so‘zlar tuzish topshirig‘i beriladi. Bolalar ”pilla”, ”parta”, ”posbon“ kabi so‘zlarni aytadilar.)*

### **”So‘z tuzish“ o‘yini**

**Tarbiyachi:** – Avval uch guruhga bo‘linib olamiz. Men doskaga suratlarni osaman. 1-guruh ”ko‘prik”, 2-guruh ”patir”, 3-guruh ”ipak“ so‘zlarini sanoq cho‘plardan foydalangan holda kesma harflardan foydalanib yozishadi.

*(Bolalar ”p“ harfi so‘zning qayerida kelayotganini aniqlaydilar.)*

**Tarbiyachi:** – Endi ish daftarimizni olamiz va pilla shaklini nuqtalarni birlashtirgan holda hosil qilamiz.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi ”P p“ tovushini aniq va tiniq talaffuz qilishni o‘rganish uchun tez aytishni takrorlaymiz:

Po‘choqsiz piyoz xo‘p achchiq.

Paxta gulli piyola polga tushdi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, eng ko‘p aytgan do‘stlarimizni chapak chalib o‘qishlaymiz.

**Tarbiyachi:** – Endi esa mana bu suratda nima tasvirlanganini ayting.

*(Paxta surati ko‘rsatiladi.)*

**Tarbiyachi:** – Paxta soʻzini chapak chalgan holda boʻgʻinlarga ajratamiz.  
(*Bolalar pax-ta soʻzini aytib, ikki marta chapak chalgan holda boʻgʻinga ajratishadi.*)


**Tarbiyachi:** – Endi esa javobi ”p“ harfi ishtirok etgan topishmoqlardan ayta-man, qani oʻylab koʻring-chi.

Pishirsa osh boʻlar, pishirmasa qush. (Tuxum)

Qorday oppoq, yungday yumshoq. (Paxta)

Uni sira qurt demang, egningizga zeb boʻlar. (Pilla)

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bugungi oʻrgangan harfimiz ishtirokida uyda ham soʻzlar topib keling.





# "P"

## " HARFI

### DIDAKTIK O'YINLARI

#### "SO'ZLAR ZANJIRI" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** tarbiyalanuvchilarning "p" tovushi va harfi bo'yicha o'tilgan bilimlarini mustahkamlash.

Tarbiyachi bolalarga suratlar tarqatadi. Bolalar suratlar orasidan "p" harfi ishtirok etgan so'zlarni doskaga olib chiqib, predmetlar nomlarini aytishi kerak.

Bolalar parta, piyoz, paxta, pingvin, pul, po'lat, poyabzal, pidjak, pianino, pi-jama, pirog, pirojniy, pista, pichan, pichoq suratlarini ko'rsatib, ularning nomini aytib beradi.

#### "KIM TEZ JAVOB BERADI?" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** bolalarni topqirlikka o'rgatish.

Tarbiyachi topishmoqlar aytadi, kim tez va to'g'ri javob bersa, shu bola g'olibt deb topiladi.

Past-past bo'yi bor,  
Yetti qavat to'ni bor. (Piyoz)

Uyga osdik bitta nok,  
Yop-yorug' bo'ldi har yoq. (Lampochka)

Cho'zilib yotar narvon,  
Undan o'tar uy-karvon. (Temir yo'l, poezd)

Yozda toycha,  
Qishda xurjun. (Velosiped)

Tarvuzim bor urug'siz,  
Pichoq bilan kesilmas.

Kesganingda ham uni  
Maza qilib yeb bo'lmas. (Koptok)

### "TEZROQ AYT" O'YINI


**O'yinning maqsadi:** bolalarni topqirlikka o'rgatish, ularning so'z boyligini oshirish.

Tarbiyachi va bolalar doira qurib turib oladilar. Tarbiyachi koptokni bitta bolaga otarkan, "p" harfi ishtirok etgan so'z aytadi, koptokni ilib olgan bola ham "p" harfi qatnashgan so'z topishi kerak. O'yin shu tariqa davom etadi, kim "p" harfi ishtirok etgan so'z topolmasa, unda o'yinni tark etadi.

### "KIM ZUKKO?" O'YINI

**O'yinning maqsadi** – bolalarda diqqat bilan tinglash qobiliyatini rivojlantirish.

O'yin shartiga ko'ra, tarbiyachi "p" harfi ishtirok etgan va etmagan so'zlarni o'qiydi. Bolalar esa "p" harfi bor so'z eshimsalar qarsak chaladilar, agar bu harf ishtirok etgan so'z bo'lmasa chapak chalmasliklari kerak.



# “ Q ” TOVUSHI VA HARFI

## **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarga "q" harf va tovushi haqida ma'lumot berish, "q" undosh harfining bosma shaklini ko'rsatish, ushbu harf ishtirok etgan so'zlarni o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda o'zaro hurmat va ehtirom tuyg'ularini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** mayda qo'l motorikasini rivojlantirish, bolalarni topqirlikka o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, nomlarida "q" harfi ishtirok etgan narsalar suratlari, ip.

## **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening sevimli bolajonlarim! Bugun sizlar bilan "q" undosh tovushi haqida suhbatlashamiz. Bolajonlar, "q" undosh tovushini men talaffuz qilaman, sizlar esa takrorlaysizlar.

*(Tarbiyachi "q" tovushini talaffuz qilib beradi, bolalar undan keyin talaffuz qiladilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi esa "q" harfiga unilarni qo'shib birgalikda talaffuz qilib ko'ramiz.

Qa, qo, qu, qi, qe, qo'.

**Tarbiyachi:** – "Q" harfi ham so'z boshida qalam, qosh, qora, so'z o'rtasida ham aql, aqcha, so'z oxirida ham bo'yoq, sariq kelishi mumkin. Qani, endi men bir nechta topishmoqlar aytaman, sizlar uning javobini aytinglar-chi.

Ichi bo'yoq, sirti tayoq. Bu nima? (Qalam)

O'zi bitta, qulog'i to'rtta. (Qozon)

Joni yo'g'-u, uy poylar. (Qulf)

Uzoq tog'da o't yonar. (Quyosh)

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi diqqatingizni monitorga qarating, unda ”q“ harfi ishtirok etgan narsalar surati ko‘rsatiladi. Sizlar esa ularning nomlarini aytib berishingiz kerak.

*(Bolalar qarq‘a, quyon, qurbaqa, qosh, quloq, qovun, qizil kabi so‘zlarni aytadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ”q“ harfi ham xuddi boshqa harflar kabi bosma shaklda katta va kichik ko‘rinishda bo‘ladi. ”Q“ ni ham boshqa harflardek ko‘rishimiz, o‘qishimiz va yozishimiz mumkin. Hozir men sizlarga uning yozi-lishini doskada yozib ko‘rsatib beraman.

*(Tarbiyachi ”q“ harfini yozib ko‘rsatadi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir sizlar bilan amaliy ish bajaramiz. Har biringizning oldingizdagi stolga ip qo‘yilgan, qog‘ozga esa ”q“ harfi qora chiziqda chizib ko‘rsatilgan. Siz ip yordamida ana shu chiziq-larni tartib bilan birlashtirib chiqing, bu mashq ham barmoqlarimizni yozuvga tayyorlaydi, ham ”q“ harfi-ning ko‘rinishini xotiramizda muhrlaydi.

*(Bolalar tarbiyachi yordamida ”q“ harfini ip bilan yasab ko‘radilar.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, endi esa sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz.

Qara, qormim katta der,

Ayiqpolvon qorayib.

Qo‘rqma, senga tegmayman,

Mehribonman, der kulib.

*(Tarbiyachi xuddi ayiqpolvondек yuradi, bolalar uning harakatlarini takror-laydilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi sizlar bilan ”q“ harfiga mos so‘zlar topish o‘yini-ni o‘ynaymiz. Hammamiz birma-bir ”q“ harfi ishtirok etgan so‘zlardan misollar topamiz.

*(Bolalar, qulf, qalampir, qand, qamish, qanot, qand qurs, qandil, qafas kabi so‘zlarni aytadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Qoyil, o‘zimning zukko bolajonlarim. Endi esa shoir Dilshod Rajabning ”Saf“ qo‘shig‘i she‘rini sizlarga o‘qib beraman. Sizlar diqqat bilan eshitinglar va she‘rdagi ”q“ harfi ishtirok etgan so‘zlarni menga aytib berasizlar.

## SAF QO‘SHIG‘I

Dilshod Rajab

Qani, qadam tashladik,

Dadil yurish boshladik.

Shaxdam bos, olg‘a, do‘stim,

Qatordan qolma, do‘stim!

Bir, ikki, uch, deymiz,

Qaynab-toshar kuch, deymiz.

Dovonlardan o‘tamiz,

Manzillarga yetamiz,

Birga yursak, bir bo‘lsak,

Tog‘ni talqon etamiz.

Bir, ikki, uch deymiz,

Qaynab-toshar kuch, deymiz.

Yo‘limiz tik, ravondir,

Hur kelajak tomondir.

Bizga kuch-sabot bergan

Ozod O‘zbekistondir!

Bir, ikki, uch, deymiz,

Qaynab-toshar, kuch, deymiz.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, qani, kim aytadi, she‘rda ”q“ harfi ishtirok etgan so‘zlar qaysi?

*(Bolalar qaynar, qani, qadam, qator, talqon kabi so‘zlarni aytadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, endi esa mana bu savollarga javob beringlar.

”Q“ harfi unli ekanmi yoki undosh?

”Q“ harfi so‘zning o‘rtasida ishtirok etgan so‘zlarga misollar ayting.



# ”Q“ HARFI DIDAKTIK O‘YINLARI

## ”QIZIL OQ“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** tarbiyalanuvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, ularda e‘tiborli bo‘lish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Tarbiyachi har bir bolaga oq va qizil rangdagi kartochkalarini tarqatadi. Bolalar tarbiyachi ”q“ harfi qatnashgan so‘z o‘qisa, oq rangli kartochkani, ”q“ harfi qatnashmagan so‘z o‘qisa, qizil rangli kartochkani ko‘rsatishlari kerak.

Tarbiyachi quyidagi so‘zlarni o‘qishi mumkin:

Qirov, qish, aql, mehr, qistov, varrak, qizil, fartuk, qissa, tarvuz, qisqa, soat, sabab, qir, va‘da, qimmat, cho‘mich, qog‘oz, yo‘lbars, qisqich, qisqartma, qurt, tovon, qachon, qirg‘iy, qirg‘iz va h.k.

## ”OXIRINI O‘ZING TOP“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish.

Tarbiyachi so‘zlarning yarmini o‘qiydi, yarmini esa bolalar o‘zlari topib, so‘zni to‘liq aytishlari talab etiladi.

Misol uchun, qar-(moq), qay-(moq), qal-(qon), qal-(poq), qa-(dam), qa-(lam), qa-(mish), qay-(chi), qa-(ri), qa-(tiq), qah-(va), qa-(yiq), qa-(zi), qi-(lich), qi-(rov), qir-(ra), qiy-(shiq)

## ”TEZROQ AYT“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish, ularning so‘z boyligini oshirish.

Tarbiyachi bolalarga savol beradi, bolalar esa savollarga tez javob topishlari kerak.

Kuzdan keyin keladigan fasl nima? (Qish)

Oq rangda, moshxo'rdaga solinadigan suyuq ichimlik. (Qatiq)

Chapakni yana qaysi so'z bilan aytishimiz mumkin? (Qarsak)

Tana a'zosi, uning yordamida biz ovozlarni eshitamiz. (Quloq)


"Q" harfi bilan boshlanadigan rang nima? (Qizil)

Qishda kiyiladigan bosh kiyimi nima? (Qalpoq)

Keksa, yoshi katta odamni yana qanday deb atash mumkin? (Qari)

Achchiq, qirq og'ayni degan nomi bor, u nima? (Qalampir)

Bu ish mushkul, ososnmas so'zini yana nima deyishimiz mumkin? (Qiyin)



# “Ch” TOVUSHI VA HARFI

## **Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** tarbiyalanuvchilarda “ch” tovushi va harfi haqida bilim, ko‘nikma hosil qilish, harf birikmasi haqida tushuncha berish, “ch” harfi qatnashgan so‘zlarni tahlil qilishga o‘rgatish, “ch” harfining kesma shaklda yozilishini o‘rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarning o‘qishga va yozishga, bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda o‘zidan kattalarga hurmatda bo‘lish, tengdoshlari bilan birgalikda ishlash, savollarni tushunib, javob berish malakalarini tarbiyalash.

**Kerakli jihozlar:** rasmlar, ko‘rgazma, harf xaltasi, kesma harflar.

## **Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Ilmdan bir shu’la dilga tushgan on,  
Shundan bilursankim ilm bepoyon.

**Tarbiyachi:** – O‘tgan mashg‘ulotlarimizda qaysi tovushni o‘rgangan edingiz?

**Bolalar:** – “Q” tovushi bilan tanishgandik.

**Tarbiyachi:** – Qarmoq so‘zi necha bo‘g‘inli?

**Bolalar:** – Qar-moq, ikki bo‘g‘inli.

**Tarbiyachi:** – “Q” tovushini cho‘zib aytib bo‘ladimi?

**Bolalar:** – Yo‘q, chunki u undosh tovush.

**Tarbiyachi:** – “Q” harfini harf lentasidan ko‘rsating.

**Tarbiyachi:** – Qo‘lqop, qurbaqa so‘zlarini bo‘g‘inlarga ajratib aytib bering.

**Tarbiyachi:** – “Q” harfini talaffuz qiling

*(Birgalikda talaffuz qilinadi.)*

Hozir 3 guruhga bo‘linib olamiz.

1-guruh – “Zukkolar”

2-guruh – “Ch” harfli – “Chaqqonlar”,



3-guruh – "Sergaklar".

*(Guruh nomlariga qisqa izoh beriladi.)*

Doska 3 qismga bo'lib chiziladi.

*(Har bir guruhdagi bolalar guruh nomi boshlanadigan harfga misollar aytishadi. Kim ko'p so'z aytish o'yini o'tkaziladi.)*

Takrorlash orqali bolalar bilimlari mustahkamlanadi.

Bolalardan o'rganilgan harflar so'raladi, "Qoplon tez yugurdi" gapi kesma bo'g'inlar yordamida doskaga yozdiriladi va o'qitiladi.

Bolalar diqqati doskaga jalb qilinadi. Yangi mavzu e'lon qilinadi.

**Tarbiyachi:** – Mana bu rasmlarda nimalar tasvirlangan ekan?

**Bolalar:** – Choynak, chana.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi diqqatingizni monitorga qarating, "ch" harfining kesma shakli yozilishini o'rganamiz.

*(Videotasvir shaklidagi yozuv metodikasidan so'ng tarbiyachi bo'rdada doskaga yozib ko'rsatadi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, e'tibor berdingizmi, "ch" harfi ikkita belgidan hosil bo'ladi. Aytilishida bitta harfni talaffuz qilsak-da, yozuvda ikkita harf – "c" belgisi va "h" harfi birikmasi yordamida bitta harfni ifodalaymiz.

*(Takror-takror ikkita harf birikmasidan bitta harf hosil qilinishi tushuntiriladi.)*

**Tarbiyachi:** – Endi "Ch" tovushini talaffuz qilamiz.

*(Bolalar "ch" tovushini cho'zib aytib bo'lmasligini amaliy jarayonda tushunib olishadi.)*

O'rganilgan "ch" tovushining talaffuzi, bu tovushning yozuvdagi ifodasi tushuntiriladi.

**Tarbiyachi:** – Endi esa "Ch" harfi bilan boshlanadigan so'zlardan ayting.

Choy, cho'-mich, chol, cha-qa-loq, cha-na, chu-mo-li.

**Tarbiyachi:** – Endi mana bu rasmga qarang. Unda nimalar tasvirlangan ekan?

*(Rasm asosida suhbat o'tkaziladi. Rasmlarga qarab, ularning nomi katakchalarga yoziladi.)*

Chi-girtka, chu-mo-li.

Dam olish daqiqasi

Chuqur-chuqur nafas olib,

Charchoqlarni yengamiz.

Chaqqon-chaqqon harakatni

Ertalabdan qilamiz.

**Tarbiyachi:** – Endi ishchi daftaringizni oling, ”Ch“ harfining bosma shaklini nuqtalarni birlashtirgan holda hosil qiling.

Chumoliga boradigan yo‘llarni nuqtalar ustidan qalam yurgizib, birlashtiring.

**Tarbiyachi:** – Endi mana bu rasmlarga qarab, gap tuzishni o‘rganamiz.

Qorda chana uchamiz.

Chumchuq – kichkina qushcha.


”So‘zdan so‘z“ o‘yini

**Tarbiyachi:** – ”Ch“ qanday tovush ekan?

**Tarbiyachi:** – ”Ch“ harfi so‘z o‘rtasida va oxirida keladigan so‘zlarga misollar ayting.

**Bolalar:** – Achchiq, chumchuq, sochiq, kuchuk, bochka, ruchka.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bugungi harfni ham bilib oldik. Endi esa uyga borganingizda ota-onangiz va aka-opalaringiz yordamida ”ch“ harfiga misol bo‘la oladigan topishmoq, maqollardan o‘rganib keling.



# ”Ch“ HARFI DIDAKTIK O‘YINLARI

## ”BIRINCHI HARFINI TOP“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** tarbiyalanuvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish. Tarbiyachi so‘zlarni birinchi harfini tushirib o‘qiydi. Bolalar ushbu so‘zlarnin birinchi harfi o‘rniga qaysi harfni qo‘yish kerakligini aytadilar.

...UCHMOMA, ...O‘MICH, ...OY, ...ITTAK, ...IZIQ, ...OPON, ...UNON  
...UCHVARA, ...O‘L, ...O‘NTAK

## ”KIM TEZ AYTADI?“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarning so‘z boyligini oshirish, ularning nutqini o‘stirish.

Tarbiyachi topishmoqlar aytadi, bolalar esa uning javobini topishlari kerak.  
Bukdim,  
Quduqqa tashladim. (Chuchvara)

Chaynaladi, chaynaladi, yutilmaydi. (Saqich)

Ro‘parada turibdi,  
Yuzi dumaloq, lo‘ppi.  
Bir qulog‘i bor, bir burni  
Boshiga kiygan do‘ppi. (Choynak)

Nur buva,  
Ust-boshi kir buva. (Chiroq)

Ikki botir qilichlashar. (Qaychi)

Tili po‘lat shovvoz,  
So‘zlay olmas beqog‘oz. (Ruchka)

## ”O‘ZING AJRAT“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarni topqirlikka o‘rgatish.

O‘yin shartiga ko‘ra, tarbiyachi she‘r o‘qiydi, bolalar she‘rdagi ”ch“ harfi ishtirok etgan so‘zlarni topishlari kerak.

CHANGYUTKICH

Nasiba Erxonova

**Changyutkichim** ajoyib,

Filnikidek xartumi.

Bizni o‘ylab u doim,

**Chang** yutadi har kuni.

Ishtahasi karnaydir

Ushoq, qog‘oz, qoldiqqa.


Ko‘rdim demay yutadi,

Joy **ochadi** hordiqqa.

Bir **burchakda** tursa ham,  
Xizmatini bilaman.

Har kuni **chang** kirsam ham,

Tezda toza qilaman.





## “ J ” TOVUSHI VA HARFI

### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarga "j" tovushi va harfini tanitish, o'qish, unli, undosh tovushlarni ajratish ko'nikmasini rivojlantirish. "J" harfi ishtirok etgan so'z va gaplarni tahlil qilishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** mavzuga mos matn va topshiriqlarni tinglab, mustaqil bajarishga o'rgatish, bola so'z lug'atini "j" harfi ishtirokidagi so'zlar bilan boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish.

**Tarbiyaviy:** bolalarni "Jo'jalarim" she'ri orqali hayvon va jonivorlarga g'amxo'rlik ruhida tarbiyalash.

**Kerakli jihozlar:** "Tovush" tahliliy metodi, suhbat, musobaqa, "Iztopar" didaktik o'yini, "So'z top" o'yini, rasmi kartochkalar, AKT.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlarim, ayting-chi, tovushlarni nima qilamiz?

**Bolalar:** – Tovushlarni talaffuz qilamiz.

**Tarbiyachi:** – Harflarni-chi, ularni nima qilamiz?

**Bolalar:** – Harflarni yozamiz, ko'ramiz, o'qiymiz.

**Tarbiyachi:** – Unli harf va tovushlar nechta ekan?

*(Plakatli alifbodan tarbiyachi unli harflarni ko'rsatib turadi, bolalar talaffuz qilishadi.)*

**Tarbiyachi:** – O'rgangan harf va tovushlarimizni ayting.

*(Bolalar rasmi alifbo yordamida o'tilgan harflarni aytishadi.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bugun yana bir yangi harfni o'rganamiz. U qaysi harfligini topish uchun mana bu rasmdagilarning nomlarini topishingiz kerak.

*(Tarbiyachi jo'ja, jirafa, jurnal, jo'xori rasmlarini ko'rsatadi, bolalar ularning nomlarini topadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Demak, bugun qaysi yangi harfni o'rganar ekanmiz?

**Bolalar:** – "j" harfi va tovushini.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, "j" undosh harf, chunki u talaffuzda to'siqqa uchraydi. Marhamat, hammamiz jo'r bo'lib, "j" tovushini talaffuz qilamiz.

*(Bolalar tarbiyachi rahbarligida topshiriqni bajaradilar.)*

**Tarbiyachi:** – ”J“ harfining bosma shakli mana bunday yoziladi.

*(Tarbiyachi tuzli xamir (turli ranglar qo‘shilgan) asosida ”j“ harfining kesma shaklini yozib ko‘rsatadi.)*

**Tarbiyachi:** – Endi har biringiz o‘z oldingizdagi yelim doskachaga ”j“ harfini mana bu rangli xamirlar yordamida yozing.

*(Bolalarning harakatlarini tarbiyachi nazorat qiladi.)*

**Tarbiyachi:** – Ekranga qarang, ”j“ harfi ishtirokidagi bo‘g‘inlarni o‘qiyimiz.

Ja, jo, ji, ju.

Oj, aj, uj, ij.

**Tarbiyachi:** – Mana bu rasmda nima tasvirlangan ekan?

**Bolalar:** – Jo‘ja.

**Tarbiyachi:** – Ayting-chi, ”Jo‘ja“ so‘zida nechta unli va undosh harf bor?

**Bolalar:** – Ikkita unli va ikkita undosh harf bor.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi diqqatingizni ekranga qarating, unda ”Jo‘jalirim“ qo‘shig‘i qo‘yiladi va biz harakatli daqiqa sifatida musiqaga mos holda harakatlarni bajaramiz.

**Tarbiyachi:** – Hozir bir o‘yin o‘ynaymiz.

”Iztopar“ o‘yini

Yozuv taxtasiga so‘zlarning ba’zi harflari tushirib terib qo‘yiladi. Iztopar bola shu harfni ”Harf kassasi“dan topib, bo‘sh o‘ringa qo‘yadi.

On... , h... mo, ma... tab, bil... m, ki... ob, jo‘... a.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar endi, ish daftaringizni oling. Unda nuqtalarni birlashtirgan holda ”JO‘JA“ so‘zining harflarini hosil qiling va jo‘ja rasmini bo‘yang.

**Tarbiyachi:** – Bilag‘onlarim, endi diqqat qiling, ”j“ tovushini ikki xil talaffuz qilamiz, masalan, jirafa, jurnal so‘zlarida sirg‘aluvchi ”j“ tovushini talaffuz qil-sak, jahon, jo‘ja, jo‘xori kabi so‘zlarda portlovchi ”j“ tovushini talaffuz qilamiz. Ularni talaffuzda ikki xil aytsak-da, yozuvda bir xil harf bilan ifodalanadi.

*(Bolalarga ”J“ tovushining ikki turi ham so‘zlar yordamidagi misollar orqali tushuntiriladi.)*

**Tarbiyachi:** – Endi ekranga qarang, bo‘g‘inlarga bo‘lingan matnni birgalikda o‘qiyimiz.

Ja-sur jur-nal o‘-qi-di. Ja-sur ju-da a-jo-yib bo-la.

*(Matnni o‘qish jarayonida bo‘g‘inlarni to‘g‘ri o‘qishga e’tibor qaratiladi.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi sizlarga qiziqarli topishmoqlar aytaman, sizlar esa uning javobini topasiz.

Qopcha,  
Qopcha ichida uncha,  
Uncha ichida ustuncha. (Jiyda)


Osti sariq, usti sariq,  
Shirin, totli, ichi tariq. (Anjir)

Bo‘yi bir qarich,  
Soqoli ikki qarich. (Makkajo‘xori)

**Tarbiyachi:** – Bolajonlarim, ayting-chi, sizlarga nima uchun bunday topishmoqlarni aytdim?

**Bolalar:** – Topishmoqlarning javobida ”j“ harfi ishtirok etgani uchun.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, zukkolarim. Sizlar bugun yana bir yangi ”j“ harfi va tovushini o‘rgandingiz. Bu savodxonligingiz yana ham ortyapti degani.



# ”J“ HARFI DIDAKTIK O‘YINLARI

## ”NUQTA O‘RNIGA SO‘Z QO‘Y“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarning o‘tilgan ”j“ harfi haqida bilimlarini mustahkamlash.

Tarbiyachi bir nechta gap o‘qiydi, gapda bitta so‘z tushirib qoldiriladi. Bolalar esa tushirib qoldirilgan o‘ringa so‘z qo‘yishlari kerak. Bu so‘zda ”j“ harfi bo‘lishi kerak.

Uyimizda sap-sariq mittigina ... (jo‘jalar) ko‘p.

..., (Jasur), ... (Jamshid), ... (Jahongir) o‘g‘il bolalar ismi sanaladi.

Biz sirkda bo‘yi uzun ... (jirafa) ko‘rdik.

Besh barmoqning eng kichigi ... (jimjiloq) deyiladi.

## ”O‘ZING TA‘RIF BER“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarning so‘z boyligini oshirish, ularning nutqini o‘stirish.

Tarbiyachi so‘zlar o‘qiydi, bolalar esa shu so‘zlarning ma‘nosini aytishlari kerak.

Jajji, jahl, jala, janjal, jarroh, jasur, javob, jarangdor, jilg‘a, jigarrang, jiddiy, jazirama, jo‘xori, jo‘mrak, juma.

## ”ORTIQCHA SO‘ZNI TOP“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarda diqqat va e‘tiborni kuchaytirish, ularni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish.

Tarbiyachi ”j“ harfi qatnashgan va qatnashmagan so‘zlarni o‘qiydi. Bolalar esa ”j“ harfi ishtirok etmagan so‘zning ortiqcha ekanligini topishlari kerak.

Ajdarho, juma, daftar, jasur.

Mashina, jingalak, jo‘ja, jang.

Piyola, juft, jo‘xori, jiz.



# “G” TOVUSHI VA HARFI

## Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarga "g" harf va tovushi haqida ma'lumot berish, bu harfning so'z boshida, o'rtasida va oxirida kelishini tushuntirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini, bir-birlariga yordam berish ko'nikmasini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarda xotira va diqqatni o'stirish, ularni topqirlikka o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, "g" harf ishtirok etgan narsalar suratlari.

## Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening qiziquvchan va dono bolajonlarim. Bugun biz sizlar bilan "g" harfi va tovushi haqida suhbatlashamiz. "G" undosh tovush hisoblanadi, uni cho'zib talaffuz qilish mumkin emas. "G" tovushi so'z boshida g'ildirak, g'alla, g'urur, so'z o'rtasida to'g'ri, bag'rim, so'z oxirida bog', tog' so'zlarida keladi. Qani, hammamiz birgalikda hozir "g" tovushini talaffuz qilib ko'ramiz.

*(Bolalar "g" tovushini talaffuz qiladilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, "g" undosh harflar guruhiga kiradi. Kelinglar, bizlar hozir uni unli harflar bilan birga talaffuz qilib ko'ramiz.

G'a, g'o, g'u, g'i, g'o', g'ye.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi diqqatingizni monitorga qarating, unda nomlarida "g" tovushi bo'lgan narsalar suratlari ko'rsatilgan. Qani, ularni birgalikda talaffuz qilaylik-chi.

*(G'ildirak, g'oz, g'isht, g'aladon, g'alla, g'alvir suratlarini tarbiyachi bilan birgalikda talaffuz qiladilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, men hozir sizlarga "g" harfini doskaga yozib ko'rsataman. Sizlar esa diqqat bilan qaranglar.

*(Tarbiyachi "g" harfini doskaga yozib ko'rsatadi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, "g" harfi bosma shaklda, yozma shaklda bo'ladi. Biz uni o'qishimiz mumkin. Hozir hammamiz "g" harfini ip yordamida yasab ko'ramiz.

*(Bolalar tarbiyachi nazoratida "g" harfini ip yordamida yasaydilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi sizlar bilan o‘yin o‘ynaymiz. Bir-birimizga koptok otish jarayonida "g" harfi tovushi ishtirok etgan so‘zlardan aytamiz. So‘zlarda albatta "g" harfi so‘zning boshida, o‘rtasida, oxirida ishtirok etgan bo‘lishi kerak.

*(Bolalar tarbiyachi bilan birga "g" tovushi ishtirok etgan so‘zlarga misollar aytadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi "g" harfi qatnashgan so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib aytib ko‘ramiz.

Bog‘-bon, bu-g‘u, shol-g‘om, g‘o-lib, yog‘-du, qo‘n-g‘iz.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi ana shu so‘zlar ishtirokida o‘zingiz bittadan gap tuzing.

**1-bola:** – Men ko‘chada qo‘ng‘iz ko‘rib qoldim.

**2-bola:** – Bog‘bon ko‘chatlarga suv quydi.

**3-bola:** – Oyim sho‘rvaga sholg‘om soldilar.

**4-bola:** – Men bug‘uning suratini chizdim.

**5-bola:** – Ukam shashka musobaqasida g‘olib bo‘ldi.

**6-bola:** – Tunda oyingiz yog‘dusi derazadan tushib turibdi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, mening topqir bolalarim. Kelinglar, endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz.

Hammamiz g‘ildirak olamiz va uni xona bo‘ylab aylantirib chiqamiz. G‘ildirakni aylantirayotganda xuddi mashinaning ovozidek g‘irr-g‘irr deymiz.

*(Tarbiyachi nazoratida bolalar g‘ildirakni xona bo‘ylab aylantirib chiqadilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalarim, mana jismoniy mashq ham qilib oldik. Endi esa joyingizga joylashib o‘tirib olinglar. Men sizlarga bir ertak aytib beraman.

Qadim zamonda bir qora qarg‘a bo‘lgan ekan. U hammaga zarar keltirar ekan, yerda axlat yotgan bo‘lsa, atrofga sochib tashlab to‘zitar ekan. Uy jonivorlariga kutilmaganda tashlanib qolarkan. Bir kuni qora qarg‘aning yoniga oq qarg‘a kelibdi va nasihat qilibdi:

– Jon qarg‘ajon, sen maxluqotga yomonlik qilmagin, chunki yomonlik qilganni insonlar yoqtirmaydi. Yaxshilik esa olamni bezab turadigan sifatlardan biri. Birovga ozor bermagan, boshqalarning hojatini chiqarganlar hurmatga sazovor bo‘ladi. Kimgadir yordam bergan, uni xursand qilganlar doim odamlar qalbida qoladi. Shuning uchun har bir lahzadan unumli foydalanib, yaxshilik qilgin.

Qora qarg‘a oq qarg‘aning gaplarini eshitib, o‘ylanib qolibdi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, qora qarg‘a nima uchun xijolat bo‘lib qoldi?

*(Bolalarning fikrlari tinglanadi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi "g" harfi ishtirok etgan o‘g‘il va qiz bolalar ismlariga misollar aytinglar.

*(Bolalar Farog‘at, G‘ayrat, G‘ulom, G‘ani kabi ismlar aytadilar.)*

# "G"

## " HARFI

# DIDAKTIK O'YINLARI

### "G" DAN ISM TOP"

**O'yinning maqsadi:** Bolalarning "g" haqida o'tilgan bilimlarini mustahkamlash. O'yin shartiga ko'ra, tarbiyalanuvchilar "g" harfi ishtirok etgan o'g'il va qiz bolalar ismlaridan aytishlari kerak bo'ladi. "G" harfi faqat so'z boshida emas, balki so'z o'rtasida qatnashgan bo'lishi ham mumkin. Bitta ishtirokchi aytgan ismni boshqa ishtirokchi takrorlamasligi kerak. Bolalar G'afur, G'ulom, G'ani, G'anisher, G'aybulla, G'afurali, G'ayrat, G'iyos,

G'ozu kabi ismlarni aytishlari mumkin.

### "KIM TEZ TOPADI?"

**O'yinning maqsadi:** Bolalarni topqirlikka o'rgatish, ularning so'z boyligini oshirish. Tarbiyachi bir nechta topishmoqlar aytadi. Bolalar uning javobini topishlari kerak. Faqat tarbiyachi tanlagan har bir topishmoq javobida "g" harfi ishtirok etgan bo'lishi kerak.

Novcha yigit tom teshar. (Yomg'ir)

Sandiq to'la oq sadaf. (Og'iz, tish)

O't emas, kuydirar,

Pichoq emas, so'ydirar. (Yolg'on so'z)

Atlas ko'ylak qanoti,

Xush xabarchi odati. (Zag'izg'on)

Zuv-zuv borag'ay,

Tomdan qarag'ay.

Cho'p, loy cho'qig'ay

Savat to'qig'ay. (Qaldirg'och)  
Po'sti qalin, qoviqday,  
Beli bog'li tanobday,  
Mevasi sarig' yog'day. (Yong'oq)

Qizilini o'zim yedim,  
Sarig'ini molga berdim. (Bug'doy, somon)

### "QAYSINISI ORTIQCHA?"

**O'yinning maqsadi:** Bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, ularning eshitish qobiliyatini o'stirish.

Tarbiyachi so'zlar qatorini o'qiydi, bolalar qaysi so'z ortiqchaligini va nima uchun ortiqchaligini aytishlari kerak.

G'o'za, bug'doy, non, g'oz  
G'urra, arqon, g'alva, g'uncha  
G'ulom, Hamid, G'ani, G'afurali  
Qo'ng'iz, chivin, g'ildirak, g'or  
G'ijim, g'olib, ukki, g'ilof

W

N

U

B

V

O

K

F

S

D

+

T

A

I

U

# “Z” TOVUSHI VA HARFI

## **Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** tarbiyalanuvchilarga ”z“ harfi va tovushi haqida tushuncha berish, shu harf ishtirokida bo’g’inlarni farqlash va ularni qo’shib o’qishga o’rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** har bitta topshiriqni bajarish orqali bolalarning mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** tarbiyalanuvchilarda hamjihatlik, ahillik, hozirjavoblik fazilatlarini tarbiyalash.

**Kerakli jihozlar:** mavzu doirasida multimedia ilovasi ko’rsatiladi va bolalar unga munosabat bildiradi. Multimedia mahsulotida asalarining ”viz-z-z“ degan ovoz chiqarib uchgani tasvirlanadi.

## **Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, asalari qanday ovoz chiqararkan?

**Bolalar:** – Vi-i-iz-z-z-z-z, vi-i-iz-z-z-z-z, vi-i-iz-z-z-z-z.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, ayting-chi, ”z“ tovushini cho’zib talaffuz qila olamizmi?

**Bolalar:** – Yo’q.

**Tarbiyachi:** – Demak, bu undosh harf. Bolalar bizning ovozimiz bor-a! U uychada yashaydi. Bu uycha bo’yinda (ko’rsatadi) joylashgan. Ba’zan ovozimiz uxlaydi va sekingina pishillaydi, tovushi past eshitiladi.

(*Tarbiyachi ”s“ tovushini talaffuz etadi, so’ng bolalar s tovushini talaffuz etadilar. Qo’llarining orqa tomonini bo’yinlariga qo’yib, ovoz uxlayaptimi yoki yo’qmi, tekshirib ko’radilar.*)

Ovoz uyqudan turgandan keyin ashula aytadi. U shunday ovozda ashula aytdiki, hatto uychaning devorlari titray boshlaydi.

(*Tarbiyachi ”z“ tovushini bo’yinga qo’l kaftining orqa tomonini qo’yib talaffuz etadi. Bu bilan ovoz uxlayaptimi yoki yo’qmi tekshiriladi. Bolalar ham shu harakatni takrorlaydilar. Xuddi shu tariqa bolalar ikki-uch marta ”s“ va ”z“ tovushini navbatma-navbat talaffuz etadilar va tovush uxlayaptimi yoki ashula aytyaptimi, aniqlaydilar.*)

**Tarbiyachi:** – Diqqat bilan eshiting, men bu harf ishtirokidagi so’zlarni ayta-man, sizlar ”z“ harfi so’zning qaysi o’rinda kelganini topasiz.

Zebra (soʻz boshida)

Uzuk (soʻz oʻrtasida)

Piyoz (soʻz oxirida)

Zanjir (soʻz boshida)

Qiz (soʻz oxirida)

Qoʻziqorin (soʻz oʻrtasida).

**Tarbiyachi:** – Barakalla, sizlar harfning joylashgan oʻrmini tinglab, talaffuz qilib toʻgʻri topdingiz. Marhamat, shu aytilgan soʻzlarning rasmlarini aralash kartochkalar ichidan toping va magnit yordamida doskaga yopishtiring.

*(Bolalar topshiriqni bajaradilar.)*

**Tarbiyachi:** – Endi qolgan kartochkalar ichidan oʻrganayotgan harfimiz ishtirokidagi boʻgʻinlarni izlab toping.

Za, ze, zi, zo, zu, zoʻ, az, cz, zi, oz, uz, oʻz.

*(Bolalar boʻgʻinlarni topib, doskaga yopishtiradilar.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi "Zagʻizgʻonlar va xonqizi" harakatli oʻyinini oʻynaymiz. Buning uchun hozir ikki guruhga boʻlinamiz. Birinchi guruh bolalari zagʻizgʻon boʻlishadi, ikkinchi guruh bolalari xonqizi boʻlishadi. Xonqizilar mana bu yerda, zagʻizgʻonlar esa mana bu yerda yashashadi.

Men "zagʻizgʻonlar uchib ketishdi" deb aytsam, ular xona boʻylab yugurishadi. Qachon men "xonqizilar uchib ketishdi" deb aytsam, xona boʻylab yugurib ketishadi va "z-z-z-z" deb ovoz chiqarishadi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi stol atrofidagi stullarga oʻtirib, sanoq choʻplardan foydalangan holda bosma "Z" harfi shaklini yasaymiz.

*(Bolalar harakatlari nazorat qilinadi.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, diqqatingizni ekranga qarating, "z" harfi ishtirokidagi boʻgʻinlarni oʻqiymiz:

zar, zi-na, zagʻ-cha, za-gʻiz-gʻon, u-zum, Zuh-ra, A-ziz.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir bir sheʼr oʻqiyman, bu sheʼr nima haqida ekanligini aytasizlar.

"Z" deydilar otimni,

Bilasizmi zotimni?

Zuhra, Zahro, Zokirjon,

Mendan boshlanar zamon.

**Bolalar:** – "Z" harfi haqida ekan.

**Tarbiyachi:** – Endi ish daftarimizni olamiz va zanjirning halqalarini bir-lashtirib chiqamiz.

*(Bolalar topshiriqni bajaradilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi "To'rtinchisi ortiqcha" o'yinini o'ynaymiz. Bunda mana bu kartochkalardan "Z" harfi bilan boshlanadigan yoki shu harf ishtirok etgan so'zlar tasvirlangan rasmlar orasida bu harf ishtirok etmagan so'zlarni ifodalovchi predmetlarni, ya'ni ortiqchasini topamiz.

Zanjir, qulf, uzuk, zirak.

Zebra, qo'ziqorin, tuya, yulduz.

Qizaloq, zira, o'g'il bola, zaytun.

Nayza, iz, yomg'ir, yoz.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir bir hikoya o'qib beraman. Uning har bir qatorini o'qiganimdan keyin to'xtayman, sizlar esa "Z" harfi ishtirok etgan so'zlarni topasiz.

## ZUHRA BILAN ZAHRO

Nasiba Erxonova

Zuhra bilan Zahro yozning issiq kunida zilol suv bo'yiga borishibdi. Ariq chetida antiqa izlarni ko'rib qolishibdi. Ikki dugona bunday izlarni hecham ko'rmagan ekan. Ular ovoz chiqarmay izlarning egasini kuta boshlashibdi. Bir zum o'tgach, zangori rangli qo'ng'izlar qator bo'lib suvga qarab kela boshlabdi. Zangori qo'ng'izlarni ko'rgan Zahro xursand bo'lib ketibdi:

– Zo'r, izlarning egasi topildi!

*(Bolalar bilan har bir satrdagi "z" harfi ishtirok etgan so'z tahlil qilinadi. Har bir so'zda harfning o'rni aniqlanadi va shu so'z bo'g'inlarga bo'lib talaffuz etiladi.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, zukko bolajonlarim, ayting-chi, bugun qaysi harf va tovushni o'rgandik?

**Bolalar:** – "Z" harfi va tovushini o'rgandik.

**Tarbiyachi:** – "Z" unli harfmikan yoki undosh?

**Bolalar:** – Undosh harf.

**Tarbiyachi:** – Uning undosh harfligini qanday aniqladik?

**Bolalar:** – Uni cho'zib talaffuz qilib bo'lmaydi.

**Tarbiyachi:** – Bir tasavvur qiling-chi, agar alifbomizda "z" harfi va tovushi bo'lmaganida nima bo'lardi? Qanday so'zlar lug'atimizda bo'lmas edi?

**Bolalar:** – Dazmol, yoz, kuz, zar, zal, yalpiz, zirak, Zafar, zax, zilol so'zlari lug'atimizda bo'lmas edi.

**Tarbiyachi:** – Juda to'g'ri. Bugungi faol ishtirokingiz uchun rahmat.

# "Z" HARFI DIDAKTIK O'YINLARI

## "HAMMASIDA "Z" BOR" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** bolalarning "z" harfi haqidagi bilimlarini mustahkamlash, ularning nutqini boyitish.

Tarbiyachi savollar beradi va javoblarning hammasida "z" harfi ishtirok etishini aytib o'tadi. Savollar quyidagicha tuzilishi mumkin.

Kam so'zini yana qanday aytishimiz mumkin? (Oz)

Ertakdagi Qimmat va yana bir qizning ismi nima edi? (Zumrad)

Bahordan keyin keladigan fasl nomi nima? (Yoz)

Bo'yinga osiladigan tilla taqinchoq nima. (Zanjir)

Zukko so'zini yana qanday aytishimiz mumkin? (Ziyrak)

"Z" dan boshlanadigan qizlar ismiga misollar ayting. (Zuhra, Zebo, Zamira)

## "KIM CHAQQON?" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** bolalarni topqirlikka o'rgatish.

O'yin shartiga ko'ra, bolalar tarbiyachi tomonidan aytilgan topishmoqlarga tezlikda va to'g'ri javob topishlari kerak.

Xo'ppa semiz,  
Bir tuki yo'q. (Tarvuz)

Sari bobom ichkari,  
Soqollari tashqari. (Sabzi)

Urmasdan yig'latar. (Piyoz)



Yanvar bobom novvot sotdi,  
Olgan edim, qo‘lim qotdi. (Muz)

Bir otim bor ajoyib,  
Ko‘rsang juda g‘aroyib.  
Na oq emas, na qora  
Ranglari ola-bula. (Zebra)

### ”XATONI TOP“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarni mantiqiy firklashga o‘rgatish, ularning nutqini boyitish.


Tarbiyachi ketma-ketlikda gaplar o‘qiydi, bolalar esa tarbiyachi qaysi gapda qanday xato qilganini aytib berishlari kerak.

Yozda qor yog‘di.

Choy, sharbat, gazli suvlarni maza qilib yedik.

Zulayho, Zamira, Zuhro o‘g‘il bolalarning ismimi?

Zukko bolalar hammaga yoqadi.





## “ V ” TOVUSHI VA HARFI

### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** "v" harfi va tovushi bilan tanishtirish, "v" tovushining undosh tovush ekani haqida tushuncha berish, uning to'g'ri talaffuz qilinishini o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda guruh bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish, ularni mehnatsevarlikka o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalar nutqini boyitish, ularda mayda motorikani rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, "v" harfi ishtirok etgan narsalar suratlari, sanoq cho'plar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening quvnoq va zukko bolajonlarim! Bugungi ta'limiy faoliyatimizda "v" harfi va tovushi haqida suhbatlashamiz. "V" undosh harf guruhiga kiradi. "V" tovushini talaffuz qilib ko'ramiz.

Va-gon. V-v-v-v-v-v-v-v

Qani, endi hammamiz "v" deb birgalikda aytib ko'ramiz.

*(Bolalar tarbiyachi nazoratida "v" harfini talaffuz qiladilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, "v" tovushi varrak, vagon, velosiped kabilarda so'z boshida, avval, narvon kabilarda so'z o'rtasida, o'lchov, yaylov kabilarda so'z oxirida keladi. "V" harfi ham o'qiladi, ham yoziladi. Uning bosma, katta va kichik shakllarini ko'rishimiz mumkin.

*(Montiorda "v" harfining bosma katta va kichik shakllari ko'rsatiladi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, kelinglar, hozir "v" harfini sanoq cho'plardan foydalanib yasab ko'ramiz.

*(Bolalar tarbiyachi nazoratida "v" harfining bosma shaklini yasaydilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlarim, endi esa sizlar bilan "v" undosh harfiga unli harflarni qo'shib o'qib ko'ramiz.

Va, vu, vi, ve, vo', vo.

**Tarbiyachi:** – Endi esa "v" tovushi ishtirok etgan so'zlarni bo'g'inlarga ajratgan holda o'qiymiz. Diqqatingizni monitorga qarating, undagi suratlarda aks etgan narsalarning nomini birga bo'g'inga ajratamiz.

Var-rak, vo-diy, vaf-li, va-gon, va-ni-lin, va-tan, va-zir, va-ze-lin, ver-to-lyot.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, "v" harfidan Vatan, vaqt kabi so'zlar ma'nosini yana bir eslab olsak, qani, kim aytadi, Vatan deganda nimani tushunamiz?

**1-bola:** – Vatan – biz tug'ilib o'sgan o'lka.

**2-bola:** – Vatan – onamizdek muqaddas joy.

**3-bola:** – Vatan hammamizni o'stirayotgan aziz maskan.

**4-bola:** – Biz katta bo'lganimizda askar bo'lib vatanimizni himoya qilamiz.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, sizlar Vatanga chiroyli ta'rif berdingiz. Vatan, onamiz kabi buyuk va muqaddas maskan. Bizni bolaligimizdanoq mehr berib ulg'aytirgan Vatanni doim ardoqlaymiz. Qani, kim vatan haqida maqollar biladi?

**5-bola:** – Vatanning tinch – sen tinch.

**6-bola:** – Bulbul chamanni sevar,  
Odam – Vatanni.

**7-bola:** – Vatansiz inson – kuysiz bulbul.

**8-bola:** – Tug'ilgan yering – Vatanning,  
Vatanning – nomusing.

**Tarbiyachi:** – Qoyil, bolajonlar, sizlar maqol aytishda ham juda topqir ekan-sizlar. Endi sizlar bilan vaqt haqida gaplashamiz. Bolajonlar, vaqt dunyodagi eng qimmatli narsa bo'lib, uni behuda ketkazish yaramaydi. Vaqtdan unumli foydalanish uchun uni rejalashtirish lozim. Vaqtni pulga sotib olib bo'lmaydi, u uchqur shamoldek juda tez o'tadi.

Qani, hozir sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazamiz va shamoldek yelib yuramiz.

Men shamolman, shamolman,

Uchqur otdek yelaman.

Tez berkinib olsang, gar

Ko'zingga chang kirmaydi.

Vaqt g'animat uyga kir,

Mendan qochgin shoshilgin.

*(Bolalar tarbiyachi nazoratida shamoldek yelib yuradilar.)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar. Endi mana bu savollarga javob beringlar.

"V" undosh harflar guruhiga kiradimi yoki undosh?

"V" harfi so'z boshida kelgan so'zlarga misollar ayting.

"V" harfi so'z o'rtasida kelgan so'zlarga misollar keltiring.

Ovqat, varrak, avval so'zlarini bo'g'inga ajratib aytib bering.

# ” V “ HARFI DIDAKTIK O‘YINLARI

## ”BURATINOGA YORDAM BERAMIZ“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarning ”v“ harfi haqida o‘tilgan bilimlarini mustahkamlash.

Tarbiyachi bugun guruhga Buratino kelganligini aytadi. Buratino bolalarga maktabga shoshilayotganini, uyga vazifa sifatida ”v“ harfi ishtirok etgan so‘zlarga misollar topishi zarurligini aytadi. Bolalar esa Buratinoga yordam sifatida quyidagi so‘zlarni topib aytishlari mumkin:

Varaq, varrak, avval, xavf, vodiy, vulqon, vujud, vaffi, vazir, vatan, voha, va‘da, vosita, voqea, vijdon, vermishel, valiy, vakil, vanilin, vals, vahima.

## ”TEZ JAVOB AYT“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarni topqirlikka o‘rgatish, ularning so‘z boyligini oshirish.

Bolalar tarbiyachi tomonidan berilgan savollarga javob topishlari kerak.

Bahorda bolalar osmonga uchiradigan, qog‘ozdan yasalgan narsa nomi nima? (Varrak)

Sabzi, sholg‘om, kartoshka, bularga umumiy qanday nom bersak bo‘ladi? (Sabzavot)

Biz bu nomga Ona degan so‘zni qo‘shib aytamiz, biz tug‘ilgan o‘lka. (Ona Vatan)

Xamir ovqat, uzun-uzun xamirlari bor, u nima? (Vermishel)

Andijon, Farg‘ona, Namangan bularni yana qanday atash mumkin? (Vodiy)

## ”KIM TOPQIR?“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** bolalarni zukkolikka o‘rgatish, ularning so‘z boyligini oshirish.

Tarbiyachi turli so‘zlar o‘qiydi. Agar so‘zda ”v“ harfi ishtirok etgan bo‘lsa, bolalar qarsak chaladilar, bu harf bo‘lmasa, chapak chalmaydilar.

Afv, xato, uvol, karam, vajohat, uyqu, xolavachcha, xirmon, savol, volida, darmon, falak, vahiy, vakil, stol, varrak kabi so‘zlardan foydalanish mumkin.



## “ TOVUSHI VA HARFI ”

### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** "x" harfining undosh tovush ekanligi, uning to'g'ri talaffuz qilinishini o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalar nutqini "x" tovushli so'zlar bilan boyitish, ularning mayda motorikasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, "x" tovushi ishtirok etgan so'zlar qatnashgan narsalar suratlari.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening qadri bolajonlarim! Bugungi ta'limiy faoliyatimizda "x" harfi va tovushi haqida suhbatlashamiz. "X" undosh harflar guruhiga kirib, uning talaffuzida lablar biroz ochiq, harakatsiz, tishlar bir-biriga yaqinlashgan bo'ladi. Qani, endi hammamiz "x" tovushini birgalikda talaffuz qilamiz.

*(Tarbiyachi va bolalar "x" tovushini talaffuz qiladilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, "x" harfi xalq, xaridor, xavotir kabilarda so'z boshida, axborot, axloq kabilarda so'z o'rtasida, mix, six kabilarda so'z oxirida keladi. "X" tovushini cho'zib aytib bo'lmaydi.

"X" tovushini unli tovushlar bilan birga talaffuz qilib ko'ramiz.

Xa, xo, xu, xe, xi, xo'.

Bolalar, "x" harfining shaklini monitorga qarab ko'rishingiz mumkin. "X" harfi ham o'qiladi, ham yoziladi. Uning bosma katta va kichik shakllari bor. Hozir men sizlarga "x" harfini yozib ko'rsataman, sizlar esa uning qanday yozilishiga diqqat qilinglar.

*(Tarbiyachi doskaga "x" harfini yozib ko'rsatadi.)*

**Tarbiyachi:** – Endi sizlar sanoq cho'plar yordamida bosmacha "x" harfini yozib ko'ringlar. Hozir har biringizga sanoq cho'p tarqatib chiqaman.

*(Tarbiyachi nazorati ostida bolalar "x" harfini sanoq cho'plar yordamida yasaydilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, kelinglar, endi jismoniy daqiqa o‘tkazamiz.

Qaldirg‘och g‘och-g‘och,

Qanotingni och-och-och.

Men senga ko‘p don beray,

So‘ng gulzordan don teray.

*(Bolalar tarbiyachi harakatlarini qaytaradilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi diqqatingizni monitorga qarating. Unda ”x“ harfi ishtirok etgan so‘zlar suratları aks ettirilgan. Biz ana shu suratlarğa qarab ularni bo‘g‘inga bo‘lib o‘qiyimiz.

Xur-mo, xa-mir, xal-ta, xir-mon, xiyo-bon, xo-nim, xum-don, xo‘-roz, xo‘-roz-qand, xip-chin.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi esa mana shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

**1-bola:** – Men xurmoni yaxshi ko‘raman.

**2-bola:** – Biz oyim bilan xonim pishirdik.

**3-bola:** – Xamir ovqatlar dadamga judayam yoqadi.

**4-bola:** – Xo‘rozqandning har xil ranglari bor ekan.

**5-bola:** – Xo‘roz erta tongdan qichqiradi.

**6-bola:** – Biz kechqurun xiyobonga aylanishga bordik.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, sizlar gap tuzishga ham juda usta bo‘lib ketibsizlar. Endi esa mana bu topishmoqlarga javob aytinglar.

Bir qo‘yim bor,

Turib semirar. (Xamir)

G‘ildiraksiz parovoz,

Parovozki juda soz.

Dengizlarda suzadi,

Baliqlardan o‘zadi. (Paroxod)

Qorday oppoq,

Yungday yumshoq. (Paxta)

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, endi men bitta so‘z aytaman sizlar esa o‘sha so‘zga bog‘liq yana bir so‘z aytinglar kerak bo‘ladi. Misol uchun, mix – usta.

*(Bolalar tarbiyachi aytayotgan so‘z ma‘nosiga yaqin so‘z topib aytadilar.)*

Xirmon – dehqon

Do‘kon – xaridor

Xamir – non


Xurmo – meva

Xirgoyi – qo‘shiq

Xina – bo‘yoq

Xushta‘m – mazali

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, bugungi ta‘limiy faoliyatdagi faol ishtirokingiz uchun sizlarga rahmat. Har doim yaxshi tilaklar yor bo‘lsin, xayrli ishlarda yordamchi bo‘lish, xaloskor bo‘lish baxti hammamizga nasib etsin.



# "X" HARFI DIDAKTIK O'YINLARI

## "HARFLAR MEHMONGA KELDI" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish.

O'yin shartiga ko'ra, tarbiyachi bugun guruhga kelgan mehmon harflar bilan tanishtiradi. Bolalar aynan shu harflar bo'lgan so'zlar topishlari kerak. Bolalar harflarni so'z tuzish jarayonida joylarini almashtirishni so'rashlari kerak bo'ladi. So'zlarda albatta "x" tovushi ishtirok etgan bo'lishi so'raladi.

A, X, M, U, R, I, N, O, S, J.

Bolalar xurmo, xum, xos, mos, xurjun, xuruj, xusus kabi so'zlarni yasashlari mumkin.

## "BALIQ TUTAMIZ" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** tarbiyalanuvchilarning so'z boyligini oshirish, ularning nutqini o'stirish.

Tarbiyachi baliqlar shakli ichiga turli predmetlar suratlarini qo'yadi. Bolalar ana shu suratlar ichidan "x" harfi ishtirok etgan narsalar suratlarini tanlashlari kerak.

Bolalar xalat, xum, paxta, no'xot, mix, jo'xori kabi narsalarning suratlarini tanlashlari mumkin.

## "TO'G'IRLAB O'QIYMIZ" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** bolalarning so'z boyligini oshirish, ularni mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

Tarbiyachi so'zlarning ayrim harflarini qoldirib o'qiydi. Bolalar esa qaysi harf tushib qolganini aytishlari kerak.

Tarbiyachi a...loq, ...ususiyat, .avf, ...ufiyona, ...ix, ...ushomad, ...ush, ...ayr kabi so'zlarni o'qishi mumkin.



# “ F ” TOVUSHI VA HARFI

## **Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** tarbiyalanuvchilarga ”f“ harfi va tovushi haqida ma’lumot berish, ”f“ tovushini to’g’ri talaffuz qilishga o’rgatish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda jamoa bo’lib ishlash ko’nikmasini, bir-birlariga o’zaro yordam berish ruhini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarda mayda motorikani rivojlantirish, ularning nutqini ”f“ harfi ishtirok etgan so’zlar bilan boyitish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, f harf tovushi ishtirok etgan narsalar surati.

## **Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening qadrdon bolajonlarim! Bugungi ta’limiy faoliyatimizda biz ”f“ harf va tovushi haqida suhbatlashamiz. ”F“ undosh tovushlar sirasiga kiradi. ”F“ tovushini talaffuz qilganda pastki lab yuqorigi tish qirralariga yaqinlashgan, tovush boylamlari ochiq bo’lib, tovush jaranglamaydi. Fazilat, f-f-f-f-f-f.

*(Tarbiyachi bolalar birgalikda ”f“ tovushini talaffuz qiladi.)*

**Tarbiyachi:** – ”F“ harfi favvora, fasl, farzand kabilarda so’z boshida, daftar, safar kabilarda so’z o’rtasida, taraf, saf kabilarda so’z oxirida keladi. Kelinglar, hozir ”f“ harfiga unli tovushlarni qo’shib talaffuz qilib ko’ramiz.

Fa, fo, fu, fe, fi, fo’.

Endi esa mana bu so’zlarni bo’g’inga bo’lib o’qiyimiz:

Fer-mer, fo-nar, fa-ro-sat, ara-fa, ta-lo-fat, fu-sun-kor.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi esa ”f“ harfini sanoq cho’plar yordamida yasab ko’ramiz.

*(Bolalar tarbiyachi nazoratida ”f“ harfini sanoq cho’plar yordamida yasab ko’radilar.)*

**Tarbiyachi:** – Men ”f“ harfining bosma shaklini chizib ko’rsataman, sizlar esa diqqat bilan qarab turinglar.

*(Tarbiyachi ”f“ harfini doskaga chizib ko’rsatadi.)*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, ”f“ harfi ko’rishimiz, o’qishimiz, uni yozma shaklda ifodalashimiz mumkin.

Qani, kim "f" harf tovushi ishtirok etgan so'zlarga misollar ayta oladi?

**1-bola:** – Fil, fasl.

**2-bola:** – Fotima, Fazilat, Fotih, Farrux.

**3-bola:** – Naf, nafasat, nafis, nafar, nahor.

**4-bola:** – Oftob, shifo.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi esa mana bu topishmoqlarga javob beringlar. E'tibor beringlar, bu topishmoqlarning javoblarida "f" tovushi ishtirok etgan. Shuning uchun ham javob topish qiyin bo'lmaydi.

Uzun baland bo'yi bor,  
Toping, qaysi jonivor? (Jirafa)

Uning bordir xartumi,  
Quloqlari va dumi.  
Ko'rinishi bahaybat,  
Uni ham toping, albat. (Fil)

Posbonidir u uyning,  
Ko'zi, tili yo'q uning. (Qulf)

Bir vaqtda oladi,  
Ko'lankangiz qoladi. (Fotoapparat)

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, judayam topqir ekansizlar. Endi sizlar bilan dam olish daqiqasi o'tkazamiz.

Qo'llarimiz ishlatamiz,  
Oldi tomon ko'rsatamiz.  
Orqa tomon cho'zamiz,  
Quv nab qarsak chalamiz.

*(Bolalar tarbiyachi ko'rsatgan harakatlarni bajaradilar.)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, dunyoda eng qimmat narsalardan biri bu vaqtdir. Vaqt daqiqa, soniyalardan, soniyalar esa fursatdan tashkil topadi. Shuning uchun har bir fursatni g'animat bilib, undan unumli foydalanish lozim. Bugungi ta'limiy faoliyatimizda o'rganganlaringiz asosida mana bu savollarga javob beringlar.

"F" undosh harf ekanmi yoki unli?

"F" tovushi so'z boshida ishtirok etgan so'zlarga misollar ayting.

Foyda, fazilat so'zlarini qanday tushunasiz? Ularning ma'nosini aytib bering.

Favvora, farosat, jirafa so'zlarini bo'g'inlarga ajratib aytib bering.

# "F"

## " HARFI

### DIDAKTIK O'YINLARI

#### "BURATINONING XATOSI" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** bolajonlarning qo'lini yozuvga tayyorlash, ularda mayda motorikani rivojlantirish.

Tarbiyachi bolalarga ertakdagi Buratino doskaga burnida "f" harfini xato yozib qo'yganligini, uni to'g'rilash uchun bolajonlarning yordami kerakligini aytadi. Bolalar sanoq cho'plar yordamida Buratining xatosini to'g'rilaydilar. O'zlari ham "f" harfining bosma shaklini yasab ko'rsatadilar.

#### "BO'G'INGA QARAB AJRATAMIZ" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** bolalarning so'zlarni bo'g'inga ajratish haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O'yin shartiga ko'ra, bolalar "f" harfi ishtirok etgan bir bo'g'inli so'zlar suratini bitta xaltachaga, "f" harfi qatnashgan ikki bo'g'inli so'zlar suratini ikkinchi xaltachaga solishlari kerak. Buning uchun guruhdagi bolalar ikkiga bo'linadi va ularning qo'llariga suratlar beriladi. Qaysi guruh shartni birinchi bo'lib to'g'ri bajarsa, ana shu guruh g'olib deb topiladi.

Fil, fonar, fartuk, daftar, portfel, oftob, tuffi, vafli, sharfning suratlarini qo'yib qo'yish mumkin.

#### "O'ZING GAP TUZ" O'YINI

**O'yinning maqsadi:** bolalarda gap tuza olish ko'nikmasini shakllantirish. ularning tasavvurini rivojlantirish.

Tarbiyachi bitta so'z aytadi, bolalar esa ana shu so'z yordamida o'zlari gap tuzishlari kerak. Eng chiroyli gap tuzgan ishtirokchi tarbiyachi tomonidan rag'batlantiriladi.


Fil, foyda, afv, fartuk, sharf, daftar, fahm, farosat kabi so'zlardan foydalanish mumkin.

## ”KIM NIMA ISH QILADI?“ O‘YINI

**O‘yinning maqsadi:** tarbiyalanuvchilarda kasblarga bo‘lgan qiziqishni oshirish, ularning nutqini rivojlantirish.

Tarbiyachi bolalarga kasblarga oid suratlar ko‘rsatadi, bolalar esa o‘sha suratdagi kasb egasining nomi va u nima ish bilan shug‘ullanishini aytib berishlari kerak.

Farmatsevt, farrosh, fazogir, fizik olim, ofitsiant kabilarning suratlarini ko‘rsatish mumkin.



# TUTUQ BELGISI ( ; )

## **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tutuq belgisi bilan tanishtirish, uning vazifasini, yozilish o'rinlarini tushuntirish, tutuq belgisi so'zlarni tahlil qilishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarning diqqati va yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishga qiziqish bildirish malakalarini rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** yaxshi fazilatlar haqida so'zlash orqali tarbiyalanuvchilarda ijobiy sifatlarni shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** "harflar" kassasi, kesma harflar, "Tezkor savollar", tutuq belgisi so'zlar yozilgan ko'rgazma.

## **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Aziz bolajonlarim, bugungi mashg'ulotimiz qiziqarli bo'lishi uchun 3 guruhga bo'linib olamiz.

1-guruh – "Bilimdonlar".

2-guruh – "Zukkolar".

3-guruh – "Quvnoqlar".

## **O'tilgan mavzuni so'rash va mustahkamlash**

"Harf tasma"sidagi harflar tarbiyalanuvchilarga o'qitiladi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi har bir guruh topshiriqlarni o'zaro bajaradi.

**1-guruhga:** Farhod so'zida nechta bo'g'in va tovush borligini ayting.

**2-guruhga:** Farhod so'zi qatnashgan gap tuzing.

**3-guruhga:** Kesma harflardan foydalanib Farg'ona so'zini hosil qiling va yozing.

(Mashg'ulotda bolalar to'g'ri javoblar uchun rag'bat kartochkasini oladilar.)

## **Qiziqarli savol-javob o'yini**

**Tarbiyachi:** – Endi qiziqarli savol-javob o'yinini o'ynaymiz. Guruhlar "Tezkor savollar"ga javob beradilar.

1. Unli tovushlar nechta?

2. Tovushlarni nima qilamiz?

3. Mukofot so'zi necha bo'g'inli?

4. Biz har kuni keladigan maskan ...?

5. Undosh tovushlar nechta?

6. So‘z nimadan tuziladi?
7. Qaysi tovush bo‘g‘in hosil qiladi?
8. Vatanimiz poytaxti qayer?
9. Tovushlar necha xil bo‘ladi?
10. "F" qanday tovush?
11. Hozir o‘lkamizda qaysi fasl?
12. Gap nimadan boshlanadi?

**Tarbiyachi:** – Bolajonlarim, hozirgina o‘qiganimizdek, "Harf kassasi"si-dagi harflarning hammasi tovushni ifodalaydi. Biroq biz bugun o‘rganadigan tutuq belgisi tovush ifodalamaydi. Uning vazifasi shundaki, tutuq belgisi o‘zidan oldingi unlining cho‘zib aytilishini bildiradi. Agar tutuq belgi yoziladigan o‘rinlarda tushib qolsa, so‘zning ma‘nosi o‘zgaradi.

Masalan: Sa‘va – qush. Sava – xipchin bilan savash.

### **Quvnoq daqiqada "G‘ozlar o‘yini" o‘ynatiladi.**

Kulrang g‘ozlar uchdilar,  
Maydonchaga qo‘ndilar.  
U yon, bu yon qarashib,  
Yana uchib ketdilar.

**Tarbiyachi:** – Endi diqqatingizni monitorga qarating. Unda turli bo‘g‘inlar aralashib ketibdi. Shu aralash bo‘g‘inlardan so‘zlar hosil qilamiz. E‘tibor bering, har bir so‘zda tutuq belgisi ishtirok etgan.

A‘-lo, sa‘-va, qal‘-a so‘zlari hosil qilinadi.

**Tarbiyachi:** – Qani, ish daftarimizni olamiz va tutuq belgisi daftar chizig‘idan chetda yozilishini o‘rgatuvchi elementlarning ustidan bo‘yab chiqamiz.

*(Ish daftari bilan ishlash jarayonida bolalarning ruchka va qalamlarni to‘g‘ri ushlashlari, topshiriqni bajarishlari nazorat qilib boriladi.)*

**Tarbiyachi:** – Endi doskaga e‘tibor qiling, tutuq belgili so‘zlarni bo‘g‘inlab o‘qiymiz.

She‘r, sa‘va, san‘at, a‘lochi.

**Tarbiyachi:** – Yana bir qiziq "Darvoza" o‘yinini o‘ynaymiz.

Bunda bilimlarimizni mustahkamlash uchun tutuq belgili so‘zlar topamiz va darvozadan o‘tamiz. Bunda ikki bola qo‘llarini ko‘tarib, darvoza hosil qilishadi.

*(Jarayonda tarbiyachi bolalarga tutuq belgili so‘zlarni topishda ko‘maklashadi).*

# TUTUQ BELGISI ( )

## DIDAKTIK O'YINLARI

### ”QUVNOQ POYEZDCHA”

**O'yining maqsadi:** Bu o'yin orqali bolalarda mehnatsevarlik, yaratuvchanlik qobiliyatlari rivojlanib, mayda motorikasi shakllanadi.

**O'yinning borishi:** Tarbiyachi bolalarga poyezd maketini ko'rsatadi. Unda turli vagonlarga tutuq belgisi ishlatilgan va ishlatilmagan so'zlarni ifodalovchi rasmlar yopishtiriladi. Bolalarga jarayonda tarbiyachi tutuq belgisi ishlatilmaganda so'zlar ma'nosi o'zgarishini tushuntiradi.

Masalan, sa'va qush va savalashda ishlatiladigan kaltak rasmlari tushirilgan kartochkalar tahlil qilinadi.

**Tarbiyachi:** – Agarda biz qush haqida gapiradigan bo'lsak albat ta sa'va shaklida yozib, cho'zibroq aytishimiz kerak. Aksincha cho'zmasdan sava deb qo'ysak, bu biron narsani savalash yoki urish ma'nosida tushuniladi.

### ”XATOLIK BORMI?”

**O'yining maqsadi:** Bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, ularni tahlil qilib, so'zlarni talaffuzini aniq aytish qobiliyatini rivojlantirish.

**O'yining borishi:** Tarbiyachi bolalardan monitorda yozilgan so'zlarga diqqatini qaratishni so'raydi. Unda a'-lo, e'-lon, me'-mor, ne'-mat, ta'-zim kabi so'zlar va ularga mos ravishda tutuq belgisiz holatda yozilgan so'zlar ko'rsatiladi: a-lo-a-lo, e'-lon-e-lon, me'-mor-me-mor, ne'-mat-ne-mat, ta'-zim-ta-zim. Ushbu so'zlarning xatolari ustidan multimedia resursida qizil chiziq tortiladi va xatoliklari tarbiyachi tomonidan tushuntiriladi. Tutuq belgili so'zlar ajratib va cho'zib talaffuz qilishga o'rgatiladi.

### ”QIZIQARLI IZOH”

**O'yinning maqsadi:** Bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, ularni tahlil qilib, so'zlarning talaffuzini aniq aytish qobiliyatini rivojlantirish.

**O'yining borishi:** Tarbiyachi bolalarga tutuq belgili so'zlar va shu so'zlarning tutuq belgisi yo'q shakliga qiziqarli izoh berishni o'yin orqali olib boradi.

Masalan, san'at – bu insonning qobiliyati va qiziqishlaridan kelib chiqadigan faoliyat. Masalan, tasviriy san'at, musiqa san'ati, raqs san'ati kabi. Tutuq belgisiz sanat so'zi esa, biron narsani sanatlash ma'nosida keladi. Sur'at – bu biron narsaning tezligi, masalan bolalar ishni tez sur'atlarida tamomlashdi. Xuddi shu so'zning tutuq belgisiz shakli surat esa bironta chizilgan suratni yoki fotoapparatda yoki telefonda tushiriladigan suratni anglatadi.

Qal'a – bu to'rt tomoni qalin devor bilan o'ralgan muhofaza joyi bo'lsa, shu so'zning tutuq belgisiz shakli qala – biron narsani qalashni bildiradi. Masalan, tandirga o't qala.

## BO'G'INLAB O'QITISHGA O'RGATISH

### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda matnni tushunish, eslab qolish va bo'g'inlash ko'nikmalarini hosil qilish. Ovoz chiqarib, bo'g'inlab o'qish orqali tushunganlarini so'zlab berishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** fonemik eshitish qobiliyatini rivojlantirish, o'zi mustaqil o'qishga qiziqish uyg'otish, o'yin orqali bo'g'inlab o'qish malakalarini rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** o'yin orqali yangi so'zlarni o'qishga qiziqish bildirish, ta'limiy jarayon talablariga mos ravishda harakat qilish.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlarim, mana biz o'quv yili davomida 29 ta harf va tutuq belgini hamda sonlar va ular ichida amallarni bajarishni o'rgandik. Hamma o'rgangan harflarimiz ishtirokida so'zlarni hosil qilishni, bu so'zlarni bo'g'inlab o'qishni o'rgandik. Bugungi mashg'ulotimizda hamma o'rgangan harflarimizga mos so'z va matnlarni bo'g'inlab o'qishni o'rganamiz.

E'tiboringizni mana bu har xil sochilib yotgan kubiklarga qarating. Ularning har birining to'rt tomoniga harflar yozilgan. Hozir ikkita guruhga bo'lingan holda ulardan so'z hosil qilamiz.

**1-guruh:** "Quyoshcha".

**2-guruh:** "Yulduzcha".

"Quyoshcha" guruhi bo-la, lo-la, o-lim, xo-la so'zlarini hosil qiladi.

"Yulduzcha" guruhi tok, mu-shuk, til-la, ki-tob so'zlarini hosil qilishadi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi mana bu kartochkalarni olib, ulardagi bo'g'inlarning juftini topish orqali so'zlar hosil qilamiz.

Bolalar kesma harfli kartochkalardan qu-yon, pil-la, may-mun, li-mon, jo'-



ja, ka-lit, i-lon, yet-ti, sho'r-va, che-lak, Gul-nor, Bi-lol, An-var so'zlarini hosil qilib, bo'g'inlab o'qishadi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi monitorga qarang-chi, unda nimaning rasmi tasvirlangan ekan?

**Bolalar:** – Muzqaymoq rasmi.

**Tarbiyachi:** – Ayting-chi, bu muzqaymoqning nomi nima ekan? Diqqat bilan qarang va muzqaymoq nomini bo'g'inlab o'qisangiz, o'zingiz bilib olishingiz mumkin.

*(Bolalar mustaqil o'qish orqali muzqaymoq nomi es-ki-mo ekanligini bilib olishadi.)*

**Tarbiyachi:** – Ajoyib, ana endi siz yon-atrofdagi ma'lumotlarni, kitoblardagi matnlarni bemalol bo'g'inlab o'qiy olasiz.

Qarang, monitorda katta kitob va unda aralashib ketgan so'zlar yozilibdi. Biz gapdagi so'zlarni o'z joyiga qo'yishimiz uchun avval nima qilishimiz kerak?

**Bolalar:** – So'zlarni o'qib olishimiz kerak.

**Tarbiyachi:** – Albatta. Unda avval so'zlarni o'qiyimiz.

**Bolalar:** – Lo-la, chiq-di, bog'-ga.

**Tarbiyachi:** – Endi ushbu so'zlardan tugallangan ma'noli gaplar hosil qilamiz.

**Bolalar:** – Lola bog'ga chiqdi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi ish daftarimizni olamiz, unda sonlar hamda harflarni nuqtalarni birlashtirish orqali hosil qilamiz.

*(Jarayonda bolalarning ishi nazorat qilinadi.)*

**Tarbiyachi:** – Endi esa dam olish daqiqasi o'tkazib olamiz.

Yozdik-yozdik, ko'p yozdik,

Qo'llarimiz charchadi.

Endi birga turamiz,

Qo'lda chapak chalamiz.

Oyoqlarni do'pillatib,

Barmoqlarni ochib-yopib,

So'ngra tez o'tiramiz,

Davomini yozamiz.

**Tarbiyachi:** – Ish daftaringizga yozish paytida e'tibor qilgan bo'lsangiz, ba'zi harflar so'z o'rtasida kelganda ham katta harflar bilan yozilgan.

*(Dokada yozib ko'rsatiladi.)*

Insonlarning ismi, familiyasi, hayvonlarning laqabi va joy nomlari matn o'rtasida kelganda ham katta harflar bilan yoziladi. Monitorga qarang va matnni birgalikda bo'g'inlab o'qiyviz.

Men o'z-bek-man, O'z-be-kis-ton far-zandi.

O-i-la-miz-da eng ki-chi-gi Ko-mi-la.


Mu-shu-gim-ning la-qa-bi – Mosh.

**Tarbiyachi:** – Ko'rdingizmi bolajonlar, biz so'zlarni va gaplarni o'qish orqali qancha yangi bilimlarga ega bo'lamiz.

Endi qiziqarli bir o'yin o'ynaymiz. Buning uchun poyezdchaga yopishtirilgan rasmlar nomlarini mana bu aralash kartochkalar ichidan topib yopishtiramiz. Mevalar o'z nomlarini topganlaridan sizlardan xursand bo'ladi.

Ol-ma, ba-nan, li-mon, be-hi, u-zum, a-nor, an-jir, gi-los so'zlari rasmlar tagiga yopishtiriladi va bolalar o'qishadi.

**Tarbiyachi:** – Endi harflar haqida, ulardan qanday qilib bo'g'inlar, bo'g'inlardan so'zlar, so'zlardan gap hosil bo'lishi to'g'risidagi multfilmni birgalikda tomosha qilamiz. Marhamat.



# BO'G'INLAB O'QIYMIZ



AN-JIR  
AF-SO-NA  
A-LIF-BO  
AL-LA  
A-MA-KI  
A-NOR  
AN-TI-QA  
AQL-LI  
A-ZIZ  
A-RIQ  
A-SAL  
AV-TO-BUS  
AT-LAS  
A-TIR  
A-YIQ  
A-YOL  
A-RI



BO-BO  
BE-HI  
BU-VI  
BO-DOM  
BAR-MOQ  
BA-LIQ  
BA-HO  
BE-SHIK  
BU-RUN  
BA-HOR  
BA-RA-BAN  
BARG  
BO-LA  
BAY-RAM  
BAY-ROQ



DA-DA  
DO'-LA-NA  
DO'-KON  
DAZ-MOL  
DAF-TAR  
DU-TOR  
DO'ST  
DA-NAK  
DA-LA  
DA-DIL  
DEL-FIN  
DEV  
DEN-GIZ  
DI-VAN  
DO-NO



E-LAK  
EG-RI  
ER-KIN  
ECH-KI  
EP-CHIL  
E-KIN  
ER-TA-LAB  
ER-TAK  
E-TIK  
ES-KI  
EK-RAN  
EG-RI  
E-LAT  
E-NA-GA



FAR-TUK  
FIL  
FA-ZO  
FAB-RI-KA  
FASL  
FA-RO-SAT  
FEV-RAL  
FAR-ROSH  
FAV-VO-RA  
FI-ZI-KA  
FO-KUS  
FILM  
FAXR  
FER-MER  
FIKR



GUL  
GA-ZE-TA  
GAV-DA  
GI-LAM  
GI-LOS  
GOV-MISH  
GUL-XAN  
GLO-BUS  
GU-GURT  
GAZ-LA-MA  
GAV-HAR  
GA-RAJ  
GAP  
GAV-DA  
GARM-DO-RI



HA-KAM  
HAK-KA  
HARF  
HA-VO  
HAR-BIY  
HO-VUZ  
HAM-ROH  
HAS-SA  
HIK-MAT  
HA-VAS  
HAY-KAL  
HI-KO-YA  
HO-KIM  
HO-SIL  
HOL-VA



IB-RAT  
IK-KI  
I-JOD  
IL-DIZ  
I-LON  
ILM  
IN-SOF  
I-PAK  
I-RODA  
IS-SIQ  
IZ-QU-VAR  
IT-BA-LIQ  
IN-TER-NET  
IM-TI-HON  
IN-SON



JA-LA  
JAD-VAL  
JA-HON  
JAJ-JI  
JA-VOB  
JIY-DA  
JANG  
JA-ZO  
JI-GAR  
JON-ZOT  
JUR-NAL  
JO'-JA  
JAR-ROH  
JA-RI-MA  
JAN-NAT



KA-RAM  
KA-MON  
KA-MA-LAK  
KASB  
KE-LIN  
KEN-JA  
KET-MON  
KI-NO  
KIP-RIK  
KI-YIM  
KO-I-NOT  
KON-SERT  
KU-LOL  
KRES-LO  
KU-MUSH



LA-TI-FA  
LOY  
LAG'-MON  
LA-GER  
LI-KOP  
LO-LA  
LO-CHIN  
LU-PA  
LI-MON  
LU-G'AT  
LAM-PA  
LAR-ZA  
LAQ-MA  
LAV-LA-GI  
LAY-LAK



MAK-TAB  
MAJ-NUN-TOL  
MAL-LA  
MAN-TI  
MA-OSH  
MA-QOL  
MART  
MA-TO  
MAY-NA  
MAG'-LUB  
ME-DAL  
MAY-MUN  
MEH-MON  
MAM-LA-KAT  
MU-KO-FOT



NO'-XAT  
NA-FAS  
NAQSH  
NA-VO  
NAR-VON  
NI-HOL  
NO-DIR  
NON  
NE-VA-RA  
NOR-DON  
NOV-CHA  
NOV-VOY  
NOV-DA  
NO-RIN  
NOV-VOT



OF-TOB  
O-DOB-LI  
O-LIM  
OL-TIN  
OL-XO'-RI  
OQ-QUSH  
OR-ZU  
OV-QAT  
OY-MO-MA  
OLT-MISH  
O-BOD  
O-LIS  
OL-MA  
O-ROL  
O-G'IZ



PAR-TA  
PU-FAK  
PA-LOV  
PAR-DA  
PI-YOZ  
PARK  
PASH-SHA  
PING-VIN  
PI-CHOQ  
PIS-TA  
PO-MI-DOR  
PORT-FEL  
POY-TAXT  
PUX-TA  
PLASP





QA-DAM  
QAL-DIR-G' OCH  
QAH-VA  
QA-LAM  
QA-MISH  
QA-NOT  
QA-RI-YA  
QAND  
QAR-SAK  
QA-VAT  
QIM-MAT  
QUY-MOQ  
QOP-LON  
QO-NUN



RU-BOB  
RAQS  
RA-KE-TA  
RA-QAM  
RAS-SOM  
RE-JA  
RO-BOT  
RUCH-KA  
RUX-SAT  
RO'-MOL  
RO'Y-XAT  
RA-DI-O  
RAH-BAR  
REK-LA-MA  
RI-VO-YAT



SAB-ZI  
SAK-SON  
SINF  
SAL-QIN  
SAN-DIQ  
SA-ROY  
SA-VOL  
SE-DA-NA  
SER-SUV  
SE-MIZ  
SICH-QON  
SOD-DA  
SO-CHIQ  
SIRT-LON  
SOV-G'A



TUR-SHAK  
TAX-TA  
TA-BI-AT  
TAR-VUZ  
TA-BIB  
TIL-LA  
TOSH-BA-QA  
TU-XUM  
TA-NA  
TA-RIQ  
TA-RO-ZI  
TU-NU-KA  
TE-LE-VI-ZOR  
TEZ  
TE-PA  
TE-LE-FON



UK-KI  
UFQ  
U-ZUM  
UL-KAN  
U-ZUN  
U-LOQ  
UM-MON  
U-SHOQ  
UG-RA  
U-VOL  
UY-QU  
U-ZOQ  
U-CHUV-CHI  
UCH-QUR  
U-ZUK



VA-GON  
VAF-LI  
VA-KIL  
VAR-RAK  
VA-RAQ  
VE-LO-SI-PED  
VAQT  
VI-LO-YAT  
VIJ-DON  
VO-LEY-BOL  
VA-TAN  
VUL-QON  
VO-QE-A  
VO-DIY  
VOK-ZAL



XA-BAR  
XA-MIR  
XAL-TA  
XA-RI-TA  
XA-YOL  
XA-TO  
XUR-SAND  
XAVF  
XA-ZON  
XO-HISH  
XO-LA  
XO-TI-RA  
XON-TAX-TA  
XON-QI-ZI  
XUR-RAK



YAK-KA  
YA-QIN  
YA-SHIL  
YA-GO-NA  
YA-RIM  
YAN-VAR  
YAL-PIZ  
YAN-TOQ  
YAY-LOV  
YAP-ROQ  
YE-MISH  
YI-GIR-MA  
YI-GIT  
YO-RUG'  
YOL-G'ON  
YU-RAK



ZA-KO-VAT  
ZA-BON  
ZI-RA  
ZAVQ  
ZAN-GO-RI  
ZAR-BA  
ZA-MIN  
ZAR-RA  
ZA-VOD  
ZIQ-NA  
ZI-NA-PO-YA  
ZA-G'IZ-G'ON  
ZI-NA  
ZAN-JIR  
ZA-BON



O'P-KA  
O'-QUV-CHI  
O'R-DAK  
O'-ROQ  
O'-SIM-LIK  
O'S-MA  
O'T-LOQ  
O'T-KIR  
O'-YIN  
O'R-TOQ  
O'NG  
O'-G'IL  
O'-CHOQ  
O'R-NAK  
O'R-GIM-CHAK



G'A-LA-BA  
G'A-LA-TI  
G'AL-LA  
G'AL-VIR  
G'A-RO-YIB  
G'AV-VOS  
G'UN-CHA  
G'A-ZAL  
G'IL-DI-RAK  
G'ISHT  
G'O'-ZA  
G'A-NIM  
G'AY-RAT  
G'I-LOF  
G'AZ-NA



SHO-LI  
SHA-HAR  
SHAB-NAM  
SHAF-TO-LI  
SHARF  
SHA-BA-DA  
SHA-KAR  
SHAX-MAT  
SHI-FO-XO-NA  
SHIP-PAK  
SHOF-YOR  
SHOL-G'OM  
SHO-TUT  
SHOV-QIN  
SHAM-PUN



CHOY-NAK  
CHUCH-MO-MA  
CHA-PAK  
CHAL-KASH  
CHE-GA-RA  
CHAN-G'I  
CHU-MO-LI  
CHI-ROY-LI  
CHI-VIN  
ChE-LAK  
CHI-ROQ  
CHI-NOR  
CHU-QUR  
CHIN-NI  
CHO'-PON



E'-LON  
SA'-VA  
VA'-DA  
A'-ZO  
MA'-NO  
SHE'R  
A'-LO  
QAL'-A  
SAN-'AT  
A'-LO-CHI  
ME'-MOR  
NE'-MAT  
TA'-ZIM  
TA'-LIM  
SUR'-AT  
DA'-VAT

# ALIFBO

**Aa**

**Bb**

**Dd**

**Ee**

**Ff**

**Gg**

**Hh**

**Ii**

**Jj**

**Kk**

**Ll**

**Mm**

**Nn**

**Oo**

**Pp**

**Qq**

**Rr**

**Ss**

**Tt**

**Uu**

**Vv**

**Xx**

**Yy**

**Zz**

**O'o'**

**G'g'**

**Shsh**

**Chch**

**ng**

,

## Mundarija

Gap va nutq haqida ilk tushunchalar.....	3
Soʻz bilan tanishish, soʻz qismlari haqida maʼlumot berish.....	6
Boʻgʻin haqida maʼlumot berish.....	9
Tovush va harflarni oʻrganamiz.....	13
Unli va undosh harflar.....	16
”O“ tovushi va harfi.....	19
”O“ harfi didaktik oʻyinlari.....	22
”N“ tovushi va harfi.....	24
”N“ harfi didaktik oʻyinlari.....	27
”A“ tovushi va harfi.....	29
”A“ harfi didaktik oʻyinlari.....	32
”I“ tovushi va harfi.....	34
”I“ harfi didaktik oʻyinlari.....	38
”M“ tovushi va harfi.....	40
”M“ harfi didaktik oʻyinlari.....	43
”T“ tovushi va harfi.....	45
”T“ harfi didaktik oʻyinlari.....	48
”L“ tovushi va harfi.....	50
”L“ harfi didaktik oʻyinlari.....	53
”B“ tovushi va harfi.....	55
”B“ harfi didaktik oʻyinlari.....	58
”K“ tovushi va harfi.....	60
”K“ harfi didaktik oʻyinlari.....	63
”R“ tovushi va harfi.....	65
”R“ harfi didaktik oʻyinlari.....	68
”O““ tovushi va harfi.....	71
”O““ harfi didaktik oʻyinlari.....	74
”D“ tovushi va harfi.....	75
”D“ harfi didaktik oʻyinlari.....	78
”U“ tovushi va harfi.....	80
”U“ harfi didaktik oʻyinlari.....	83
”Y“ tovushi va harfi.....	85

”Y“ harfi didaktik o‘yinlari.....	88
”E“ tovushi va harfi.....	90
”E“ harfi didaktik o‘yinlari.....	93
”G“ tovushi va harfi.....	95
”G“ harfi didaktik o‘yinlari.....	97
”NG“ tovushi va harfi.....	99
”NG“ harfi didaktik o‘yinlari.....	102
”S“ tovushi va harfi.....	103
”S“ harfi didaktik o‘yinlari.....	106
”H“ tovushi va harfi.....	108
”H“ harfi didaktik o‘yinlari.....	110
”Sh“ tovushi va harfi.....	112
”Sh“ harfi didaktik o‘yinlari.....	115
”P“ tovushi va harfi.....	117
”P“ harfi didaktik o‘yinlari.....	120
”Q“ tovushi va harfi.....	122
”Q“ harfi didaktik o‘yinlari.....	125
”Ch“ tovushi va harfi.....	127
”Ch“ harfi didaktik o‘yinlari.....	130
”J“ tovushi va harfi.....	132
”J“ harfi didaktik o‘yinlari.....	135
”G““ tovushi va harfi.....	136
”G““ harfi didaktik o‘yinlari.....	138
”Z“ tovushi va harfi.....	140
”Z“ harfi didaktik o‘yinlari.....	143
”V“ tovushi va harfi.....	145
”V“ harfi didaktik o‘yinlari.....	147
”X“ tovushi va harfi.....	148
”X“ harfi didaktik o‘yinlari.....	151
”F“ tovushi va harfi.....	152
”F“ harfi didaktik o‘yinlari.....	154
”““ tutuq belgisi.....	156
Tutuq belgisi ”““ didaktik o‘yinlari.....	158
Bo‘g‘inlab o‘qiyimiz.....	162



**Nasiba ERXONOVA, Zuhra RO‘ZIYEVA**

## **TARBIYACHI KITOBI**

### **SAVOD O‘RGATISH**

Amaliy qo‘llanma

Muharrir: Muhayyo Rixsibekova

Dizayner: Mamurjon Ahliddinov

Nashriyot litsenziyasi AI № 015. 20.07.2018

Bosishga ruxsat etildi: 17.05.2021 y.

Qog‘oz bichimi. Times New Roman garniturasida bosildi.

Ofset uslubida oq qog‘ozda chop etildi.

Adadi 1000 nusxada.

Bosma tabog‘i 11. Shartnoma №0157.

Murojaat uchun telefon:

(+99897) 746-71-73, (+99894) 665-83-06,

”Zamin nashr“ nashriyoti

100000. Toshkent sh. Bog‘ishamol k. 160-uy.

Elektron pochta: zaminnashr@gmail.com

Buyurtma № 506-21.

”Credo Print“ MChJ

kitob fabrikasida chop etildi.

Toshkent sh., Bog‘ishamol k. 160.

Tel.: 71 234-44-01, 71 234-44-05

www.credoprint.uz

**A**

**«Ilk qadam» Davlat o'quv dasturida belgilangan «Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari» sohasi kompetensiyalarida nazarda tutilgan 6-7 yoshli bolalarning nutqni eshitish va tushunish, nutqida to'g'ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanish, badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qilish, so'zning lug'aviy, bo'g'inli va fonetik tuzilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish, turli ma'no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so'zlab berish, yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni bilishga o'rgatishga mo'ljallangan qo'llanma.**

**T**

**G**



Original-maket «Zamin nashr» nashriyoti  
«Credo Print» kitob fabrikasida chop etildi.  
100053, Toshkent shahar, Bog'ishamol ko'chasi, 160-uy  
[www.zaminnashr.uz](http://www.zaminnashr.uz) [www.credoprint.uz](http://www.credoprint.uz)

ISBN 978-9943-6891-2-1



**S**